

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENTS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI


«O'ZBEK XALQ OGZAKI BADIHY IJODI»

fanidan ma`ruzalar matni

«O'zbek tili va adabiyoti» ta'lim yo'nalishi uchun



Toshkent-2011



KIRISH. FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI. REJA.

1. Folklorshunoslik "xalk ogzaki ijodi) termini.
2. Xalk og'zaki ijodining o'ziga xos belgilari, jamoalik, og'zakilik, variantlilik, an'anaviylik, ommaviylik.
3. Folklorning ijtimoiy moxiyati.
4. Folklorshunoslik-folklori urganuvchi fan sifatida.

Foydaniigan adabiyetlar:

- X. Razzoqov, T. Mirzayev. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" Toshkent-1980 y.
M. Alaviya. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" Toshkent-1974 y.
G. Jalolov. "O'zbek folklorida janrlararo munosabat" Toshkent-1960 y.
M. Afzalov. "O'zbek xalq ertaklari haqida" Toshkent-1964 y.

Xalq og'zaki ijodi-mehnatkash omma ijodi, xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san'atining boshqa turlaridan "musika, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir. Har bir xalqning orzu-idealini aks ettirgan boy og'zaki so'z san'ati bo'lganidek, o'zbek xalqining ham og'zaki adabiyeti durdonalari mavjud.

Xalqimiz tomonidan og'zaki yaratilib, xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan-avlodga o'tib kelayetgan badiiy asarlar o'zbek xalq og'zaki poetik ijodini tashkil etadi.

Og'zaki so'z san'ati "folklor" yoki "xalq og'zaki poetik ijodi" terminlari bilan ifodalanadi. Folklor termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 14y yilda qo'llangan bo'lib, u ikki so'zdan iborat-"folk" xalk, "lo4"- bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni "XALQ DONISHMANDLIGI" demakdir.

Folklor - xalqaro termin. Lekin u turli mamlakatlarda turli ma'noda qo'llaniladi. Masalan, Angliya va AQSHda xalq badiiy faoliyatining barcha turi "poetik ijod, muzika, raqs, teatr, tasviriy va amaliy san'at), shuningdek irim-sirim, ishonch-e'tikod va urf-odatlar shu termin bilan ataladi. Bizning o'zbek fanida esa bu termin konkretlashib bormokda. "Folklor" deganda asosan xalq og'zaki tushuniladi. O'zbek folklorshunosligiga "folklor", "o'zbek folklori" terminlarini birinchi marta X. Zarif kirishdi "1934-35 yy). Folklor janrlarida muzika, raqs, teatr san'ati elementlari qo'shilib ketadi, shuning uchun folklor sinkretik san'at deyiladi. Ayni paytda folklor asarlari san'atning boshqa turlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Folklorida so'z, kuy va ijro birligi doimo saqlanadi. Xalq og'zaki ijodi uzoq davrlardan beri tarixning yo'ldoshi, uning chinakam aks-sadosi bo'lib kelgan u tarixiy voqealarni xalq ommasining tushunchasi nuqtai nazardan, xalq pozitsiyasidan kelib chiqib, badiiy formalarda baholanadi. Xalq ijodini o'rganuvchi, tekshiruvchi fan "folklorshunoslik" deb yuritiladi. Bundan tashqari folklor asarlari bilan bir qancha fanlar shug'ullanadi.

Tarixchilar tarixiy voqealarning xalq og'zaki ijodida qanday aks etganini o'rganadi. Etnograflarni xalqning urf-odatlari qiziqirsa, san'atshunoslar esa folkloridagi musiqa, raqs, o'yin va boshqalarni o'rganadilar. Tilshunoslar xalq ijodi tilining lahja va dialektlari bilan, adabiyetshunoslar folklor asarlarining yezma

adabiyet bilan munosabatlarini tekshiradi.

Folklor asarlari xalq hayetini aks ettiradi, xalqning olam haqidagi tushuncha larini uning didi zavqini ijtimoiy tarixiy siyosiy, falsafiy va badiiy estetik qarashlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Kollektivlik, og'zakilik, ananaviylik, o'zgaruvchanlik, variantlilik kabilar folklorning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u o'ziga xos ijtimoiy mohiyat va badiiy sistemaga ega.

Kollektivlik - o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi mehnatkash xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan kollektiv ijod mahsulidir. Chunki folklor asarlari bir kishining ongli faoliyati natijasida yaratilmay, balki butun bir jamoaning ijodiy tajribasi asosida vujudga keladi. Malumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor asarlari kollektiv tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan.

Keyinchalik esa u talantli kishilkar tomonidan yaratildi. Ular o'z ijodida qabila va urug' odatlari, hohishlari, etiqodlari, tabiat bilan bo'lgan munosabatlari hamda hikoya qildilar. Demak, kollektiv-ijodkor, ayni paytda ijrochi hamdir. Demak, folklor asarlarida kollektiv ijod tushunchasi hech mahal individual ijod rolini inkor etmaydi. Zamon, xalq kuychisi "dostonchi, ertakchi, qo'shiqchi, latifago'y, askiyachi va boshqalar) kollektiv tomonidan yaratilgan asarlarni mexanik tarzda boshdan oxirigacha yed olmaydi, yani so'zma so'z yed olmaydi, balki unga ijodiy munosabatda bo'lib, o'zidan nimadir qo'shadi, boyitib boradi.

Folklorning og'zakiligi-xalq poetik og'zaki ijodi hali yezuv paydo bo'lmasdan ko'p zamonlar ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki anana bilan bog'liqdir. Folklor asarlarining uzoq asrlar davomida og'zaki yaratilishi uning shakl va mazmuniga tasir etmasdan qolmas edi.

Folklorning ananaviyligi - anana kollektiv ijod mahsuli. U o'zining tarixiy manbalariga ega. Folklor asarlarining dastlabki namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan. Folklor asarlarining og'zaki yaratilishi va og'zaki ijro etilishi ularning o'zgarmas barqaror shakllari-ananalarini yuzaga keltirgan. Masalan: qaxramonlik tipidagi ertak va dostonlar o'rtasida janr etibori bilan malum darajada tafovut mavjud bo'lsa ham, badiiy uslub ananaviy shaklga ega. Xar ikkisida ham ananaviy boshlama, syujet bayeni va tugallanmadan iborat bo'lib, obrazlar konkret tarzda ifodalanadi. Bosh qahramon va voqealar mubolag'a shaklida tasvirlanadi. Asar matnlari nisbatan turg'un holatda saqlanadi. Binobarin, asosiy syujetlar, obrazlar sistemasi va badiiy tasvir vositalari ananaga aylanadi hamda og'izdan-og'izga, avloddan avlodga o'tish jarayenida qisman o'zgaradi, bazi bir detallar qo'shiladi. Biroq asosiy manba anana bo'lib kolaveradi.

Variantlilik - folklor asarlarining davrdan-davrga, ijrodan-ijroga o'tishida yuzaga kelgan o'zgarishlar variantlarda aks etadi. Folklor asarlarining ko'p variantlarda, ko'p nusxalarda tarqalishi variantlilik hisoblanadi. Variantlar muayyan asarlarning bir-birini inkor etmaydigan, jonli og'zaki an'anada mustaqil yashay oladigan turli-tuman mantlaridir. Masalan, "Alpomish" dostonining 30 ga yaqin variantlari mavjud. Xalq orasida esa bundan ham ko'p variantlarda tarqalgan. Variantlar asosan, hayetiy shart-sharoitlar asosida yuzaga keladi. Dostonchi yeki

ertakchi asar kuylanayotgan davr, sharoit va auditoriyaga qarab ijro etib yurgan doston yoki ertagiga o'zgartishlar kiritadi. Masalan: kattalarga aytilgan bir ertak, bolalarga boshqacha aytiladi. Shu tarzda ertak o'zgarib boradi va variant yuzaga kela boradi.

O'zbek halq og'zaki poetik ijodi o'zbek halqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosidir. Bu meros maqollar, matallar, latifalar, qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar va janrlardan iborat hisoblanadi. Og'zaki ijodning ildizlari Markaziy Osiyada yashab o'tgan turkiy halqlarning mifik duneqarashlarga borib taqaladi. Mazkur mifik duneqarash O'rxun-Enasoy yezuvchilari, "O'g'uznoma", "Kitobi dadam Qo'rqu", Koshg'ariy tuzgan "Devonu lug'atit turk", A.Yugnakiyning "Xibatul haqoyiq", Yusuf xos hojibning "Qutadg'u bilig" kabi adabiy yedgorliklar bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi 1991 yil mustaqillikka erishganidan so'ng halq og'zaki ijodiga milliy qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida munosabatda bo'lish boshlandi.

Mustaqillik Respublika ma'muriyati zudlik bilan milliy mafkura asoslarini yaratishni kun tartibiga qo'ydi. Ayniqsa, prezident I. A. Karimovning 1997 yil 31 avgust kuni Oliy Kengash noiblari huzurida I chaqiriq IX sessiyasida "Barkamol avlod-O'zbekiston kelajagining poydevori" mavzusidagi nutqida og'zaki ijod asarlarga milliy mafkura tamoyillari singdirilgan ma'naviy qadriyatlar sifatida bo'lish masalasiga alohida e'tibor berildi. 1997 yil 6 oktyabr kuni Respublika bo'yicha "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" qabul qilindi. Mazkur dastur matnida ham qadriyatlari yesh avlodni milliy mafkura asosida tarbiyalashning manbalaridan biri sifatida baho oldi. Shuningdek, 1991 yildan buyan Navro'z bayramiga ajratilgan e'tibor, keyingi har yilning A. Temur, Oila, Ayellar bilan bog'lanishi ham og'zaki ijodimizga Davlat siyosati darajasida baho berilishini ta'minlab kelmoqda. 1998 yilning 13-yanvar kuni prezident I.A. Karimov "Alpomish" dostonining 1000 yilligini nishonlash haqidagi farmonga imzo chekdi. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng milliy ma'naviyatga qanchalik yuqori baho berilayotgandan, madaniy merosimizga e'tibor keskin ijobiy tomonga o'zgarganidan dalolatdir. Shuning uchun o'zbek filologiyasi fakultetida o'qish maqsadini bildirgan talaba o'ralq og'zaki poetik ijodiga shunchaki dam olish, hordiq chiqarish ob'ekti sifatida emas, halqning miliy ruhi aks etgan tarixiy hujjat sifatida munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirmog'i lozim.

Ma'lumki, 1993 yildan O'zbekistondagi umumta'lim maktablarida adabiyet fani bo'yicha yangi dastur asosida o'quv mashg'ulotlari uyushtirilmoqda. 1999 yildan Respublika Vazirlar Maxkamasi "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" asosida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ochish haqida qaror qabul qilindi. Mazkur qarorning hayetga tatbiq natijasida halq og'zaki poetik ijodi kursini alohida nazariy kurs sifatida o'rganish masalasi amalga oshmoqda. Bu esa, bo'lajak adabiyet o'qituvchisiga o'zbek halq og'zaki poetik ijodini bo'lg'usi yesh mutaxassis sifatida mukammal o'rganish mas'uliyatini yuklaydi. Shunday qilib, o'zbek filologiyasi fakultetida ta'lim olayotgan talaba biz o'rganadigan nazariy kursni ikki maqsadda o'rganishga majbur bo'ladi. Birinchidan, O'zbekiston

respublikasining fuqarosi sifatida og'zaki ijod janrlari va asoslarini o'rganadi va shu asosida milliy mafkura tamoyillarini egallaydi. Ikkinchidan, bir necha yildan so'ng umumta'lim maktablarida adabiyet fani bo'yicha mashg'ulotlar uyushtiradigan mutaxassis sifatida og'zaki ijod namunalari tahlil etish, badiiy asarlar mohiyatini o'qituvchilarga tushuntira olish ko'nikmasini hosil qiladi.

"Folklor" atamasi inglizcha "Halq donishmandligi" man'nolarini anglatadi. Bu atama birinchi marotaba 1846 yilda Vilyam Toms tomonidan qo'llangan bo'lib, bugungi kunda jahon ilmida halq ijodi tushunchasini bildiradi. Xalq ijodi halq amaliy san'atini, halq me'morchiligini, halq og'zaki ijodini ifodalaydigan atamadir. Faqat har bir soha mutaxassis folklor deganda o'z sohasini nazarda tutadi. Masalan, biz "Folklor" so'zini qo'llangan halq og'zaki ijodini nazarda tutamiz. Xoregraf bu so'zni qo'llaganda halq raqsini, musiqashunos esa halq kuylarini nazarda tutadi.

Folklor asarlarida halq xayetining badiiy aksi ifodalanadi. Shuning uchun halq og'zaki ijodi so'z san'atining og'zaki shakli sifatida o'rganiladi. Xalq og'zaki ijodining maqollar, ertaklar, dostonlar, tezaytish, topishmoq, sanamachiq, qo'shiq, aksiya kabi janrlari bor. Xalqimiz tomonidan ming yillar davomida yaratilgan og'zaki ijodnamunalari o'zbek halqining madaniy merosidir. Davlat hujjatlarida qayta-qayta ta'kidlanayotgan halqimiz qadriyatlari tushunchasi tarkibida halq og'zaki ijodi ham mavjuddir. Xususan, "Alpomish" "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Ravshan", "Oshiq "G'arib va Shohsanam" kabi dostonlar, "Mohistara", "Bulbuligo'e", "Malikai Xusnobod" kabi ertaklar, lirik qo'shiqlar, yer-erlar, churiyalar, turey-tureylar va boshqa og'zaki ijod namunalari halqimiz qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

A D A B I Y E T L A R

1. I.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyatining poydevori. Toshkent, Sharq nashriyati-Matba konsernining bosh tahririyati, 1999 (4-10-betlar).

2. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent "O'qituvchi" 1999.

XALQ OG'ZAKI POETIK IJODINING O'ZIGA XOS BELGILARI.

Reja

1. An'anviylik 2. Jamoalik va ommaviylik 3. Og'zakilik va badihago'ylik 4. Ko'p nusxalik va versiyalik 5. Anonimlik

O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi jahondagi hamma halqlar og'zaki ijodida bo'lgani kabi bir qator o'ziga xos belgilarga ega. Bu belgilar asosan og'zaki shakldagi so'z san'ati namunalari yozma adabiyet asarlaridan farqlovchi hususiyatlar hisoblanadi. Ular quyidagilardan iboratdir

1. An'anviylik 2. Jamoalik va ommaviylik 3. Og'zakilik va badihago'ylik 4. Ko'p nusxalik va versiyalik 5. Anonimlik

An'anviylik xalq og'zaki poetik ijodining asrlar davomida hayet tajribasida sinalgan asosiy xususiyatidir. Yaqin o'tmishda an'anviylik og'zaki

ijodning bosh mezoni sifatida qayd etilmas edi. Ammo ijtimoiy hayetdagi ijobiy o'zgarishlar natijasida og'zaki ijoddagi bu xususiyatga alohida e'tibor berish muddati yetib keldi. Gap shundaki, halqning hordiq chiqarishida, madaniy dam olishida olishida asosiy vosita hisoblangan doston, ertak, qo'shiq, askiya topshimoq ijrolari qadim zamonlardan buyen ma'lum an'anaga bo'ysungan. Bu holatni ikki yo'nalishda qayd etish mumkin

1. Ijroning shakli 2. Matniy an'ana.

Folklorshunoslar B.Karimov, X.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Xusainova kabilarning ma'lumot berishicha, og'zaki ijod asarlarini ijro etishda ijrochilar qat'iy odatlarga amal qilganlar. Xususan, ertak aytuvchi o'z tinglovchilari yig'ilganidan so'ng o'z oldiga suv, kul, tuproq, isiriq, supurgi, taroq, cho'p va boshqa narsalarni ma'lum tartibda qo'ygandan so'nggina ertak aytishni boshlagan. Topishmoq aytishda g'olib va mag'lub va tarablarni belgilovchi shartlar e'lon qilgan. Doston ijrosida Samarqand, Xorazm, Farg'ona an'analari mashhur bo'lgan. Demak, janrlarga oid asarlar ijrosi davomida doimiy ravishda takrorlanuvchi an'analari muhim rol o'ynagan. Shubhasiz, folklorshunoslikda matniy an'analarga e'tibor berish muhimroq hisoblanadi Biz bu o'rinda doston, ertak, janriga mansub asarlarning nasriy va nazmiy shakllarini, asar boshlanmasidagi an'anaviy o'rinlarni nazarda tutamiz. Adabiyetshunoslikda obraz yaratish, konfliktni belgilash, badiiy tasvir vositalari kabi tushunchalar muhim hisoblanadi. Xalq qo'shiqlaridan tortib dostonlargacha, maqollardan tortib ertaklargacha obraz yaratish, voqeani bayen qilish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish kabilar o'ziga xos ko'inishlarga egadir. Shuning uchun xalq orasidan chiqqan va alohida iqtidorga ega bo'lgan ijodkor-ijrochilar o'zlari yaratgan asarlarini har bir janr an'anasini hisobga olib, ijod qilganlar. Natijada ular yaratgan yangi asar an'ana jihatdan original bo'lmagan. Aytish mumkinki, shuning uchun ham yangi ertak yeki doston yaratuvchi shaxs o'z nomini muallif sifatida eslashga jur'at etmagan. Shunday qilib, an'anaviylikni xalq og'zaki ijodining o'ziga xos, muhim belgilaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin bo'ladi. Jamoalik va ommaviylik tushunchasi ham og'zaki ijodida muhim hisoblangan. Bu o'rinda asarning jamoa bilan, uning tarqalishi va xalq orasida yashashi ommaviylik bilan bog'liqligini ta'kidlash zarur. Xalq og'zaki ijodidagi har bir asarning vujudga kelishi, janr namunasi sifatida mukammalishishi, so'z san'atining namunasi sifatida xalqqa ta'sir etish unda jamoaning ishtiroki bilan belgilanadi. Fol'klordagi jamoalik tushunchasi bilan biron jismoniy mehnatni amalga oshirishdagi jamoalik tushunchasi o'rtasidagi farq bor. Jamoa bo'lib paxta terish mumkin, imorat qurish mumkin. Lekin bevosita jamoa bo'lib asar yaratish mumkin emas. Doston, ertaklarning shakllanishida jamoalik tushunchasi nisbiy ma'noga ega bo'ladi. Chunki folklor asarining yaratilishida bosh vazifani ijod qilish iqtidoriga ega bo'lgan shaxs bajaradi. Ammo shaxs yaratgan dastlabki asar ko'rinishi yillar davomida shakllangan an'ana asosida vujudga kelgani uchun va keyinchalik xalqning boshqa iqtidorli farzandlari tomonidan unga qayta-qayta o'zgarishlar kiritilgani uchun jamoa ijodi sifatida baholanadi. Kuzatishlarimiz shuni tasdiqlayaptiki, hatto, tinglovchilar ijro davomida asardagi tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan o'zlarining qiziqishlarini bildirishlari orqali ham mazkur asar

nusxasiga o'zgarishlar kiritar ekanlar. O'ylaymizki ana shu jarayenni ham folkloridagi jamoalik belgisi bilan bog'lash mumkin bo'ladi. Binobarin, xalq og'zaki ijodida jamoalik va individual ijod tushunchasi bir-birini inkor etmaydi. Ommaviylik esa yaratilgan folklor namunasining xalq vakillari istiqomat qiluvchi hamma xududlarga tarqalishi bilan bog'liqdir. To'g'ri, bu xududlar ba'zan tarixiy-etnografik jihatdan chegaralangan bo'lishi mumkin. Masalan, doston, ertak, askiya va boshqa janr asarlari O'zbekistonning hamma viloyatlarida bir xil ijro etilmaydi. Ammo shunga qaramay, asarlar tarqalishidagi ommaviylik har bir namunaning o'zbek xalq madaniy merosiga taalluqli ekanini tasdiqlayveradi. Og'zakilik va badihago'ylik og'zaki ijod asarlarining shakli ko'rinishi bilan bog'liqdir. Asrlar davomida bizgacha yetib kelgan doston, ertak, qo'shiq, maqol va boshqa asarlar og'zaki tarzda yaratilgan, og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tgan va xalq madaniyatning og'zaki merosiga aylangan. Ko'p yillardan buyan og'zaki ijod namunalari o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar og'zakilikni ijobiy va salbiy jihatlar borligini tasdiqlamoqda. Bizningcha, og'zakilik xalq ijodining omma orasiga tarqalishida va keng tus olishida ijobiy ahamiyatga ega. Chunki asarlarning bu shaklda ijro etilishi ijrochi zimmasiga ortiqcha ma'uliyat yuklamaydi. Ammo masalaning ikkinchi tomanini ham qayd etmoq lozim, xususan, ayrim ijod namunalari og'zaki tarzda ijro etilganligi uchun ijrochining vafoti bilan asarning hayati to'xtaydi. Ayrim ijod namunalari shogirdlar tomonidan o'rganilmasligi yoki olimlar tomonidan yezib olinmaganligi oqibatida asar og'zaki ijro etilganligi uchun vaqt o'tishi bilan esdan chiqadi, asar yo'qolib ketadi. Badihago'ylik xalq og'zaki ijodidagi bevosita og'zakilik xususiyatidan kelib chiqadigan belgidir. Badihago'ylik yezma ijodda yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki yezma jarayen individual ijod bilan bog'langandir. Badihago'ylik esa tinglovchi auditoriyasi bilan bog'liq holda namoyen bo'ladi. Xalq og'zaki ijodidagi askiya badihago'yliksiz tasavvur etish mumkin emas. Shuningdek, doston va ertaklarning ijrosi jarayenida ijrochi asar matniga yo'l-yo'lakay o'zgarish kiritish yangi lavhalarini o'ylab topishi, ayrimlaridan voz kechishi mumkin. Dialektologiya ekspeditsiyalari jarayenida ba'zi badihago'y shoir-qo'shiqlar ekspeditsiyaning har bir a'zosiga atab alohida-alohida to'rtliklar to'qiganiga guvoh bo'lganmiz. Aytish mumkinki, doston, ertaklarning yangi nusxalarini yaratishda ham badihago'ylikning ahamiyati seziladi.

"Variantlilik va versiyalik yezma ijodda deyarli ko'zga tanlanmaydi. Chunki bir asarning bir muallif tomonidan turli o'zgarishlar bilan o'quvchiga taqdim etilishi son va sifat jihatdan variantlilikning vujudga kelishiga imkon bermaydi. Ba'zi hollardagina yezma adabiyetdagi variantlilik haqida fikr yuritish mumkin. Jumladan, adabiyetshunoslarning ma'lumot berishicha, Said Ahmadning "Ufq" romani "Sharq yulduzi" jurnali va alohida nashr variantiga ega. Vaholanki, og'zaki ijodda bir asarning baxshilar tomonidan ijro etilishi o'nlab variantlarni vujudga keltiradi. Folklorshunoslikka "Alpomish" dostonining 40 dan ortiq varianti ma'lum bo'lib, shulardan 2i tasi yezib olingan va 4 tasi nashr etilgan. Shunday qilib, variantlilik deganda, bir asarning xalq doirasida va kompozitsion o'zgarishlar bilan ijro etilishi tushuniladi. Xar bir o'zi ijro etayotgan asarga mahalliy sharoitdagi o'zgarishlarning o'z duneqarashini, aholi o'rtasida alohida

esda qoladigan voqealarni singdirib yuborishi oqibatida o'z nusxasini yaratadi. Bu nusxa boshqa ijrochilarnikidan voqealarning ifodalash, obrazlarni yaratish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish jihatlaridan o'ziga xoslikka ega bo'ladi, olimlarning eslashicha, "Alpomish" dostonini Ergash Jumanbulbul sevgi dostoni qilib, Fozil Yo'ldosh o'g'li qahramonlik dostoni qilib kuylaganlar. Xalq og'zaki ijodidagi variantlilik ana shunday nusxalar tashkil qilgan.

"Versiyalik variantlikdan ko'ra kengroq tushunchadir. Versiyalikni bir badiiy asar doirasida qahramonlar nomidagi o'xshashlik, ayrim voqealar bayenidagi umumiylik tashkil etadi. Masalan, "Alpomish" dostonining Qo'ng'iro't, Oltoy, Qipchoq, O'g'uz versiyalari bor. Bu versiyalarni asosan asar qahramonlarining farzandsizligi, keyinchalik farzandga ega bo'lishlari, bu farzandning qahramonlik ko'rsatishi, tutqunlikda bo'lishi, ozodlikka chiqishi kabi ayrim umumiy voqealarnigina birlashtirib turadi. Xatto asarning nomlanishida ham farqlar aniq seziladi. Anonimlik halq og'zaki ijodi asarlarini yaratgan dastlabki muallif nomining ma'lum emasligidir. O'zbek xalq og'zaki ijodi o'nlab doston va ertaklardan, yuzlab qo'shiqlardan, minglab maqollardan tashkil topgan, lekin an'anaviy og'zaki ijod namunalariga taaluqli asarlarning birontasi uni yaratgan muallif nomi bilan yuritilmaydi. Chunki u muallifning o'zi yo'q. Yuqorida qayd etganimizdek, og'zaki asarlarni yaratuvchi ijodkorlar o'zlarining nomlarini e'lon qilmaslikni ma'lum topganlar. Folklorshunoslikda bu odat xalq farzandlarining ijobiy fazilatlarini sifatida takidlanadi. Anonimlikni ijtimoiy hayetdagi anonim tarzda yeziladigan maktublar bilan aralashtirmaslik lozim. Chunki anonim xatlar fisq-fasod, g'iybat oqibatidir. Og'zaki ijoddagi anonimlik esa xalq farzandning o'z haqida ko'rsatgan iltifoti namunasidir.

Shunday qilib, halq og'zaki ijodi, yuqorida qayd etilgan beshta o'ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlar og'zaki ijod asarlarining yezma adabiyetdan va ayni choqda xalq ijodini san'atning boshqa turlaridan farqlantiruvchi belgilar hisoblanadi.

A D A B I Y e T L A R

1. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov, O'zbek xalq poetik ijodi. Tashkent. "O'qituvchi", 1990.

QADIMGI DAVR FOLKLORI

R Ye J A .

1. Mehnat jarayenining inson ongiga ta'siri natijasida og'zaki ijod namunalarining paydo bo'la boshlashi.

2. Qadimgi mif va afsonalar .

3. Qadimgi qahramonlik eposlari .

4. Qadimgi qo'shiqlar va ularning turlari.

Adabiyetilar

1. X.Razzoqov, T.Mirzayev. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" Toshkent-1990y.

2. M.Alaviya. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" Toshkent-1984 y.

3. G.Jalolov. "O'zbek folklorida janrlararo munosabat" Toshkent-1989 y.

4. M. Afzalov. "O'zbek xalq ertaklari haqida" Toshkent-1964 y.

Badiiy so'z sanati madaniyatning eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan bir sohasidir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamiyat kishilarining mafkuraviy tasavvuri, mafkura turlari hali rivojlanmagan davrdayeq vujudga kelgan edi. Mehnat jarayenining rivoji, kishi tajribasi va ongining o'sishi mafkura turlarining bir-birlari bilan uzviy aloqada bo'lgan mustaqil sohalarda sifatida taraqqiyet etishga xizmat qiladi. So'z san'atining tashkil topishida o'sha davr shart-sharoiti, odamlarning mehnat va turmush tajribalari dunekarash va tushunchalari xalq kiluvchi rol o'ynagan. Eng avval og'zaki nasriy turning dastlabki namunalari maydonga kelgan. Ular nihoyatda sodda bo'lib, turli xildagi undov-xitoblar va voqealar bayenidan iborat bulgan. Mehnat jarayeni va ongning rivojlanishi voqea-hodisalar talqinida oddiy bayendan obrazli tasvirlashga olib keldi. Badiiy so'z tajribasining o'sishi, badiiy did va zavqning takomillashib borishi xilma-xil badiiy shakllarni, adabiy janrlarni vujudga keltiradi. Shunday kilib, badiiy so'z san'ati yezuv va yezma adabiyetdan ko'p zamonlar ilgari og'zaki ijod shaklida paydo bo'ladi hamda yezma adabiyetning vujudga kelishiga zamin tayarlaydi. U og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'tadi. Ammo u dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, har qachon ham o'sha holda saqlanib kolmaydi, balki ijodiy qayta ishlanadi, turli xil o'zgarishlarga uchraydi, yangi-yangi malumotlar bilan boyiydi, yangi tarixiy sharoitga muvofiq lashtiriladi. Eng avval kichik-kichik naql va miflar mehnatni yengillashtiruvchi, ruhan tetik qiluvchi, xayel og'ushiga olib kiruvchi ertak va afsonalar yaratildi, mehnat jarayenini ifodalovchi qo'shiqlarning namunalari paydo bo'ldi.

O'rta Osiye xalqlarining eng qadimgi zamonlarga oid ayrim og'zaki adabiyet yedgorliklari bazi bir manbalar orqali bizga qadar saqlanib qolgan. Bu manbalar tarix kitoblari, ilmiy asarlar, yezma yedgorliklar va boshqalaridan iborat. Qadimgi tarixchilardan Gerodot, Kteziy, Polien va boshqalarning kitoblarida xalq og'zaki ijodi ayrim asarlarining mazmuni hikoya qilib qoldirilgan. Shuningdek o'rta asr tarixchilaridan Xamza Isfanoniy, Toboriy, Ma'sudiy, Beruniy va boshqalarning asarlarida ham og'zaki adabiyetga doir qimmatli material va ma'lumotlar bor. "Avesto", "Bundaxshin", "Denkard" kabi yezma yedgorliklarda og'zaki adabiyetning ba'zi namunalari o'rin olgan. M. Qoshg'ariy o'zining mashhur lingvistik asari "Devoni lug'otit turk"da qadimgi qo'shiq, lirik she'r va maqollardan turli namunalar beradi.

Ulug' shoir Firdavsiyning "Shohnoma"sida qadimgi og'zaki adabiyetning bir qancha asarlari, obrazlari qayta ishlanadi. Bular bizni qadimgi og'zaki adabiyet namunalari bilan tanishtirib, ular haqidagi ma'lum tasavvur tug'diradi. San'at yedgorliklari va moddiy madaniyat boyliklari esa qadimgi og'zaki adabiyet to'g'risidagi ma'lumotlarni bir muncha boyitadi, tasavvurimizni kengaytiradi.

Eng kadimgi folklor asarlari miflar, jangnoma tipidagi afsonalar, qahramonlik va pahlavonlik eposlari, qo'shik va maqollardan tashkil topgan.

Turkiy xalqlar folklori bilan urf-odatlarida izlari saqlanib qolgan animistik va totemistik qarashlar qadimiy tasavvurlar sistemasini tashkil etadi. Ma'lumki, ibtidoiy inson tabiat hodisalarini qurib talvasaga tushgan, ayni paytda ularni

yengishga harakat ham qilgan. Buning uddasidan chiqolmay, ilojisiz qolish, tabiatga sig'inish, notabiiy quringan hodisalarga topinish, ularni kult darajasiga ko'tarishga olib kelgan. Bu hol g'ayri ilmiy animistik va totemistik tasavvurlarni tug'dirgan.

Ibtidoiy odam jonsiz narsalarga jonli deb qaraydi. Bu xildagi ibtidoiy tushunchalar yigindisi ANIMIZM nomini olgan. Uning yerqin namunasi ertaklarning qadimiy motivlarda o'z ifodasini topgan. "Ok bilakxon", "Ochil-ochil kamishlar", "Eritosh", "Elmog'iz kampir", "Qilich botir" kabi ertaklarda insonning toshga aylanishi, toshning yerilishi, bag'riga kishilarni olishi, qahramonning joni qilichda ekani bunga misol bo'la oladi. Yaqin kunlargacha to'y va boshqa marosimlarda gulxan yeqish, uning atrofida aylanish, oy tutilganda qozon, chelak kabilarni chalish hollari mavjud edi, bu yo'qolib borayotgan qadim tasavvurlarning izlari hisoblanadi.

TOTEM - u yeki bu urug'ning e'tiqod qo'ygan himoyachisidir. Totemizm odamning ko'pincha bir hayvon yeki o'simliklarga aloqasi borligi haqidagi ishonch-e'tiqoddan kelib chiqqan. O'zbek urug'larining ota-bobolari kuyesh, suv, olovga topinganlar, keyinchalik ot, ho'kiz, ilon, bo'ri, it va boshqa hayvonlarga e'tiqod kuyganlar. Ularni ajdodlari deb bilganlar. Shu asosda totemlar kelib chiqqan. Totemlar bilan bog'liq afsonalar ham mavjud. "Bo'rining omon qokgan bolani saqlab boqishi, undan 10 ta bola tug'ishi va ularning har biri turk urug'larining asoschisi bo'lgan). Bo'ri totemiga aloqador ba'zi ertak va afsonalar - "Chulok bo'ri", "Bo'ri qiz", "Bo'ri" kabilar hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Bo'ri e'tiqodi yangi tug'ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayet kechirish, podadagi mollarni ehtiyetlash, dehqonchilik ekinlarini yevuz kuchlardan saqlab qolishdan iborat bo'lgan.

Ot kulti qadimgi kishilarning turmush tirikchiligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, otlarni ish hayvoni sifatida xo'jalikda foydalanish, xonakilashtirish yuzaga kelgan.

Arxeologiya qazilmalarida aniqlangan Yarmi ot, yarmi odam sifatida ishlangan rasmlar, haligacha ekin maydonlari, polizlarda otning kalla suyagining qo'yilishi va boshqalar otga e'tiqod qilishning bir timsolidir. Xorazmdagi Xozorasp singari geografik joy nomlari aslida ot kultiga aloqador bo'lgan urug' nomlari bilan bog'lanadi. O'zbek xalq dostonlarida G'iro't, Boychibor, Jayronkush, Majnunkuk kabi ot obrazlarining bo'lishi ham bejiz emas.

QADIMGI MIFLAR VA AFSONALAR

Mif grekcha so'z bo'lib, xudolar, pahlfonlar haqidagi to'qima afsjnadir. Garchi miflar ibtidoiy jamiyat iqtisodiy taraqqiyetining pastligi va inson bilimining zaifligi tufayli vujudga kelgan bo'lsa ham, lekin ular kishilarni hayetni sevishta, har qanday ishda g'olib chiqishga yo'llar va inson kuch-qudratini ulug'lar edi.

Qadimgi Markaziy Osiyeda vujudga kelgan ko'pchilik miflar uchun, hind va boshqa xalqlarning miflarida bo'lganidek, yaxshilik va yemonlik, nur bilan zulmat o'rtasidagi kurash xarakterlidir. Kishilar yaxshilik, baxt-saodat, quyesh nuri, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo'yib, baxt o'lkasi va baxtsizlik o'lkasi degan miflarni yaratganlar.

"Avesto"shuningdek, "Bundaxishn"da aytilishicha, ikki olam - yaxshilik va yemonlik olami bor. Yaxshilik olamiga Axuramazda "Xurmuz), yemonlik

olamiga Angra Manyu "Axriman) boshchilik qiladi. Go'e uch ming yil davomida bu ikki olam bir-biri bilan to'qnashmagan. Yaxshilik va nur olamini bilib qolgan Axriman urush ochmoqchi bo'ladi. Xurmuz bu kurashning oldini olib, ikkinchi uch ming yillik davrida osmon, suv, yer, o'simlik, hayvonlar va boshqalarni hamda insonni yaratadi. U davrda zulm ham, kasallik va o'lim ham bo'lmagan ekan. Shundan so'ng uchinchi davr - kurash davri boshlanadi. Yer yuzi turli kuchlarning to'qnashuv makoniga aylanadi. Axriman birinchi insonni o'ldirsa ham, lekin kishilik urug'ini yo'q qilib yuborolmaydi. To'rtinchi davrda yaxshilik va nur kuchlari yemonlik va zulmat ustidan g'alaba qozonadi.

Yaxshilik va yemonlik o'rtasidagi kurash Mitra, Anaxita, Qayumars, Yima "Jamshid), Gershasp, Elibek va boshqalar obrazida mujassamlashtirilgan.

M I T R A , A N A X I T A .

Mitra quyesh xudosidir. U kishilarga nur, issiqlik, baxt-sodat baxsh etadi. Shu bilan birga u ajoyib qurollar bilan qurollangan bo'lib, dushmanlarga dahshat soladi, kishilarni ofatdan qutqaradi. "Avesto"da Mitra bitmas-tuganmas kuchga ega bo'lgan paxlavon sifatida gavdalanadi. Mitra o'tda kuymas, suvda cho'kmas, o'q o'tmas qahramon. Mitraning suyakdan mohirlik bilan yasalgan o'q yeyi, yaltiroq temirdan yasalgan yuz tishli, yuz boldoqli gurzisi bo'ladi. Bu kaxramon tasviri Amudare atrofida topilgan yel kabi yugurib yuruvchi qahramonlar tasvirlangan haykal qubbosiga juda o'xshab ketadi.

Anaxita - yer, suv va unum ma'budasi obrazi. "Ibtidoiy kishilar tasavvurida Xudo mavhum tushuncha , abstrakt bir narsa bo'lmasdan, balki biror mehnat quroli bilan qurollangan juda real bir figura edi" inson fantaziyasi , uning faoliyati va ijodchiligining keng quloch yeyishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Qayumars "Jamshid" afsonasi. Mifologiyaga ko'ra Qayumars yer yuzida paydo bo'lgan birinchi odam bo'lib, go'e u Axuramazda tomonidan yaratilgan va ikki vujudan-Xo'kizdan va odamdan tashkil topgan ekan. Insoniyatning dushmani bo'lgan Axriman Qayumarsni o'ldiradi. Qayumars jasadining ho'kiz kismidan 55 xil don, 12 xil o'simlik, sigir va ho'kiz, ulardan esa xil foydali hayvonlar paydo bo'ladi; Odam qismidan er va ayel jinsi hamda metall vujudga kelgan emish.

Qayumars yezma adabiyetda ham qayta-qayta ishlandi. Jumladan, Firdavsiyning "Shohnoma"sida kishilarni zulmatdan, g'orlarda yashashdan qutqarib, uy-joy, shaharlar bino qilgan qahramon sifatida gavdalanadi.

Jamshid ham Qayumars kabi najotkor qahramon sifatida gavdalanadi. "Avesto"da bayen etilishicha, u adolatli hukmron bo'lib, uning davrida sovuq va issiq ham, qarish-o'lish ham bo'lmagan ekan.

Qadim zamonlarda bugungi kunda qozoq, turkman, tatar, boshqird, ozarbayjon, o'zbek, turk xalqlari bir qavm hisoblanganlar. Shuning uchun ham XVII asrga "Turkiy" deb nomlangan atama ilmiy adabiyetlarda ko'p uchraydi. "Avesto", "O'g'uznoma", "Kitobi Dadam Ko'rqu" kabi asarlar qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining yedgorliklaridir. To'g'ri, "Avesto"da forsiy xalqlar hayati ham o'z ifodasini topgan. Ammo bu kitobda qadimgi ajdodlarimiz ijodi ham aks etgandir. XI asrdan boshlab "Qutadg'u bilig", "Xibat-ul haqoyiq", "Devonu lug'atit turk" kabi yezma yedgorliklar ham vujudga keldi.

Mif-ibtidoiy jamoa a'zosi yaratgan dunening, odamning, tabiatning

paydo bo'lishi haqidagi eng qadimiy hikoyalar hisoblanadi. Islom dinidan avval ajdodlarimiz tasavvurida ezgulik va yevuzlik xudolari, shuningdek, quyesh, hosil, urish xudolari mavjud bo'lgan. Natijada miflarda insoning inson sifatida shakllanish jarayeni o'z ifodasini topadi. Sharq ilmiy adabiyetida miflar asotir "arab), sav "turk) atamaları bilan yuritiladi. Ammo jahon folklorshunosligida "Mif" atamasini qo'llash qabul qilinganligi uchun biz qadimgi hikoyalarni ana shu nom bilan ataymiz. Mif atamasi uch tarkibiy qismdan iboratdir.

1. Totem 2. Fetish 3. Anim.

1. Totem-ajdodlarimiz qadim zamonlardan topinib kelgan hayvonlar, qushlar, o'simliklar hisoblanadi. Turkiy halqlarda burgut, ot, tuya, ayiq, bo'ri, yo'lbars, arxar, qaldirg'och, g'oz, behi, chinor, tut kabi jonli va organik predmetler totem xisoblangan. Shuning uchun ham o'zbek doston, ertak, qo'shiq, afsona, rivoyatlarida bu obrazlarni qayta-qayta uchratamiz.

2. Fetish-qadimgi ajdodlarimiz topingan jonsiz narsa predmetlardan iborat. Quyesh, oy, yer, tog', suv, non, tandir, supra, o't "olov), yey, qilich, raqamlar tusi, rang, so'z, kitob kabilar turkiy xalqlarda fetish hisoblangan. Binobarin, xalq doston va ertaklaridagi bu narsa-predmetlarning uchrashi bejiz emas.

3. Anim-inson tabiatidagi g'ayri tabiiy voqea-hodisalarga ishonch bildirish xususiyati bilan bog'liq. Masalan, qadimgi maytlarda safarga chiqqan yo'lovchi oq tuyali karvonga duch kelsa, o'z safarining muvaffaqiyat bilan yakunlanishiga ishongan. Kishilarimiz tushida egarlangan oq ot minib safar qiliburganini ko'rsa, hayet tashvishlaridan ozod bo'lishiga ishongan. Insondagi ana shu xususiyatlar animastik holat deb ataladi.

Mifologiyada totem, fetish, anim tushunchalari ko'pincha bir-birini to'ldirgan holda uyg'un ifodalanadi. Xususan, Xurmuz, Ahrian, Gershasp, Elikbek, Zariadr, Odatida kabi mifik qahramonlar mifologik duneqarash xususiyatlari aks etgan obrazlar hisoblanadi.

Turkiy xalqlarda afsona va rivoyatlar ko'p. Olimlarning ta'kidlashicha real hayetda ro'y berishi mumkin bo'lmagan voqealar haqida hikoyalar, afsonalar deb yuritilgan. Xammisha ham bu mezonga amal qilingan emas. Xayetda ro'y berishi mumkin bo'lgan hayratli voqealar rivoyat nomi bilan yuritilgan. Ma'lum bo'ladiki, afsona va rivoyatlar o'rtasida aniq chegarani belgilash mushkuldir. Xalqimiz orasida bugungi kunda ham fazoviy jismlar, xududlar nomlari, rasm-rusmlar tarixiy voqea-xodisalar bilan bog'lik afsona, rivoyatlar yashab kelmokda. Xatto, ular orasida kulgi yaratuvchilari xam uchraydi. Tariximizda avloddan-avlodga meros bulib kelgan Tumaris, Shirok, Guldarsin, Dalivarzin, Konkus, Kuyganer, Tuz ekkani Qorachiq, Chuli-chuli kabi afsona va rivoyatlar madaniy merosimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng

halqimiz tarixi bilan bog'liq qadriyatlarining qayta tiklanishi uchun bir qator tadbirlar belgilandi. Navro'z bayramining ommaviy nishonlanishi, O'zbekiston televideniya-sida burgut, ot, tuya, ilon, qaldirg'och, g'oz haqida uyushtirilgan ko'rsatuvlar, vaqtlı matbuotda e'lon qilingan maqolalar fikrimizning dalilidir. Mif va afsonalar mohiyatini his qilish ularda ifodalangan voqea va hodisalar asosini belgilash imkonini yaratadi.

ENG QADIMGI OG'ZAKI ADABIYET YeDGORLIKLARI

O'rta Osiye xalqlari Yaqin sharq yezma manbalarida eramizdan avvalgi VIII asrda birinchi bor tilga olinadi. Ularda Mo'g'iliston dashtlaridan Qrimgacha cho'zilib ketgan katta xududda "skifdar" tarqalgan deyiladi.

Qadimgi grek va rim tarixchilari ham Oltoy, Ural dashtlari, Kasbiy dengizi va Qashqar o'rtasidagi butun hududda skiflar yashaganini tasdiqlaydilar va bu hududni "Skifiya" deb nomlaydilar. Grek mualliflari qabila va xalqlarning keng ittifoqini skiflar deb ataganligining guvohi bo'lamiz. Pliniy ma'lumotlariga ko'ra, bu qabila va xalqlar soni 20 tagacha yetib boradi. Ular orasida massagetlar, saklar, daylar, issedonlar, astaklar, rumliklar, xorazmiylar, girkonlar, kasbiylar, arginkalar, arimpaslar, derbinlar, borkoniylar, tapurlar, eglar ajralib turadi .

Geradot o'zining "Tarix" kitobida massagetlarni ko'p sonli va urushqoq qabila hisoblaydi. Ularning Amudare bo'ylab o'ng sohilida, Sirdaregacha bo'lgan hududda yashashini aytib o'tadi. Qadimgi O'rta Osiyening madaniyati haqida grek, xitoy, hind, arman tarixchilarining kitoblarida, Avesto, Behistun, Bundaxishn, O'rxun-enasoy yedgorliklari kabi turli manbalarda, Beruniy, Narshaxiy va boshqa tarixchi olimlarning asarlarida qimmatli manba va ma'lumotlar saqlanib qolgan. Arxeologik qazilmalar O'rta Osiye hududida eramizdan ko'p ming yillar ilgari bo'lganini ko'rsatadi.

O'rta Osiye eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, Sug'diyena, Parfiya, Marg'iyena, Amudarening quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Parkona "Farg'ona) va boshqa joylarni o'z ichiga oladi. Bu yerlarda turmush sharoiti, tili bir-biridan unchalik farqqilavermaydigan qabila va elatlar massagetlar, xorazmiylar, sug'dlar va boshqalar yashar edi. Mana shu qabila va xalqlar hozirgi O'rta Osiye xalqlarining eng qadimgi bobokalonlari bo'lib, uzoq tarixiy rivojlanish natijasida hozirgi O'rta Osiye xalqi yuzaga kelgan.

O'rta Osiyeda ibtidoiy jamoa tuzimi davridayek ovchilik va baliqchilik, keyinchalik chorvachilik bilan dehqonchilik paydo bo'la boshlagan. Xo'jalik hayatining taraqqiy etishi darelarga va ulardan suniy sug'orish usuli bilan foydalanishga bog'liq bo'lib qoldi. Shuning uchun xam Geradot Misrni "Nil tuhfasi" deganidek, tarixchi Istoxriy "Xorazm-butun manfaatini jayxundan tomon mamlakat" degan edi. Qadimgi O'rta Osiyeda turli Kult va dinlar mavjud bo'lgan. Tabiat hodisalariga nisbatan dualistik qarash, ularni yaxshi-emon, do'st va dushman kuchlarga ajratish zaminida Mitra "Quyesh xudosi), Anaxita "er-suv mabudasi) va boshqa kultlar paydo bo'ldi. Bu kultlar eramizdan avvalgi birinchi asrda paydo bo'lgan zardushtiylik dini bilan qo'shilib ketadi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda O'rta Osiye aholisining deyarli barchasi Eron tillari gruppasiga kiruvchi dialekt va shevalarda gaplashganlar. Keyinroq O'rta Osiye hududida turkiy tillar gruppasi ham tarqala boshlaydi. Bu jarayenning boshlanishi O'rta Osiyega Xunlarning ko'chib kelishi bilan bog'liqdir. Xunlar O'rta Osiyega eramizdan oldingi ikkinchi asrda ko'chib kela boshlagan. Ular Oltoy oilasining turkiy gruppasiga kiruvchi tillarda gaplashganlar. Xunlar eramizdan avvalgi II-I asrlarda Yettisuvga, Sirdare cho'llariga ko'chib kelib, asta sekin mahalliy xalq Massagetlar bilan chatishib keta boshlaydilar.

Shu davrdan boshlab O'rta Osiyeda turkiy tillar gruppasi keng tarqala boshlaydi.

O'rta Osiye xalqlari yezuvining tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida Eron O'rta Osiye va boshqa o'lkalarda oromiy yezuvi keng tarqala boshlaydi. Aleksandr Makedonskiy istilosidan keyin O'rta Osiyega grek yezuvi ham kirib keldi. Oromiy yezuvi, grek yezuvi ma'lum yillar davomida rasmiy hujjatlardagina qo'llaniladi. Oromiy yezuvi negizida bir qator yezuvlar avesto, xorazm, so'g'd, kushon, run, uyg'ur va boshqa yezuvlar kelib chiqadi.

Avesto yezuvi eramizdan avvalgi V asrda vujudga kelgan deb taxmin qilinadi. O'rta Osiyeda uzoq asrlar davomida qilingan yezuv xorazm yezuvi Oromiy yezuvining eng qadimgi an'alarini saqlab qolgan yezuvdir. Bu hol bu yezuvning O'rta osiyedagi boshqa yezuvlardan xiyla burun shakllanganiga dolil bo'la oladi. Xorazm ekspeditsiyasi Qo'y qirilgan qal'ada eramizdan avvalgi III asrga oid yedgorliklarni topdi. Keyingi asrlarga "VIII-asrga qadar) mansub bo'lgan turli yedgorliklar tangalar, muhrlar, hujjatlar, san'ot asarlari, uy-ro'zg'or qurollari va boshqalari topildi. So'g'd yezuvining eng qadimgi nomunasi Taliburzada "Samarqand) yaqinida topilgan bo'lib, eramizdan avvalgi birinchi asrning oxirlariga tegishlidir. Fanda "O'rxun-enisey" yeki "turkiy run" deb nomlangan yezuv eramizdan avvalgi birinchi asrlarida "V asrgacha) vujudga keldi. O'rxun-Enisey yezuvi bilan bir qatorda uyg'ur yezuvi yuzaga keldi. Uyg'ur yezuvi uchun So'g'd yezuvi asosiy negiz bo'ldi. "O'rxun-Enisey" yezuvi Shimoliy Yeniseydan tortib, Mo'g'ilistonga qadar tarqalgan xalqlarning, elatlarning yezuvi edi. Uyg'ur yezuvi faqat Sharqiy Turkiston "Xitoy)dagina emas, balki Movarounnahr, Xurosonda ham tadbiiq etildi.

QADIMGI QO'SHIQ VA LIRIK SHERLAR

O'rta Osiyening qadimgi qo'shik va lirik sherlaridan ayrim namunalar turli xil manbalar orqali, ilmiy asarlar "Avesto, Devonu lug'atit turk) orqali yetib kelgan. Eng qadimgi og'zaki adabiyet yedgorliklarini o'rganishda ayniqsa "Devonu lugatit turk" dagi adabiy materiallar katta ahamiyatga ega. "Devonu lugatit turk" XI-asrning buyuk tilshunos olimi M.Qoshg'ariyning lingvistik asari bo'lib, muallif turkiy so'zlarning lug'aviy manosini izohlash uchun xalq og'zaki ~~h~~odi namunalaridan foydalangan.

"Devonu lugatit turk"da qadimgi qo'shiqlar quyidagicha tasnif qilinadi

1. Mehnat kushiklari: ovchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, dehqonchilik qo'shiqlari.
2. Qahramonlik qo'shiqlari.
3. Marosim qo'shiqlari.
4. Mavsum qo'shiqlari.

Mehnat qo'shiqlari mehnat jarayeni, ibtidoiy jamoa an'alarini, qabila a'zolarining birlikdagi mehnatini, ziddiyatlarini aks ettiradi. Ovchilik bilan bog'liq qo'shiqlar kishilarning ovchilik san'atini, ovga bo'lgan qiziqishini tasvirlaydi.

Qahramonlik qo'shiqlari qabilalar o'rtasidagi jang epizodlari va qabila bahodirlarining mardona kurashini tasvirlaydi. Bunday qo'shiqlar rajoz deb yuritilgan.

Marosim qo'shiqlaridan "Devonu lugatit turk"da marsiya janridan parchalar keltirilgan. Bu parchalar jang maydonida bahodirlarcha halok bo'lgan

qahramonlarga bag'ishlanadi. Misol uchun, Alp Erto'ngaga bag'ishlangan qo'shiqlar, ularda bahodirning mardligi, jasorati, fazilatlarini maqtalib motam tutiladi. "Devonu lugatit turk"dagi qo'shiqlarning ko'pi mavsum qo'shiqlari va peyzaj lirikasi janriga kiradi. Qadimgi inson tabiat hodisalarini yaxshi va yomon kuchlarga bo'ladi. Qo'shiklarda qadimgi insonning fasllarga munosabati ifodalanadi. Qishga salbiy yezga ijobiy munosabatda bo'lganlar.

**MAVZU: O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODINING JANRALARI,
XALQ DOSTONLARI. «ALPOMISH» QAXRAMONLIK EPOSI.**

R E J A :

1. Xalq og'zaki poetik ijodining janrlari rang-barangligi.
2. Doston-xalq xayotini keng ko'lamada tasvirlovchi ishqiy qaxramonlik sifatida.
3. Dostonlar tasnifi.
4. «Alpomish» qaxramonlik, do'stlik, chin sevgini ulug'lovchi asar sifatida.
5. Alpomish, Barchin, Qorajon v.b. obrazlar.
6. «Alpomish» dostoni ustidagi bahslar.
7. Dostonning 1000 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlar va ularning ahamiyati.

A D A B I Y O T L A R :

1. Sarimsoqov B. O'zbek fol'klarining janrlari sostavi. «O'zbek fol'klorlari ocherki» 3-tomlik, T., 1988
2. Adabiyot nazariyasi, P-tomlik, T., 1978, 1979
3. Mirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. M., 1947
4. Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat T., 1969
5. Abdulaev X. Xalq dostonlari va ularning variantlari. T., 1984
6. Mirzaev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. T., 1968
7. O'sha: Xalq baxshilarining epik repertuari. T., 1979.
8. Boboev M. «Doston va hayot» T., 1982.
9. O'sha: «Jizn' istoriya epos», T., 1991
10. Umarov S. «Tarix va doston» T., 1985
11. Jamoa. «Alpomish»-qahramonlik eposi» T., 1999

JANRLARI ADABIYOTLAR :

- Sarimsoqov B. O'zbek fol'klarining janrlari sostavi. «O'zbek fol'klorlari ocherki» 3-tomlik, T., 1988
12. Adabiyot nazariyasi, P-tomlik, T., 1978, 1979
 13. Mirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. M., 1947
 14. Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat T., 1969

Ma'lumki, adabiyot va sa'nat asarlari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga kelib, mazkur jamiyat hayotini ifoda etib, aks ettirib, shu jamiyat bilan birga taraqqiy etadi o'z davrini yashab keyingi avlodlar uchun ham ma'naviy boylik sifatida xizmat qiladi. Muayyan ijtimoiy jamiyat yo'q bo'lib ketib, o'rninga yangi bir ijtimoiy tuzum kelishi mumkin. Lekin adabiyot va sa'nat asarlari yo'qolib ketmaydi, balki umuminsoniy ideallarni aks ettirib, muayyan davrga, xalqqa mansub bo'lgani uchun u tarixiy va abadiydir. Bu fikrlarni yozma adabiyotdan birmuncha avvalroq paydo bo'lgan xalq og'zaki ijodiga ham tadbiq etishi mumkin. Fol'klar va uning janrlari uzoq va murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Ming yillar davomida ijodkor xalq fol'klorning xilma-xil janrlarida boy adabiy meros yaratdi.

Xalq og'zaki ijodi tarixiy kategoriya sifatida rivojlanib, boyib keldi. Fol'klorning janr formalari juda qadimiy bo'lsa-da, u xamisha o'zgarishda, rivojlanishdadir. Chunki, har bir adabiy forma, poetik janr muayyan tarixiy sharoitda turli o'zgarishlarga uchrashi, formal poetik jihatdan isloh qilinishi mumkin.

Yozma adabiyotdagi adabiy turlar va janr formalari kabi fol'klordagi janr formalari ham bir-biriga ta'sir, etib bir-birini to'ldirib boradi. Aniqrog'i fol'klorda ham janrlar sintezi uzluksiz davom etadi. Xalq og'zaki ijodining janrlari bir tekisda taraqqiy etmaydi. Balki adabiyot jarayonda davr va jamiyat talabidan kelib chiqib, notekis taraqqiy etishi mumkin. Xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janr formasi hisoblangan maqol hamma davrlar va jamiyatlarda uzluksiz taraqqiy etib keldi. Ammo bu fikrni fol'klorning yirik janri hisoblangan dostonlarga nisbatan taraqqiy etib bo'lmaydi. Chunki, Oktyabr' revolyutsiyasigacha bo'lgan davrda va revolyutsiyaning dastlabki yillarida dostonchilik ancha taraqqiy etgan bo'lsa, hozirgi vaqtda esa yirik dostonlar umuman yaratilmayapti yoki bu janr imkoniyatlari yozma adabiyotning boshqa formalarida uchramoqda. Shunday bo'lsa-da, xalq og'zaki badiiy ijodida ming yillar davomida turli xil poetik formalar, janrlar yaratildiki, fol'klorda ma'lum adabiy traditsiya vujudga keldi. Shuning uchun xalq og'zaki ijodidagi janrlar problemasini ilmiy jihatdan o'rganish,

fol'klor janrlarini klasifikatsiya qilib, ularning janr xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Xalq og'zaki ijodining formal poetik xususiyatlarini hisobga olib ularni quyidagi janrlarga ajartish mumkin:

1. Xalq dostonlari.
2. Xalq ertaklari.
3. Xalq dramasi.
4. Askiya.
5. Afandi latifalari.
6. Xalq qo'shiqlari.
7. Xalq maqollari.
8. Topishmoqlar.

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA MAQOL, MATAL VA TOPISHMOQ JANRI

R Ye J A

1. Maqol va uning janr xususiyati haqida malumot.
2. M.Qoshg'ariy "Devonu lugatit turk" asarida makollar haqida.
3. Maqollarning g'oyaviy tematik rang-barangligi va ko'chma manoda qo'llanishi.
4. Maqol xalq donoligini ifodalovchi janr
5. Maqollarning o'ziga xos poetik tabiati.
6. Maqollarning tarixiy taraqqiyoti.
7. Topishmoq janri haqida malumot, ularning turlari.
8. Topishmoqning boshqa janrlar bilan aloqasi.

Foydalanilgan adabiyetlar

1990y.

2. M. Alaviya. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" Toshkent-1964 y.
3. G. Jalolov. "O'zbek folklorida janrlararo munosabat" Toshkent-1969 y.
4. M. Afzalov. "O'zbek xalq ertaklari haqida" Toshkent-1964 y.

Maqollar o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy janrlaridan biridir. Ularda xalqimizning duneqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati va axloqiy normasi uz ifodasini topadi. Maqol-mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq koidalarining o'zida jamuljam etgan dono gapdir. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr- o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelganlar, sinalgan, turmush tasdig'idan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollarning talim-tarbiyaviy ahamiyati kuchli. U kishilarni ogohlantiradi, maslahat beradi, mehnatni ulug'laydi, illatlarni hajv ostiga olib, fosh etadi.

Ko'ramizki, maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash xalq donoligi, milliy anana, uzoq asrlik hayet tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi fikri, bahosi, mehnat natijalari mujassamlashgan. Shuning uchun maqollar mangulikka daxldordir. Maqollar ko'p jihatdan matallarga o'xshasa ham, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega. "Temirni qizig'ida bos", "Birlashgan o'zar birlashmagan tuzar", "Er yigitga ikki nomus-bir o'lim" kabilar tom manoli maqollar bo'lib, ularning mazmunida tugal fikr, umumiy xulosa bor. "Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi", "Tosh qattiqmi, bosh qattiq", "Ko'rgan bilan eshitgan bir emas" kabilar matallar hisoblanadi. Chunki ularning mazmunidan umumiy xulosa, tugal fikr anglashilmaydi, balki xususiy belgining o'zigina ifodalangan. Maqollar xalq tushunchasi, hayet tajribalari, mulohazalarining umumlashma xulosasigina bo'lib qolmay, haqiqatning obrazli ifodasi, u yeki masala ustidan chiqarilgan hukmdir. Maqol hajmi ixcham, kichik bo'lib, puxta ishlangan, keng manoni ifodalovchi obrazli nutq namunasidir. Maqolda ortiqcha gap so'z bo'lmaydi. Xar bir so'z aniq, o'z o'rnida ishlatilgan va ahamiyatli bo'lib, o'ziga xos ritm, ohang, kompozitsiyaga

ega.

XI asr qomusi hisoblangan M. Qoshg'ariyning "Devonu lugatit turk" asarida keltirilgan maqollarda o'sha zamon ruhi, duneqarashi, kishilarning mehnatga munosabati turli xil shakllari o'z ifodasini topgan. Bu maqollar qadimgi turk urug'lari va qabilalari orasida keng tarqalgan bo'lib, ularning variantlari bizgacha yetib kelgan. Masalan

-Kishi olasi ichtin

Yilki olasi tishtin.

Xozir

-Odam olasi ichida

mol olasi sirtida.

-Oshning tami tuz bilan.

Maqollar tarixiylik xususiyatiga ega. Ular ko'pincha tarixiy voqea va hodisalar tasirida vujudga keladi. Shuning uchun ham xalq maqollarining g'oyaviy mazmunida xalq hayetining turli tomonlari o'z aksini topgan. Masalan XIII asrda Chingizxon zulmiga juda ko'p nakl, matal, afsonalar yaratilgan.

Bo'ji keldi, bo'ji keldi

Chingiz bilan Jo'ji keldi.

Mehnatkash dehqon, kosiblar hayetini aks ettiruvchi maqollar ko'plab uchraydi. Masalan Bo'zchi belboqqa yelchimas

Kulol- mundiga.

Kambag'alning og'zi oshga yetganda

Burni qonaydi.

Xalq donishmandligi-maqollarda turmush hodisalari bilan bog'liq bo'lgan vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, ilm-hunar, vafodorlik kabi ideal axloq namunalari maqullanib, nodonlik, qo'rqqoqlik, egrilik, yemonlik, umidsizlik, yelg'on gapirish, yalqovlik, ochko'zlik kabi yaramas illatlar qoralanadi. Bu esa o'zbek maqollarining g'oyaviy-tematik rang-barangligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq maqollarida Ona-Vatanni sevish hamda uni har qanday ichki va

2047

ALIJON NAWOYI NOMIDAGI
ToshDO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

tashqi dushmandan saqlash motivi asosiy o'rinni egallaydi. Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat, uni qadrlash g'oyasi obrazli tarzda ifoda etiladi.

-Bulbul chamanin,

Odam vatanin sevar.

-Ona yurtning omon bo'lsa

Rangi-ro'ying somon bo'lmas.

Maqollar xush bo'lishga, do'stni dushmandan ajratishga, ota-onani, do'stlarni qadrlashga, kichiklarni izzat qilish, kattalarni hurmat qilishga o'rgatadi

-Xurmat qilsang, hurmat ko'rasan.

-Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga

Yemon bilan yursang qolarsan uyatga.

Maqollar asosan o'z va ko'chma ma'nolarni ifodalaydi. "Ilon chaqqan, ola arqondan qo'rqr", "Bo'ringning qulog'i ovda". Bu xildagi maqol va matallar ma'lum bir voqea, hodisa bilan bogliq holda aytiladi, aytilmoqchi bo'lgan fikr majojiy ma'noda, kinoya tarzida ifoda etiladi.

Maqollarda o'xshatish, istiora, mubolag'a, qofiya ishlatilishi bu ularning shakl yaratuvchisidir. Maqollarda qofiyalanish ham o'ziga xosdir.

Maqollar kompozitsion jihatdan nihoyatda sodda va ixcham. U ko'pincha sodda gapdan iborat bo'ladi "Til-tig'dan o'tkir", "Insofsiz imonsiz" kabilar.

Maqollarda sifatlash, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalari va omonim, antonim so'zlardan foydalanish uning badiiyligini oshiradi.

Xalq orasida topishmoq, jumboq, ba'zan matal, topar, cho'pchak kabi terminlar bilan yuritilib kelingan topishmoq janri o'zbek folklorida qadimdan yashab rivojlanib kelmoqda.

"Topishmoq" so'zi "top" buyruq fe'liga "-ish;-mok" yasovchilari qo'shilishi bilan chigal, murakkab, belgi xususiyati yashirin berilgan biror noma'lum narsani topish mazmunini ifodalaydigan yasama otga aylangan. Tabiat va jamiyat hodisalari kishilar oldiga ko'p murakkab jumboqlar, muammolar qo'ygan. Insonning o'sha masalalarni topishi, sirli bo'lib ko'ringan

narsalarning tub, haqiqiy mohiyatini ochish uchun aql-idrok va o'tkir did talab qilingan.

Ko'p asrlik xalq donishmandligining durdonalari - topishmoqlar inson idroki, kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o'stiruvchi aqlning quvnoq o'yini, ma'naviy dam olish vositasigina bo'lib qolmay, ajdodlarimizning ruhiy olami, tarixiy o'tmishini bilishda kalit vazifasini ham o'taydi. Ular tarixiy madaniyatining bebaho hujjatlaridir. Ajoyib istioralar, yerqin qiyeslamalar, obrazli ifodalar bilan jilolangan o'zbek topishmoqlari qadimiy quyeshli o'zbek elining jozibasi va o'ziga xosligini tasvirlabgina qolmay, folklor asarlari silsilasida ulkan estetik qimmatini bilan xalq ma'naviy dunesi taraqqiyetining xazinasini sifatida bizning kunlarimizda ham jamiyatimiz yaxlit madaniy hayatining topishmoq aniq narsa yoki voqelik tushunchasini ongli ravishda yashirishda, sir tutishga asoslangan kichik poetik asardir.

Shubhasiz, qadimiy ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan xalq topishmoqlarining ildizlari insoniyat jamiyati taraqqiyetining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Qadimiy topishmoklarning asosida insonning duneni bilishga, tabiat sirlarini tushuntirishga bo'lgan intilishlari yetadi. Insonning tinib-tinchimas aqli momaqaldiroq, yashin, yemg'ir, yulduzli osmon kabi ko'plab narsa va voqelikni badiiy obrazlarda tasvirlaydi.

Og'zaki ijodning bu "eqimtoy kichik" janrining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari g'oyat rang-barangdir. Topishmoqlar xalq ijodiga, obrazli so'zga muxabbat uyg'otadi, bolalarga estetik zavq bag'ishlaydi. Topishmoqlar jahon go'zalligini qurishga, xayel va tasavvur qilishga, dune quvonchlaridan bahramand bo'lishga yerdam beradi.

O'zbek xalqi yaratgan topishmoqlar uning ijtimoiy hayati va turmush tarzidan kelib chiqqan. Ularning katta qismi dehqon mehnati dehqonchilik, polizchilik, uy ishlari bilan bog'liq topishmoqlar o'z qiziqish doirasiga o'simliklar va hayvonaot dunesini, uy xo'jaligiga oid ko'plab narsalarni, xalq urf-odatlarini va xislatlarini ham qamrab oladi. Topishmoqlar og'zaki ijodning ommaviy va maxsus janrlaridan biri. Ularning uslubi metafora, ko'chim,

kinoya, qochiriq yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, yashirilgan narsa, hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa, hodisalarning belgilarini qiyeslash, imo-ishora qilishdan iboratdir.

Topishmoq aytish qay bir xalqda bo'lmasin, u aql-ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasidir.

Maqol xalq hayetiy tajribalari xulosasini ifodalovchi xikmatli fikrlar majmuasidir. Maqollar-og'zaki ijodimizning kichik janrlari hisolanadi. Folklorshunoslikda kichik janrlarni paremiya deb atash ham qabul qilingan. Lekin maqollarda maqolning vujudga kelishida bironta ibratli voqeaning ahamiyati kattadir. Ana shunday hayet lavhasiga guvoh bo'lgan dono odamlarning biri ko'rgan-kechirganlariga xulosa yasab, maqolnoma gapni o'ylab topgan. Keyinchalik hayetiy vaziyatning takrorlanishi oqibatida birinchi aytilgan fikr asta-sekin maqolga aylangan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, xalq orasida maqolning yashashi uchun hayetiy asos bo'lishi kerak. Bunday asosga ega bo'lmagan maqolning umri qisqadir. Jumladan, O'zbekistonda "Er haydasang-kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda" maqoli mashhurdir. Ammo bu maqol Xorazm viloyatining juda ko'p hududlarida deyarli tilga olinmaydi. Chunki Xorazm viloyati yer qatlami tuzilishida yer osti suvlari yaqin bo'lganligi tufayli, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan odamlar o'z tomorqalarini kuzda haydamaganlar. Ma'lum bo'ladiki, faqat hayet tajribasida tasdiqlangan vaziyat maqol xalq orasida yashaydi.

Xalq maqollarining o'z va ko'chma ma'nolari bor. Masalan, "Shamol bo'lmasa daraxtni uchi qimirlamas" maqoli ham o'z ham ko'chma ma'noda qo'lanilishi mumkin. Ammo "Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin" maqol ko'pincha ma'noda qo'lanadi. Ilmiy adabiyetlarda maqol va matal tushunchasi o'rtasida noaniqlik yo'q emas. Xatto "O'zbek Qomusi"da ham, bizningcha, "Maqol" maqolasiga matal, "Matal" maqolasiga misol sifatida keltirilgan. Aytish lozimki, olib borilgan ilmiy kuzatishlar maqol va matal o'rtasida bir farq borligini tasdiqlamoqda. Jumladan, maqol alohida qo'llangan tugal fikr bildiradi va uchrab turadigan o'xshash lavhalarni izohlaydi. Matal alohida qo'llanganda

mustaqil ma'no anglatmaydi va notiq fikrning badiyligini oshirish uchun qiladi. Bizningcha, bu o'rinda bir misolni eslash maqsadga muvofiqdir. Xalqimiz orasida "Yaxshi so'z bilan ilon inidan, yemon so'z bilan qilich qinidan chiqar" maqoli bor. Agar shu maqoldagi fikriy komponentlarni ajratgan holda qo'yidagi shaklga keltirsak, matalga ega bo'lamiz "Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi". Bu gapda "ilon inidan chiqadigan" so'z birikmasi alohida qhllangan mustaqil ma'no anglatmaydi. Ma'lum bo'ladiki, maqol va matal, aslini olganda, xalq hayetida tutgan o'rni, maishiy vaziyatlarni ifodalash darajasid bilan bir-biriga yaqin turar ekan. Faqat tarixiy jarayen natijasida ularning biri maqol bo'lib shakllangan, ikkinchisi matal sifatida yashay boshlagan. Bu o'rinda rus xalq og'zaki ijodidagi maqol va janrlarini eslash ma'quldir. Ruslar maqollarni "poslovitso", matallarini "pogovorki" deb ataydilar. Bu janrlarga xalqning bergan ta'rifi ibratlidir "Pogovorki-svetochki, poslovitso'-yagodki". Demak, o'zbek maqol va matallarining farqini ham gul va meva bilan izohlash mumkin bo'ladi. Maqol va matallarning matnlari badiiy jihatdan juda mukammal hisoblanadi. Maqollarda, ayniqsa istiora, o'xshatish, sifatlash, qiyeslash kabi tasir vositalaridan ko'p foydalaniladi. Shuningdek, tazod vositasi faol ishtirok etadi. Natijada, xalq maqollarida shakliy va mazmuniy san'atlarning qo'llanishda mutanosiblik ko'zga tashlanadi. Bir misolga murojat qilaylik "Boy boyg boqar, suv soyga oqar". Avvalo bu maqolda katta hayet tajribasi o'z ifodasini topgan. Bu tajriba qarindosh-urug'chilik mahallaychilik, tanish-bilishchilik, hatto, millatchilik bilan ham bog'liqdir. Maqolda bir shaxsning o'ziga yaqin odam tarafini olishi suvning soyga qarab, ya'ni qiya qarab oqishiga qiyeslanadi. Shaklan esa maqoldagi boy, soy boqar, oqar so'zlari tashqi va ichki qofiyani tashkil etgan. Ayni paytda, maqolda "b" "y" "s" kabi tovushlarning qayta-qayta takrori o'ziga xos tovushdoshlikni hosil qiladi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyet instituti xodimlari tomonidan tayyerlangan ikki jildik xalq maqollari to'plamida bunday misollarni ko'plab uchratish mumkin. Xalq maqollarini o'rganish bu janrga mansub asarlarning jahon

xalqlari ijodidagi eng ko'p musharaklikka ega janr ekanligini tasdiqlamoqda.

TOPISHMAQLAR.

Tapishmoqlar xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janr asosan yesh avlodni hayetni bilishga, borliqdagi narsa-predmetlarning xususiyatlarini yedda saqlab qolishga o'rgantadi. Qadimgi paytlarda topishmoqlar cho'pchak, topmachoq, matal kabi nomlar bilan yuritilgan. Olimlarning ma'lumot berishiga qaraganda, turkman, qozoq, qirg'iz xalqlari kabi o'zbeklarda ham topishmoq aytish an'analari mavjud bo'lgan. Topishmoqlarning mohiyati asosan istiora badiiy san'ati bilan bog'liq bo'lib, ularda topilishi lozim bo'lgan narsa-predmentning asosiy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Bu xususiyatlar topishmoq janrining xalq orasida keng ommalashuviga sabab bo'lgan. Topishmoqlarda bir yeki bir necha narsalarni topish nazarda tutilgan asarlar ham Masalan "Er tagida oltin qoziq" sabzi bo'lsa, "Tog'da talaymonni ko'rdim, Suvda Sulaymonni ko'rdim, Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim, Yumalab yetgan toshni ko'rdim" topishmog'ida bo'ri, balig', holvaytar, toshbaqa nomlarini topish lozimdir. Bu janr ko'pincha sher'riy tarzda ham to'qiladi.

Topishmoqlar topilishi kerak bo'lgan narasalarining paydo bo'lgan davriga ko'ra ikki xil bo'ladi

1. Qadimgi-an'anaviy-topishmoqlar. 2 Yangi topishmoqlar. Agar an'anaviy topishmoqlar ko'pincha mo'ri, tandir, egar, o'choq, qozon, kabi narsalar haqida bo'lsa, yangi topishmoqlarning mavzulari radio, televizor, kitob, atlas kartasi, samolet, parovoz kabilar bilan bog'lanadi. Ba'zan an'anaviy ertaklar matnlarida ham topishmoqli lavhalar uchraydi. Yerdagi eng og'ir narsa nima? Uchta jumboqni yeching.....kabi parchalar ertak qahramonlari yechishi lozim bo'lgan topishmoqlar sifatida beriladi. Xalq og'zaki ijodining bu janri bugungi kunda bolalar bog'chalarida, televideniye va radiodan olib boriladigan suhbatlarda keng foydalanilmoqda.

1.O'zbek xalq maqollari. Ikki jildlik. Toshkent. 1oiu-1oii.

2.K.Imomov va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.Tashkent 1990

1. Z.Xusainova. "O'zbek topishmoqlari", Tashkent, "Fan", 1966

O'zbek xalq og'zaki ijodida latifa, lof va askiya janri

REJA:

1. Latifa-sharq xalqlarining sevimli janri sifatida.
2. Afandi obrazining xalqchilligi.
3. Latifalarning badiiyligi, til xususiyati.
4. Askiya so'z o'yini
5. Improvizatsiya
6. Payrovlar haqida ma'lumot
7. Lof va lofchilik

ADABIYOTLAR:

1. Muhammadiy R. Askiya 1962
2. Razzoqov X. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor. T., 1965

Latifalar xalq og'zaki ijodining hajman kichik, narsada yaratiladigan ommaviy janri hisoblanadi. Latifa atamasi arabcha "lutf" so'zidan olingan bo'lib, muloyimlik, yaxshi muommala, yaxshilik qilmoq, marhamat etmoq, sharaflamoq ma'nosini anglatadi. Ammo latifa janrining mohiyatida o'rtaga tashlangan ma'nosi kuchliroqdir. Latifalar asosan kichik maishiy mavzularga bag'ishlangan bo'ladi. Ular ko'pincha maishiy hayetdagi kamchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Ularda nutqning dialog ko'rinishi yetakchilik qiladi. Sharq xalqlari og'zaki ijodidagi latifalarning o'z qarhramonlari mavjuddir. O'zbeklarda Nasriddin afandi yeki Xo'ja Nasriddin, qozoqlarda Aldarko'sa, tojiklarda Jo'xi, turkmanlarda Mirali, hindlarda Birbol ismlari, mashhur. Ammo sharq xalqlarida yaratilgan latifalar mohiyat jihatidan bir-biriga o'xshaydi. Bir latifaning o'zi o'zbekda Nasriddin, hindda Birbol, qozoqda Aldarko'sa nomi bilan yuritiladi. Bunday vaziyatni vujudga kelishini sharq xalqlarining tarixan bir-biriga yaqin yashaganliklari izohlaydi.O'zbek xalq og'zaki ijodida Nasriddin obrazining vujudga kelishi asosan XIX asrning ikkinchi yarimida matbaaning rivojlanishi bilan

bog'liqdir. Xalq kitoblarini nashr etish ommaviy tus olganda "Nasriddin afandi latifalari" alohida chop etildi. Shundan so'ng bu ism qadimiy latifalardagi qahramonlarning nomini siqib chiqargan. O'zbek "Nasriddin afandi latifalari"da Nasriddin obrazini ikki tomonlama talqin qilish mumkin birinchidan, Nasriddin afandi har qanday og'ir hayetiy vaziyatlardan aqli, tadbirkorligi, tez natijasida yechim topa oladigan dono faylasufdir. U shoh saroyidagi kamchiliklarni tanqid qila oladi, boylarni, amaldorlarni, yemon xulqli odamlarni keskin kulgi ostiga oladi, o'zining haq ekanligini isbotlaydi. Ikkinchidan, Nasriddin afandi-o'ta sodda, hayet tajribasiga ega bo'lmagan, landavur inson. Bu Nasriddin o'zining go'lligi bilan tinglovchilarni lol qoldiradi. Yechimini topish talab qilingan vaziyatlarda eng noo'rin xarakat qiladi, o'zining mazkur harakatini beo'xshov mulohazalar bilan asoslaydi. Agar talabchan podsho oldida mantiqiy fikr yuritish bilan uni mot qilgan Afandi birinchi talqinga mos kelsa, ko'cha bolalarini aldab, ularning ketidan o'zining gapiga o'zi aldanadigan Afandi ikkinchi talqini esga soladi. Xalq latifalari o'zbeklarning o'ta kulgiga moyil el ekanini, bu xalqning tabiatida go'zal milliy kulgi mavjudligini dalillovchi janr namunalari hisoblangan.

Fol'klor janrlari faollik darajasi, omma o'rtasida tarqalish miqyosi bilan bir-birlaridan farqlanib turadilar. Ayrim janrlar esa maxsus tayyorgarlik ko'rgan shaxslar tomonidan ijro etilsa, ayrim janrlar esa keng ommaviy ijro etiladi. Masalan, dostonlar professional baxshilar tomonidan ijro etilsa, ertaklar ham asosan ertakchilar badiyasi orqali ijro qilinadi. Ammo fol'klorning shunday epik janrlari ham borki, ular maxsus tayyorgarlik ko'rgan shaxslar tomonidan emas, balki so'zga chechan va epik materialni bilgan har bir shaxs tomonidan ijro etilaveradi. Afsona, rivoyat va latifa ana shunday janrlar sirasiga mansub. Shuning uchun xalq o'rtasida afsonago'y, rivoyatchi yoki latifago'y kabi atamalar uchramaydi.

Latifa-latif, yoqimli kabi ma'nolarni anglatuvchi arabcha so'zdan olingan bo'lib, ushbu termin kichik hajmdagi yumorga boy va asosan dialog shakldagi bayonga asoslangan maxsus epik janrni ifodalaydi. Shu bois, mazkur janrning etakchi xususiyati kulgi qo'zg'otishga yo'naltirilgan yumorga boyligidan iborat. Janrning ikkinchi xususiyati barcha asarlarning yagona obrazga asoslanganligida ko'zga tashlanadi. Bu obraz esa doim barhayot, hamisha hozirjavob Nasriddin afandidan iborat.

Professor H.Zarifning ko'rsatishicha, Nasriddin afandi obrazi XIX asrning o'rtalarida turk va ozarbayjon latifalarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi bilan o'zbeklar o'rtasida keng tarqalgan¹. Bunga qadar o'zbeklar o'rtasida aytilib yurilgan latifalar turlicha nomdagi qahramonlar bilan yuritilgan. Masalan, o'zbeklar o'rtasida Aldar ko'sa, kal, Mashrab kabi nomlar bilan aytilgan latifalar keyinchalik Nasriddin afandi nomli yagona komik tip bilan yuritila boshladi.

Nasriddin afandi shaxsiyati haqida ham xar xil qarashlar mavjud. Ozarbayjon latifashunosi T.A.Farzaliev o'zbek olimasi F.Yo'ldoshevalar Nasriddin

¹ Ходжи Зариф. Ўзбек совет фольклористикаси тарихидан// Ўзбек совет фольклори масалалари. -Т.: "Фан". 1970. -Б.223-224.

afandi tarixiy shaxs emas, u xalq donoligining umumlashma obrazi deb qarasarlar², tojik olimi S.Madiev va prof. H.Razzoqovlar unga Turkiyaning Oqshaharida yashab o'tgan tarixiy shaxs sifatida qarashadi³. Boshqa ba'zi olimlar esa Nasriddin afandining hayotiy prototiplarini ham aniqlashga harakat qiladilar. Ular XIII asrda yashagan olim va adib Nasriddin Tusiyning afandining prototipi deb hisoblaydilar⁴.

Bizningcha, Nasriddin tipini u yoki bu tarixiy shaxs bilan bog'liq holda izohlash o'zini oqlay olmaydi. Afandi, F.Yo'ldosheva to'g'ri ta'kidlaganidek, o'z aqli, donoligi, o'tkir zehni, hozirjavobligi, uddaburonligi bilan butun bir xalqning eng yaxshi xislatlarini o'zida mujassamlashtirgan badiiy tipdir⁵.

Latifalarning yagona qahramon faoliyati asosiga qurilganligi, tasodifiy uchrashuvdan boshlanib, kutilmagan javob bilan yakunlanuvchi epizodik syujetga egaligi, ortiqcha tasviriylik hamda tavsifiylikning uchramasligi, kuchli yumoristik hamda hajviy kulgi qo'zg'atishi janrning xalq orasida keng ommalashishiga sabab bo'ldi.

Afandi xalq hayotining barcha jabhalariga kirib borgan. Bir qarasangiz, u hukmdorlar davrasida, yana bir qarasangiz oddiy mehnatkash xalq vakillari orasida yuradi. Bir latifada u dono va zukko inson sifatida qiyin vaziyatlardan oson chiqib ketsa, boshqa bir latifada u o'zi to'qigan yolg'onga ishonib aldanib qoladi. Afandi obraziga xos bunday keng qamrov uzoq davrlar mahsuli bo'lib, xalq o'zi sevgan qahramonni doim o'zi bilan birga olib yuradi.

Afandi-dono, kamtar, hozirjavob tip. Agar bu obrazning faollik darajasiga nazar tashlansa, uning ikki xil miqyosda tipiklashtirilganligining guvohi bo'lamiz. Birinchi miqyos ijtimoiy-siyosiy tipiklashtirishdan iborat bo'lib, bunda Afandi hukmdorlar, diniy va huquqiy arboblardan orasida o'z donoligi bilan barchani lol qoldirib yuradi. Bir misol.

Bir kuni afandi podsho va uning vaziri bilan ovga chiqibdi. Nogahon ular bir kiyikka duch kelibdilar. Kiyik ham qochmay bir joyda turaveribdi. Shunda podsho: -+ani, afandi, bir merganligingizni ko'rsatingchi, -debdi.

Afandi xo'p deb kamondan bir o'q uzibdi. O'q kiyikning o'ng tomonidan o'tib ketibdi. Darhol ikkinchi o'qni uzibdi. O'q kiyikning chap tomonidan o'tib ketibdi. Nihoyat, uchinchi o'qni otibdi. O'q kiyikka tegib, uni qulatibdi.

Podsho: -Afandi, bir kiyikka nega uch marta o'q otdingiz?-deb so'rabdi.

Shunda Afandi: -Birinchisi sizning, ikkinchisi vaziri a'zamning, uchinchisi esa kaminaning otishi edi, -deb javob qaytaribdi.

Ko'rinib turibdiki, uch marta kamon otib, uchinchisida arang mo'ljalga urgan Afandi o'zini mergan emasligini hozirjavoblik bilan yopib, qiyin vaziyatdan oson chiqib ketadi. Mana shu tariqa u hukmdorlar oldida hech qachon sharmanda bo'lmaydi, balki o'zining donoligi va hozirjavobligi bilan doim g'olib chiqadi.

² Фарзалиев Т. Азербайджанские народнѳе латифа. АҚД. Боку. 1965. -с.11; Йўлдошева Ф. Ўзбек латифаларида Насриддин Афанди образи. -Т.: "Фан". 1979. -Б.10-31.

³ Мадиев С. Проблема жанра латифа. АҚД.-Самарканд. 1969. -с.221; Раззоков Х. Латифалар ва уларнинг қахрамони Насриддин Афанди// "Фан ва турмуш". 1971. -2-сон.

⁴ Молла Насреддин. Составитель М. Тахмасиб.-Боку. 1967. -с.13.

⁵ Йўлдошева Ф. Юкорида кўрсатилган китоб, 19-бет.

Ikkinchi miqyos ijtimoiy-maishiy tipiklashtirishdan iborat bo`lib, unda Afandi oila a`zolari, do`stlari va oddiy xalq vakillari doirasida tasvirlanadi. Bunday tipiklashtirishda u ba`zan ularga yolg`on to`qib, o`zi ham o`sha yolg`onlarga ishonib aldanib qoladi. +uyidagi latifada ana shu holatni ko`ramiz.

Bir kuni afandi bir ariqdan sakrab o`taman deb, shalop etib suvning o`rtasiga tushibdi. "Odamlar qarab turgan bo`lsa, rosa uyatga qoldim" deb o`ylab "Eh, Mulla Nasriddin, afsus yoshliging o`tib ketdi-da" deb atrofiga qarasa, hech kim yo`q emish. Shunda u: -Yoshligingda ham go`r emasding, -deb ketaveribdi.

Bevosita keyingi gap bilan u o`zining yoshligida ham chaqqon emasligini ochib tashlagan. Bu bilan u o`zining soddaligini namoyish etgan. Soddalik va samimiylik esa uning shaxsiyatiga oid nuqsonni ochishga imkon bergan.

Latifaning keng tarqalishi, zavqli kulgi qo`zg`atishi va xotirada mustahkam saqlanib qolishi janrning sodda kompozitsiyaga egaligi, badiiy shartlilikning kuchli amal qilishi, voqelikning zukko javob bilan hal bo`lishiga asoslangan. Shu bois latifa janri yagona tip qiyofasida mujassamlangan xalq donoligining namoyon bo`lishi bilan bog`liqdir. Boshqacha aytganda, latifa darajasida aniq hayotiy modelga solingan epik janr o`zbek fol`klorida boshqa uchramaydi. Latifa modelining birinchi sharti asarning universal, ammo tasodifiy makon va zamonga ega bo`lishidadir. Ikkinchi sharti Afandi va u bilan muloqotga kirishuvchi shaxsning favqulodda uchrashishidadir. Uchinchi sharti muloqotga kirishuvchi shaxsning birinchi bo`lib so`z boshlashi yoki savol bilan murojaat etishidadir. Bunday savollar esa shu darajada ahmoqona bo`lib, ularga istagancha javob qaytarishi mumkin. Lekin javobning haqqoniyligi yoki yolg`onligini hech kim isbotlay olmaydi. Masalan:

Bir kuni bir kishi Afandidan so`rabdi:

-Afandim, qani ayting-chi, osmonda nechta yulduz bor?

Afandi o`ylab o`tirmay:-Ikki yuz o`ttiz to`qqiz ming uch yuz sakson to`rtta,- deb javob qaytaribdi.

Shunda haligi kishi: -Yo`g`-e, nahotki shuncha yulduz bo`lsa, -deb ishonchsizlik bildiribdi. Afandi esa xotirjamlik bilan:

-Ishonmasangiz, o`zingiz sanab ko`ring, -debdi.

Avvalo shuni aytish kerakki, osmondagi yulduzlar sonini so`rashning o`zi bema`nilik. Chunki bu narsani hech kim bilmaydi va bilolmaydi ham. Shuning uchun Afandi bunday ahmoqona savolga bemalol va dadil javob qaytaradi. U tavakkal qilib, og`ziga kelgan raqamini aytadi. Chunki aytilgan raqamning to`g`ri yoki noto`g`riligini isbotlab bo`lmaydi. Ko`pgina latifalar ayni mana shunday mantiqsiz savol va javoblar asosiga qurilgan.

Latifa janrining barcha makonu zamonlarda yashovchanligini ta`minlovchi muhim xususiyatlaridan biri ularning universal xarakterga ega bo`lgan tipga egaligidadir. Shu nuqtai nazardan qaralsa, Afandi barcha iqtisodiy, siyosiy tuzumlarda ham o`zining donoligi, hozirjavobligi bilan bir xilda ishtirok etuvchi obrazdir. Uning uchun shohning ham, gadoning ham farqi yo`q. Chunki u barcha tabaqa vakillariga bir so`z bilan, adolat, halollik ham to`g`riso`zlik bilan qaraydi. Afandi tipining xuddi shu xususiyati janrning doim yashovchanligini ta`minlaydi.

Latifalarning yashovchanligini ta'minlovchi muhim xususiyatlardan yana biri ularning ixcham shaklga egaligi-yu, bir-biriga zid xarakterdagi savol-javoblarga asoslanganligidadir. Chunki afandini doim qo'llab-quvvatlovchi xalq dahosi uning har bir javobini mantiqiy asosdagi hozirjavoblik bilan ta'minlaydi. +uyidagi latifada buni yaqqol ko'rish mumkin.

Bir kuni Afandi madrasada minbarga chiqib, mullalardan so'rabdi: - Bilasizlarmi, men hozir sizlarga nima demoqchiman?

-Yo'q, Afandi, bilmaymiz, -deyishibdi mullalar.

-Bilmagan odamlarga gap aytishning nima hojati bor? -debdi Afandi va minbardan tushib ketibdi.

Bir necha kundan keyin Afandi yana minbarga chiqib, yana o'sha savolni beribdi. Bu safar mullar "bilamiz" deb javob qaytarishibdi.

-O'zlaring bilgan gapni aytib nima qilaman, deb Afandi minbardan yana tushib ketibdi.

Afandi uchinchi marta minbarga chiqib, o'sha savolini yana takrorlabdi. Bu safar mullalar maslahatlashib:

-Yarmimiz bilamiz, yarmimiz bilmaymiz, -deb javob berishibdi.

-Unday bo'lsa, -debdi Afandi, -bilmaganlaringiz bilganlaringizdan so'rab bilib olinglar, -deb minbardan tushib ketibdi.

Ushbu latifa so'z o'yiniga asoslangan yumoristik asardir. Unda xalqimizning muomala madaniyatida ko'p ishlatiladigan "bilasizmi" degan "kirish" so'zi muhim rol o'ynaydi. Bu so'zga har bir shaxs yo bilaman yoki bilmayman deb javob qaytarishi tabiiy. Ma'lum bo'ladiki, berilgan savolning teskari javobini aytish uchun mantiqiy zamin tayyor. Latifada xuddi shu usulning kulgu qo'zg'atishiga sabab Afandining o'z o'rnida hozirjavoblik bilan munosabat bildirishidadir. Ayni mana shu xususiyati bilan latifa hamisha katta-yu-kichikning sevimli janri bo'lib kelmoqda.

Latifaning mavzu qamrovi nihoyatda boy. Turmushda uchraydigan har bir voqea, hodisa, shaxs yoki narsa latifaning tasvir ob'ekti bo'lishi mumkin. Chunki latifa qahramoni Nasriddin Afandi nozik did egasi va o'ta topqir shaxs. U har qanday og'ir vaziyatdan kutilmagan echim bilan osonlikcha chiqib ketadi. +uyidagi latifa buning yorqin misoli bo'la oladi.

Bir kuni Afandi birovning uzum bog'iga kirib, uzum uzayotgan ekan, bog'ning egasi uni tutib olibdi. Bog' egasi unga tanbeh berayotgan ekan, Afandi uning so'zini bo'lib do'q uribdi:

-Nega bo'lmasa sen xotiningga kalish olib bermading?!

Bog' egasi Afandining bu do'qidan dovdirab qolibdi. Shu paytdan foydalanib Afandi sekin chiqib ketibdi.

Vaziyat og'ir, Afandi noqulay ahvolga tushib qolgan, ammo u o'zini yo'qotib qo'ymaydi va shu paytdayoq bog' egasiga do'q bilan murojaat qiladi. Tabiiyki, bunday do'q har qanday kishini esankiratib qo'yadi. Mana shu tufayli Afandi og'ir, hijolatli holatdan qutilib ketadi.

Latifa ommaviy aytiluvchi epik janr dedik, Bu-to'g'ri. Chunki latifani biluvchi har bir kishi uni aytishi mumkin. Lekin xalqimiz orasida shunday latifa aytuvchilar borki, ularning latifago'yiligi o'ziga xos bir san'at sifatida baholanishga

loyiq. Latifa aytish paytida ular obrazga kiradilar, ularning har bir soʻzi, xatti-harakati, mimikasi ovozlarning tovlanishi latifada tasvirlangan voqeani, Afandi va uning muloqotdoshi obrazlarini tinglovchilar koʻzi oldida aniq jonlantiradi.

Nasriddin Afandi obrazida olijanoblik, donolik va soʻzamolik, uddaburonlik va goʻllik, soddalik va laqmalik kabi xislatlar sintezlashgan. Latifada tasvirlangan har bir voqea-vaziyatda uning oʻziga xos alohida xislati namoyon boʻladi. Lekin barcha holat va vaziyatlarda u mehnatkash, halol insonlarning gʻamxoʻr vakili, ularning manfaatlarini himoya qiluvchi tip sifatida ishtirok etadi.

Nasriddin afandidek tipi bilan, ixcham va maroqli shakli bilan, eng muhimi turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzum hamda davrlarga xos voqelikni aks ettirishga qulayligi bilan latifa hamisha hozirjavob janr boʻlib qoladi.

ASKIYA.

Askiya ozbek xalq ogʻzaki ijodidagi milliy oʻziga xos janrdir. Janrning atamasi arab tilidan olingan "zakiy" soʻzi bilan bogʻliq. Koʻpchilikdagi "azkiye" keyinchalik "askiya" shaklini qabul qilgan. Bu janr paydo boʻlishi va shakllanishida hunarmandchilikning ahamiyati katta. Asosan toʻqimachi-kosiblar oʻrtasida "atlas, boʻz va boshqa matolar toʻqish nazarda tutiladi) askiyaga muhabbat tarixan koʻzga tashlanadi. Doimiy ravishda bir xil zerikarli harakat qilish holatini yengillatish uchun bu janrga murojaat qilingan. Askiya Toshkent, Fargʻona, Andijon, Namangan viloyatlarida keng tarqalgan janrdir. Keyinchalik, bu janr xalqning maishiy hayati tarkibidan oʻrin olib, gap gashtalarda xos ziyefatlar aytib kelingan. Bu janrning mohiyati soʻz oʻyini bilan bogʻliqdir. Oʻzbek tilidagi koʻp maʼnoli soʻzlardan foydalanish oʻrni kelgan paytlarda soʻzlarni buzib talaffuz usulidan foydalanish, xalq orasida keng tarqalgan odamlarga laqab qoʻyish odatidan foydalanish orqali kulgili vaziyatlar hosil qilingan. Askiyada mumtoz adabiyetdagi ixxom sanʼatidan keng foydalaniladi. Bir soʻzning ochiq "zohir) va yashirish "botin) maʼnolari koʻpincha askiyada mahorat darajasini belgilaydi. Masalan, bir askiya "-qilishingiz bitta osh-u, qovogʻam solasiz-a",-deyilganda zohiriy jixatdan oshqovoq, botiniy jihatdan qovoq uyish nazarda tutiladi. Askiyadagi kulgi koʻpincha ana shunday hosil boʻladi. Askiya janri bilan shugʻullanuvchi mutaxassislar tomonidan bu janrning pornografiya "uyat soʻzlar) bilan bogʻliqligi alohida taʼkidlanadi. Shuning uchun oʻtmishda erkaklar askiya aytaytganda ayellarning tinglovchilar qatorida boʻlishi uyat hisoblangan. Askiya janriga payrov, oʻxshatdim, gulmisiz-jambulmisiz tushunchalari bevosita bogʻliqdir. Chunki bu tushunchalar askiya aytish davomida qatnashchilar musobaqalashadigan mavzuni belgilagan. Jumladan, "Payrov" soʻzi bevosita mavzu maʼnosini anglatadi. Askiya aytuvchilar fikriy musobaqada ishtirok etar ekanlar, bir safar atlas, ikkinchi safar mahallalar, uchinchi safar qovunchilik payrovlarida bahslashganlar. demak, askiyachilarning soʻz musobaqalari shu mavzularda davom etgan. Oʻzbek askiya sanʼati rivojida Dehqonboy Shernazarov, Erkaqori Karimov, Yusufjon Shakarjonov Tursunuva Aminov "Ijroqoʻmbuva), Abdulahad Qozoqov, Rasulqori Mamadalev, Moʻydin Darveshev, Abulqosim Toshmuxeamedov kabilarning xizmati katta. Yezma adabiyetda askiya janridan folklorizmning koʻrinishi sifatida foydalanish A.Qodriy, S.Ahmad kabi yezuvchilarning ijodiga xos boʻlib, ularning mahorat darajasini belgilaydigan mezonlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hodi Zarif. O'zbek sovet fol'kloristikasi tarixidan// O'zbek sovet fol'klori masalalari. -T.: "Fan". 1970. -B.223-224.
2. Farzaliev T. Azerbaydjanskije narodno`e latifa. AKD. Boku. 1965. -s.11;
Yo'ldosheva F. O'zbek latifalarida Nasriddin Afandi obrazi. -T.: "Fan". 1979. -B.10-31.
3. Madiev S. Problema janra latifa. AKD.-Samarkand. 1969. -s.221; Razzoqov H. Latifalar va ularning qahramoni Nasriddin afandi// "Fan va turmush". 1971. -2-son.
4. Molla Nasreddin. Sostavitel` M. Tahmasib.-Boku. 1967. -s.13.
5. Askiya. Toshkent. 1960.
6. Sh.Yusupov. San'at va hayrat. Toshkent. "Ma'naviyat" 1997
7. F.Yo'ldoshev. "O'zbek materiallarida Nasriddin afandi obrazi".Toshkent, 1969.
- 8.K.Imomov va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent "O'qituvchi", 1990

XALQ QO'SHIQLARI XALQ QO'SHIQLARI VA ULARNING TASNIFI R Ye J A

1. Qo'shiqlarning qadimiyligi va janr xususiyatlari.
2. Mehnat qo'shiqlari va ularning turlari.
3. Mavsum- marosim va urf- odat qo'shiqlari. Ularning turlari.
4. Lirik qo'shiqlar.
5. Termalar.

Foydalanilgan adabiyetilar

1. X.Razzoqov, T.Mirzayev. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" Toshkent-1990y.
2. M.Alaviya. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" Toshkent, 1964
3. G.Jalolov. "O'zbek folklorida janrlararo munosabat" Toshkent1969
4. M.Afzalov. "O'zbek xalq ertaklari haqida"Toshkent-1964 y.

Mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan, tugal fikrni badiiy ifodalovchi, el orasida keng tarqalgan va kuylangan xalq sherlari namunalariga qo'shiq deyiladi.

Qo'shiq termini keng ma'noda bo'lib, xalq she'riyati, lirik qo'shiqlar, xalq lirikasi, ashulalar degan umumiy nomlar bilan atalib kelinadi. Shu bilan birga uning konkret namunalarining o'z nomlari bor. Masalan, "Er-er", o'lan, lapar, terma, alla, kelin salom va boshqalar. Qo'shiklarni ijro etuvchini - qo'shiqchi, guyanda, ashulachi, laparchi, o'lanchi deb nomlanadi. Qo'shiqlarda ham Kollektivlik, og'zakilik, an'anaviylik, variantlilik kabi xususiyatlarni ko'ramiz. Ular asosan, barmoq vaznida bo'lib, ba'zan aruzda yaratilgan bo'ladi. Xalq qo'shiqlari uchun musiqiylik, ravonlik, kuylashga moslik xosdir.

Qo'shiqlarda ayrim shaxsning his-hayajoni, tuyg'ulari, fikr-mulohazalari ifodalansa ham, ularda mehnatkash xalqning ichki-ruhiy kechinmalari,

tirikchiligi, yashash uchun kurashi, ijtimoiy munosabatlari va tushunchalari, duneqarashi aks ettiriladi. Qo'shiqlar turli joylarda turlicha, ko'pchilik hollarda sozsiz, ba'zan dutor, do'mbira, doira va boshqa sozlarda xilma-xil ohanglarda aytiladi. Qo'shiqlarning ijtimoiy mohiyati haqida tarixchi Laforg shunday deydi: "Xalq qo'shiqlari xalq ko'nglidagi qayg'u-hasrat va shodliklarning yo'ldoshi, uning bilim qomusi, uning falsafa kitobidir; qo'shiq bir xazinadirki, xalkning ko'ngli o'z iymonini, o'zining tarixini, o'z millati tarixini bu xazinaga topshirib qo'yadi" Shunday kilib inson hayetini qo'shiqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Qo'shiq termini birinchi marta XI asrda yezilgan, ilmiy adabiyetlarning bizgacha yetib kelgan eng qadimiysi hisoblanadigan M. Qoshg'ariyning "Devon-u-qasida deb ko'rsatilgan. "qoshug'" shaklida berilgan bo'lib, bu so'zning izohi she'r, yezilgan M. Zamaxshariyning "Qutadg'u bilig" asarida, XII asrda ma'nolarda uchramiz.

O'zbek xalq qo'shiqlari shu darajada ko'p va xilma-xilki, uning barcha namunalari hali to'la ravishda o'rganilishi kerak.

Mehnat qo'shiqlari

Mehnat qo'shiqlari, xalq she'riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kishilarning mehnat jarayeni bilan bevosita bog'liqdir. Dehqonlar hunarmandlar ishlab turib, qo'shiq aytganlar. Qo'shiq kishilar mehnatini yengillatgan, ayrim so'zlari, undov, nidolari ko'pchilikning baravar harakat qilishini uyushtirgan. Shu sababdan qo'shiqdagi so'zlar, vazn, qofiya ixcham, takrorlanib, xayqiriq, chaqiriq yeki shikoyat, mamnunlikni bildiruvchi nidolar alohida-alohida ohangda aytilib turilgan.

Mehnat qo'shiqlari mazmunan dehqonchilik, bog' va bog'chachilik, chorvachilik, ovchilik, hunarmandchilik va boshqa kasblarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Mehnat turlari xilma-xil bo'lganidek, mehnat qo'shiqlari ham turli tumandir. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga qo'shchi, o'rim, xirmon yanchish, yerg'ichoq qo'shiqlari kiradi.

Qo'shchi qo'shig'i. Qahraton qishdan toliqib chiqqan dehqon bahor kelishi bilan yer haydashga kirishadi. Ma'lumki, uzoq o'tmishdayer haydash ot-ulov, ho'kiz kabi hayvonlar yerdamida amalga oshirilgan. Qo'sh bilan yer haydash eng og'ir jismoniy mehnat bo'lib, bunday paytlarda dehqonlar qo'shiqlar to'qib, ulami kuylab o'zlarini ovutganlar. Dehqon ilk bahordagi nochor ahvolini ho'kiz tilidan shunday ta'riflaydi

Shoxlarim bor gaz-gaz quloch,
Ustida o'ynar qaldirg'och.

Xayday desam, qornim och.

Men qo'shga qanday yarayin O'

Xo'kiz tilidan bayen qilinayetgan bu shikoyatlar hosil yetishtirilib, o'zi yarim och, yarim to'q hayet kechirayetgan dehqon hayetining yanchli manzarasini tasvirlashga xizmat qiladi. Qo'shchi qo'shiqlari bevosita qo'sh haydash paytida ijro etilganliklari uchun qo'sh qo'shiqlari deyiladi.

O'rim qo'shiqlari

Ma'lumki, ilgari yetishtirilgan qo'l mehnati bilan o'roqlar yerdamida yig'ib olingan. O'rim payti qishloq ahli hashar yo'li bilan bir-birlariga ko'maklashganlar. Mana shunday paytlarda o'roqchilar o'zlarini ovutish uchun qo'shiqlar ijro etganlar, ular o'rim qo'shiqlari deyiladi. O'rim qo'shiqlari yakka yeki ko'pchilik tomonidan ijro etilgan. Muhimi shundaki, o'rim qo'shiqlarida mehnatga ishtiyeq, ko'tarinki kayfiyat ruhi yetakchilik qiladi.

O'rog'im olmos,
O'rimdan qolmas.
Sira ham tolmas,
O'rmasam bo'lmas.

Ayrim o'rim qo'shiqlarida mehnat quollariga, dehqonning o'z qo'liga murojaat qilishi, o'roqning o'tkirligidan, qo'lining charchoq bilmasligidan mamnunlik holatlari kuylanadi. Bunday qo'shiqlar tinim bilmay mehnat qilayotgan o'roqchilarning kuchiga-kuch, g'ayratiga-g'ayrat qo'shadi.

Xo'p-mayda. Xirmon yanchish paytida dehqonlar tomonidan aytiladigan qo'shiqlar xo'p-mayda yeki maydagul deb yuritiladi. Xo'p-mayda baland ovoz bilan cho'zib aytiladi. Ularda dehqonning hosilini yig'ishtirish, ro'zg'or-tirikchilikni ta'minlashga intilish, ho'kizning dehqon hayetida katta o'rin tutishi va unga bo'lgan muhabbatini tasvirlash bilan ko'rsatiladi. "Ko'zlaring yengan chiroq", "ko'zlaring bor oynaday", "shoxlaring bor chambarak" kabi jonlantirilgan tasvirlarning dehqon tilida aytilishida ajib hikmat bor. Ish hayvoni uning madadkori, suyangan tog'i tirikchiligi, ro'zg'orining butligi, ochligi va to'qligi - barchasi shunga bog'liq.

Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar ham qadim-qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar. Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari-mehnat turiga, ijro etilish tarzi va bajargan vazifalariga ko'ra rang-barang bo'lib, ulardan eng asosiylari-sog'im qo'shiqlari, turey-turey qo'shiqlari va churiyalardir. Bunday qo'shiqlarning asosiy vazifasi mayin va ravon ohangda cho'zib aytiladigan qo'shiq ritmi orqali sog'ilayotgan sigirni tinchlantirish, ko'proq sog'ib olishdan iborat.

Xunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari

O'zbek xalq qo'shiqlari orasida hunarmandchilik qo'shiqlari salmoqli o'rin egallaydi. Bunday qo'shiqlarda hunarmand yeki kosibning uzoq tarixiy sharoitlardagi moddiy va ma'naviy hayati, ichki ruhiy kayfiyati ibtidoiy ish qurollari tufayli tug'ilgan mehnat mashaqqati bilan qo'shib tasvirlanadi. Xunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari orasida urchuq, charx yigirish, o'rmak o'rish, kashta tikish, to'n tikish, gilam va bo'z to'qish bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari katta o'rin egallaydi. Ularda hunarmandning og'ir hayati, mashaqqatli mehnati va ruhiy olami aks etadi. Ip yigirish, kashta va to'n tikish, gilam to'qish kabi mehnat turlari asosan ayellar mehnati hisoblanadi. Shuning uchun ham Xotin-qizlar tomonidan yaratilib, bevosita ular tomonidan ijro etilgan.

Charx qo'shiqlari.
Charxginam guv-guv etadi,
Dukkinam to'lmasmikan.
Oyu yilda bir bozor,
Nimcha ip chiqmasmikan O'
Charx yigirib-charx yigirib,
Shu qo'lginam toladur,
Agar shuni yigirmasam,
Bolalar och qoladur.

Charx ip yigirishning ibtidoiy qurolidir. Unumsiz bu mehnat turi kishidan ham jismoniy, ham ma'naviy kuch, sabr-chidam talab etadi. Shuning uchun ham charx yigirish paytida aytiladigan qo'shiqlarda o'zbek ayelining og'ir hayeti orzu havasi dil dardlari butun murakkabligi bilan aks etgan. Boshqa mehnat qo'shiqlaridek, charx qo'shiqlari ham 4 misradan iborat bo'ladi.

Bo'zchi aytgan qo'shiqda jafoli, unumsiz mehnat bo'zchilik hunarining g'oyat og'irligi, buning ustiga to'qilgan bo'zi sotilmay muhtojlik motivlari ravshan ko'rinib turadi. Xalqda "Bo'zchi belboqqa yelchimas", degan maqol ham bekorga aytilmagan. Mehnat jarayenini aks ettiradigan ananaviy qo'shiqlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bajariladigan mehnat ritmi qo'shiq ohangi bilan ichki bog'liqlikka ega, mehnat ritmi qo'shiq ohangini belgilaydi.

MEHNAT QO'SHIQLARINING JANR XUSUSIYATLARI

Mehnat qo'shiqlari xalq sheriyatining eng qadimiy shakllaridan bo'lib, bu sheriyat ibtidoiy insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelgan. Albatta, qadimiy mehnat qo'shiqlari vazn, qofiya va boshqa badiiy xususiyatlari jihatidan mukammal emas. Ulardagi so'zlar ham ongli tarzda o'ylab qo'llanilmagan bo'lib, ular mehnat jarayenidagi harakat ritmiga mos keluvchi xitob va nidolardir.

Mehnat qo'shiqlari rang-barang mustaqil janrlardan tashkil topgan bo'lsalar ham, biroq ularni bir turkum doirasida ushlab turuvchi xususiyatlar ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat;

1. Mehnat turlari ularda ijro etiladigan qo'shiqlar bevosita ana shu mehnat turi jarayenida ijro etiladi. ularning ijrochilari ham ijodkorlari ham mehnat jarayenini tashkil etuvchi kishilar hisoblanadi.

2. Mehnat qo'shiqlari matnida muayyan mehnat turi, unda ishlatiladigan asbob yoki boshqa vositalar ularga murojaat motivlari ko'rinadi.

3. Mehnat qo'shiqlari oddiy tilda, murakkab o'xshatish va ifodalarsiz, yengil ohang, to'liq qofiyalar vositasida yaratiladi. Ularda ramzlar, mano ko'chimlari uchramaydi.

MAVSUM-MAROSIM VA URF-ODAT QO'SHIQLARI

Insonning yashash va hayet kechirish tarzi, yilning 4 fasli, mehnat oylari, bayramlar, urf odatlar, marosimlar, mavsumiy ish harakatlar bilan bog'liq ravishda

juda ko'p qo'shiqlar yaratilgan. Marosimlar, odatlar turli tuman bo'lganidek, bularga bag'ishlangan qo'shiqlar ham xilma-xildir. Boychechakning ochilishi, yangi yil navro'zning kirib kelishi, xirmon quvonchi kabi voqealarga qo'shiq bag'ishlangan. Qo'shiqlar xalqning oila bayramlarini, marosimlarini bezab kelgan.

ALLA - bolalarni uxlatish vaqtida onalar tomonidan kuylangan qo'shiqlar alla deb ataladi. O'tmish alla qo'shiqlarida zahmatkash, mushtipar, ezilgan mazlum sharq onasi obrazi gavdalanadi. Uning betinim xatti-harakati, beminnat mehnati tufayli go'dak ulg'ayadi, voyaga yetadi. Onaning mehri dare deydilar, allalarda onalarga xos bag'ri kenglik quyeshday mehribonlik, dil qaridan sizib chiqqan yeqimli kuylarda taraladi. Ularda ezgu orzu-havaslar, yaxshi niyatlar, onaning bola kelajagi haqidagi orzu o'ylari chiroyli tasviriy buyeqlarda kuylanadi. Alla naqoratlarida beshik yeki belanchaklarda yetgan bolaning nomi qo'shib aytiladi. Qo'shiqni onaning o'zi, cholg'u asbobisiz aytadi. Ona uchun farzand hamma narsadan ulug', qadirli, shirin, aziz shuning uchun uni darelarning tubidan topib olgan gavharim, deya ardoqlaydi, suyadi.

Senga kuydim yaxshi ot,alla,

Yaxshi niyatdir murod alla.

Yurtu elga suyansang, alla,

Senga bulg'usi qanot, alla.

Ona o'z farzandi - jigar porasining kelajakda baxtli-saodatli bo'lishini orzu qilarkan, uning sog'lom, pahlavon arslon bilakli bo'lib o'sishini istaydi. Allalarning kuylovchisi ham yaratuvchisi ham onalardir. Allalar asosan to'rtliklardan iborat bo'lib, har turtlik so'ngida ikki satr bir xilda takrorlanadi.

"Eramozon". Turli urf-odatlar, marosim va irimlar bilan bog'liq bir qancha qo'shiqlar yaratilganki, bunga "Eramozon", "Barot keldi", "Safar kochedi", "Buka-bukoviy", "Boychechak" kabilarni ko'rsatish mumkin. Shulardan "Eramozon" eski yil kalendaridagi ramazon oyida bolalarning hovlima-hovli yurib aytadigan qo'shiqlari. Ularda xonadon egasiga farzand ko'rish haqida istaklar, ularning saxiy bo'lishi kabi motivlar ustun bo'ladi.

To'y qo'shiqlari

To'y - juda qadim zamonlardan beri kishilar hayetida juda muhim voqea bo'lib kelgan. Xalqning manaviy boyligi to'y tamosholarda namoyen bo'lgan. To'y marosimlari- uylanish to'yi, yesh to'yi, beshik to'yi kabi xilma-xil bo'lganidek, uning qo'shiqlari ham turli tumandir.

"Er-erlar" qiz uzatar kechasida aytiladigan qo'shiqlardan biridir. Ular musiqiyiligi, ko'pchilik bo'lib aytilishi bilan ajralib turadi. Ularda asosan, qiz o'stirgan ota-onaning tarifi, orzulari, uzatilayotgan qizning madhiyasi-go'zalligi, chevarligi, qizga nasihatlar, unib o'sishi, serfarzand bo'lishi haqidagi tilaklar tashkil qiladi. "Er-erlar"da nozik yumor, ba'zan satirik elementlar kinoyali kulgiga sabab bo'ladi. Bunday qo'shiqni kuyevning uyiga qiz uzatib borgan yangalar aytishadi. "Er-er"larda kuyev tomon hazilomuz tanqid qilinadi.

LAPAR - nikoh to'yularida qizning uyida kechqurun o'tkaziladigan "qiz oqshomi", "qizlar majlisi", "kiz oshi", "lapar kechasi" deb ataladigan bazmlarda lapar aytiladi. Qizlar bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona g'azal-baytlar

aytishganda, xuddi so'z bilan tortishmashoq o'ynaganday bo'ladi. Bu bazmda qizlar bilan yigitlar tomonidan ikki kishi sal oldinga chiqib lapar aytishadi. Odatda, to'yga atab qizning otasi ikki-uch juft kavush olib qo'yadi. Lapar aytuvchi shulardan birini ushlab turib lapar boshlaydi va qizlar to'ldasidagi laparchi qizga uzatadi. Ular esa qaytib yigitlarga uzatadi, shu tariqa o'rtaga yangi laparchilar chiqaveradi.

Lapar ko'pincha hazil-mutoyiba, piching, qochiriq, ramz, noz-karashma, alam, shama qilish, iztirob, quvonch, g'oyat go'zal teran, murakkab ruhiy kechinmalar, his-hayajonlar musikiy satrlarda ifodalangan. Laparlar ham asosan, to'rtliklardan tashkil topib, voqeabandligi, dialog shaklida ikki tomon bo'lib ijro etilishi bilan karakterlanadi.

KELIN SALOM - kelinchakni kuyevning yaqin qarindoshlari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yeki betochar qo'shiqlari aytiladi. Xalqimizda salomnomalar an'anaviy tarzda bo'ladi. Avval yagona xudo nomiga, keyin bobolari, otalari, onalari, akalari, yaqinlari, do'stlari, ammalari, xolalariga salom berganda, ta'rif-tavsiflar orasida hazilnoma gaplar qo'shib-chatib aytiladi. Bundan hamma miriqib kuladilar, lekin hech kim xafa bo'lmaydi.

TERMALAR

Terma o'zbek folklorining mustaqil janri bo'lib, uning yaratilishida baxshilarning roli juda katta. Pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayetdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi yeki tanqidiga bag'ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-1g' satrdan 150-g'00, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liro-epik she'rlarga terma deyiladi. Terma so'zining ma'nosi terib, tanlab tizish demakdir. Termada ijro davomida ayrim bandlarning qo'shilishi yeki o'rin almashishi, ba'zi bandlari tushib qolishi mumkin. Dostonlardan olib ayrim holda aytilgan parchalar ham terma deb yuritiladi. Termalarning eng ko'p tarqalgani "Nima aytay" she'ridir. Baxshi doston boshlanmasdan oldin auditoriyani o'ziga tortish, odamlarni tayerlash uchun terma boshlaydi. Terma aytish bilan o'z repertuarini aytib tanishtirib o'tadi. Xalq qo'shiqlari og'zaki ijodimizning qadimiy lirik janridir. Ularning dastlabki namunalari Mahmud Qoshg'ariy tomonidan 10u2 yilda tuzilgan "Devonu lug'otit turk" kitobida uchraydi. Janr atamasining kelib chiqishi "Qo'shmoq" so'zi bilan bog'lanadi. Qo'shiq xalq og'zaki ijodidagi deyarli yagona lirik janr hisoblanadi. Ma'lumki, lirikada asar yaratuvchining atrof-muhitida ro'y berayotgan voqealarga nisbatan his-tuyg'ulari orqali bildirgan munosabati aks etadi. Demak, qo'shiqchilarni aytuvchining ruhiy holati ifodasi sifatida qabul qilish mumkindir. Chunki hayet taqozosi bilan ro'y bergan voqea-hadisadan xursand bo'lgan shaxs ham, xafa bo'lgan kimsa ham o'z mamnunligini va dardini lirika orqali ifodalashga intiladi. Shuning uchun ham xalq maishiy hayetida muhim hisoblangan to'y ham, aza ham qo'shiq sa'ati bilan bog'langandir. Qo'shiq xalq san'atining keng tarqalgan ijod namunasidir. Bu janrga mansub asarlar asosan to'rt misradan iborat bo'ladi va ab-ab yeki aa-ba tarzda qo'fiyalanadi. Xar bir to'rtlikda ma'lum ruhiy holat haqida tugal fikr ifodalash lozim bo'ladi. Masalan Darening ul yuzidan sel keladi, Sel bilan ikki o'rdak teng keladi, O'rdakka o'rdak munosib

g'ozga-g'oz, Yigitga qayliq munosib, qizga noz. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida keltirilgan qo'shiqlar ham mavzu va mazmun jihatidan bir necha turlarga bo'lingan. Ular orasida lirik, ov, chorvachilik, fasllar munozarasi kabi qo'shiqlar uchraydi. Bugungi kunda xalq og'zaki ijodida yashab kelayotgan qo'shiqlarni ham tasnif etish mumkin. Ular kuyidagilardan iborat.

1. Lirik qo'shiqlar. 2. Mavsum qo'shiqlar. 3. Marosim qo'shiqlar. 4. Mehnat qo'shiqlari. 5. Tarixiy qo'shiqlari.

Lirik qo'shiqlar inson ruhida tashqi muhit ta'sirida vujudga kelgan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalovchi vosita hisoblanadi. Lirik qo'shiqlarning mazmunini oddiy so'zlashuv tarzda, ya'ni undagi fikrni sodda so'zlar bilan bayen etgan holda ifodalash mumkin emas. Ba'zi lirik qo'shiqlarni esa izohsiz tushunib bo'lmaydi. Ammo o'zbek qo'shiqlari qatoridagi bu she'riy parchalarni o'zbeklar ruhan tushunganliklari uchun izohni surishtirib ham o'tirmaydilar. Masalan xalq orasida "Oq ilon, oppoq ilon, Oydinda yetganing qani. Men yemondan ayrilib, Yaxshiini topganing qani" degan "Tanovar" musiqasida aytiladigan qo'shiq bor. Unda oq ilonning oydinda yetishi haqida fikr bildirilgan. Bu qo'shiqni ijro etadigan o'zbeklarning ko'pchiligi "Oq ilonning oydinda yetishi" ma'nosini bilmaydilar. Olimlarning qayd etishicha, qadimgi rivoyatlarga ko'ra oq ilonning oydinda yetganini ko'rgan har bir kimsa baxtli bo'lar ekan. Mazmuni izohlanayotgan mazkur qo'shiqda ana shu rivoyatga ishora mavjuddir. Qo'shiqda oq ilonning oydinda yetmagan bilan qo'shiq to'qiyetgan shaxsning baxtli bo'lolmagani parallel qo'yiladi. O'z sevgilisiga yetisha olmagan kimsa ruhan bu duneda baxtli odamning umuman yo'qligini ta'kidlashga harakat qiladi. Agar biz "Andijonda o't yeqsam O'shda tutun Bu duneda bormikin bag'ri butun" qo'shig'ini esga olsak, fikrimizning to'g'riligi yana ham yaqqol ko'rinadi. Ma'lum bo'ladiki, xalq qo'shiqlarida inson tabiatiga xos bo'lgan ichki kechinmalarni ifodlashga urinish yaqqol seziladi. Mumtoz va XX asrda ijod etgan adiblarimizning ko'pchiligi o'z xotiralarida badiiy, asarlarida, maqola va tadqiqotlarida xalq qo'shiqlarining aynan ana shu fazilatlarini bo'rtirib ko'rsatishni ma'qul ko'rganlar. Lirik qo'shiqlar ularning boshqa turlari kabi qadim tarixga egadir. Xususan, ikki yeshning dil so'zlari ifodalangan dastlabki qo'shiq namunalari, hatto, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham uchraydi. Alisher Navoiyning xalq qo'shiqlaridan keltirgan qo'shiq namunasida ham, bizningcha, o'ta chuqur ruhiy vaziyat o'z ifodasini topadi "Men aytarman jon qardoshim yer-er, Sen aytarsan mungli boshim yer-er" Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, lirik qo'shiqlarga qo'shiqlarning boshqa turi kabi oddiy kungil ochish yeki shunchaki vaqt o'tkazish vositasi sifatida munosabatda bo'lish aslo muhim emas. Chunki "Yurakkinamning taptiga tandir qiziydi, Ko'zginamning yeshiga o'rdak suziydi" kabi misralarda qo'shiq to'qiyetgan shaxsning yuragidagi qatlanib yetgan alamlar, dard ta'sirida jigaridan sizib oqayotgan zardob belgilari namoyendir. Demak, lirik qo'shiqlarda o'zbek xalqining bugungi kun mentaliteti muttasil ifodalanganini alohida qayd etish lozimdir,

Xalq maishiy va iqtisodiy hayati jarayenida mavsumiy rasmlar bilan hamisha bog'liq edi. Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimgi halqlardan qolgan yedgorliklar" asarida "Navro'z" bayramini ma'naviy meros sifatida tilga

oladi. Shuningdek, halqimiz mehnat davomida bahor fasli dala ishlarining boshlanishi, kuz faslida hosil yig'ish, qish faslida turli marosimlarni o'tkazish amallarini bajarib kelgan. Bu haqida filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov loiy yil "Fan" nashriyetida chop etilgan "O'zbek marosim folklori" kitobida mukammal fikr yuritadi. Muallifning etiborini jalb etadigan mulohazalaridan biri xalqimiz amalga oshirgan mavsum va marosimga oid tadbirlarning birortasi so'z san'ati namunalarisiz o'tkazilmasligini ta'kidlash bilan belgilangan. Xususan, "Sust xotin", "Yada", "Choy momo", "Yas-yusum", "Shamol chaqirish" kabi marosimlarning hammasida mavsum qo'shiqlari yetakchi hisoblanadi. Bu qo'shiqlarda xalq so'zning magiyasiga alohida ishonich bilan munosabatda bo'lgan. Aytilayotgan fikrlarning amalga oshuviga to'la ishongan. Shuning uchun ham umid bildiriladigan misralar mazkur qo'shiqlarning mohiyatini belgilagan

"Sust xotin, suzma xotin, Ko'lankasi maydon xotin!

Yemg'ir yeg'dir xo'l bo'lsin, Yeru jahon ko'l bo'lsin.

Maysalar quloq yezsin, Sutu qatiq mo'l bo'lsin !"

Matndan shu narsa ayen bo'ladi, qo'shiq ijrochilari o'zlarining yil davomidagi umidlarini ham bayen etishga imkon topganlar. Prof. B.Sarimsoqov xalq turmushida o'rin egallagan marosimlarni ikki yirik turga ajratadi

1. Umumxalq tomonidan amalga oshiriladigan ommaviy xalq marosimlari.
2. Oilaviy marosimlar.

Agar qish, yez, bahor, kuz fasllari bilan bog'langan Navro'z, Mehrijon, Xosil bayramlarini umumxalq nishonlaydigan marosimlar deb atasak, nikoh, sunnat, murt, beshik to'ylari, aza marosimlarini oilaviy chegara bilan belgilaymiz. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida Alp Ertunga "Afrosiyeb) vafoti bilan marsiyalar keltirilgan. Bugungi kunda o'tkaziladigan nikoh to'ylaridagi yer-erlar, kelin salomlar ham oilaviy marosimlarga talluqlidir. Bu qo'shiqlarda xalq oila hayatidagi ro'y bergan ko'ngilli yeki ko'ngilsiz voqeaga nisbatan o'z munosabatini bildirganiga guvoh bo'lamiz. Agar yer-er va kelin salomlarda xursandchilik kayfiyati yetakchi bo'lsa, marsiyalarda inson boshiga tushgan kulfatning naqadar og'irligi ifodalanadi. Inson o'z hayati davomida muttasil mehnat bilan shug'ullanadi. Chunki haqiqiy ma'nodagi inson uchun faqat mehnat turmush kechirish manbai hisoblanadi. Qadim zamonlarda ham shunday bo'lgan, hozir ham shunday, bundan ham shunday bo'ladi. Shuning uchun xalq qo'shiqlarining salmoqli qismini mehnat bilan bog'liq namunalar tashkil etadi. Folklorshunos olimlar mehnat qo'shiqlari o'z tarkibida ham turlarga bo'linishini qayta -qayta ko'rsatib o'tganlar. Shartli ravishda ularni o'rim, xo'p hayda, yerg'ichoq, turey-turey, churiya, sog'in kabilarga ajratish mumkin. Aslini olganda, bu qo'shiqlar, hunarmand, dehqonlar, chorvadorlar mehnat bilan bog'liqdir. Shuning uchun ba'zi bir adabiyetlarda mehnat qo'shiqlari hunarmandchilik, chorvachilik kabi nomlar bilan ayrib ko'rsatilgan. Bu qo'shiqlarning vujudga kelishi va ijro etilishi sabablarini mehnat jarayeni bog'lash maqsadga muvofiqdir. Chunki ajdodlarimiz shug'ullangan mehnat turlarida muttasil ravishda takrorlanadigan harakat ustun turgan. Askiya haqida fikr bildirganimizda aytganimizdek, odamlar bu zerikarli mehnatni ma'lum darajada ruhiy jihatdan

osonlashtirishni istaganlar va qo'shiq aytishni o'ylab topganlar

O'rog'im olmos,
O'rishdan qolmas,
Sira ham tolmas,
O'rmasam bo'lmas"

"Xo'p hayda-e, xo'p hayda, maydaye-mayda,
Qalqon qulog'im hayda, maydaye-mayda.
Temir tuyeg'im hayda, maydaye-mayda,
Xirmonni qilgin mayda, maydaye-mayda".

Yuqorida qayd etilgan namunalarda, bizningcha, ham xalqimizning mehnatiga munasobati, ham har bir kichik imkoniyatdan poetik fikrlashga harakat qilishi seziladi. Qizig'i shundaki, o'zbeklar ham mehnat qurollariga, ham mehnatlarni osonlashtirayotgan hayvonlarga nisbatan o'ta hurmat bilan qaraganlar. Yuqoridagi parchalardan o'rin olgan "O'rog'im olmos, o'rishdan qolmas" "Qalqon qulog'im, temir tuyeg'im" kabi misralari fikrimizning dalilidir. Xullas, mehnat qo'shiqlarida halqimiz o'zining mehnat faoliyati tarixini ifodalagan, desak xato bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida xalqning tarixi aks etadi, deganimizda tarixiy qo'shiqlarni ham nazarda tutamiz. To'g'ri, qo'shiqlarimiz namunalari tarkibida tarixiy qo'shiqlar soni u qadar ko'p emas. Ammo bugungi kunda to'plangan ma'lumotlar bu tur qo'shiqlarni alohida ajratish imkonini beradi, deb hisoblaymiz. Avvalo ta'kidlash lozimki, tarixiy qo'shiqlar ko'pincha, muhim tarixiy voqealarning badiiy ifodasi sifatida vujudga kelgan, qo'shiqlarni tahlil etish bu tarixiy voqealarning xalq hayetida alohida o'rin egallaganini ko'rsatadi. Masalan, Muhammad Rahimxondan keyin Xorazmda xonlik qilgan Asfandiyer zamonida aholining hayeto'ta mushkul ahvolda qoldi. Ana shu vaziyatda kuyidagi qo'shiq yaratildi "Asfandiyer xon bo'ldi, Yurak-bag'rim qon bo'ldi, Yemishimiz chigit non bo'ldi. Ular bo'ldik bu xonlarning dastidan". Ma'lumki, 1914 yilda ro'y bergan yilda ro'y bergan birinchi jahon urishi o'zbek xalqining minglab farzandlari hayetiga zomin bo'ldi. Chor Rossiyasi tomonidan ming-minglab pul hisobida olingan mollar yetmaganidek, xalq farzandlari ham xo'jalik ishlariga tortilganlar. Bu voqeadan Turkistondagi bironta oila zarar ko'rmay qolmadi. Oqibatda, xalq orasida bir qator qo'shiqlar paydo bo'lgan. Xususan:

"Poyizingizni jildirgan O't xonasi bilan do'ngalagi.
Dvinskaga ketgan .Mard yigitning bir bo'lagi.
Dvinskaga ketmas edi Mard yigitning bir bo'lagi,
Dvinskaga ketkazgan Nikalay poshsho zambaragi

"Folklorshunos olimlarning aniqlashicha, bosmachilik xarakati deb nomlagan fuqoralar urushi davrida sovet tuzumi g'oyalari avj olgan ko'ngilsiz davrlarda ham o'nlab xalq tarixiy qo'shiqlari vujudga kelgan. Xalq qo'shiqlari vazn jihatidan barmoqda to'qilgan. Chunki turkiy tillar xususiyati, jumladan, o'zbek tili singarmonik til hisoblangani uchun barmoq vaznidagi ijodni taqozo etgan. Lekin biz mumtoz adaiyet ma'lumotiga ega bo'lgan xalq farzandlarining aruz vaznida yaratilgan xalq ham voz kechmaymiz. Ta'kidlaymizki, o'zbek qo'shiqlari asosan

barmoq vaznida yaratilgan, ba'zi hollarda aruz vaznida yaratilgan xalq qo'shiqlari ham uyaraydi. Xalq qo'shiqlarida shakliy va mazmuniy tasvir vositalaridan keng foydalanilgan. Ularda favqulodda go'zal o'xshatishlar, ruhiy halat tasvirida mubolag'alar, sifatlashlar keng o'rin olgan. Bizningcha, xalq qo'shiqlaridagi tovushdoshlik fazilatini alohida ta'kidlash lozim.

A D A B I Y e T L A R.

- 1.M. Alaviya. O'zbek xalq qo'shiqlari. Tashkent. Ioto.
- 2.B.Sarimsoqov. O'zbek marosim folklori. Tashkent, "Fan", 1oiy.
- 3.Gulyor. Toshkent, 1967
4. K.Imomov va boshqalar. Tashkent. "O'qituvchi", 1990

XALQ ERTAKLARI.

**MAVZU: XALQ ERTAKLARI DUNYO XALQLARINING
OMMAVIY TURI SIFATIDA**

R E J A:

1. Ertak janri va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ertaklar tasnifi.
3. Sehrli – fantastik ertaklar.
4. Maishiy ertaklar.
5. Satirik ertaklar.

ADABIYOTLAR:

1. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. T., 1964.
2. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. T., 1976.
3. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. T., 1984.
4. Prop russkaya skazka. L., 1984.

XALQ ERTAKLARI

Ertaklar fol'klorning keng tarqalgan ommaviy janrlaridan biridir. Ertaklar xalq hayoti, ijtimoiy turmushi, ma'naviy dunyosi, dunyoqarashi bilan uzviy bog'langanidir.

Ertak janri dunyo xalqlari fol'klorida so'z san'atining eng ommaviy, eng demokratik turi hisoblanadi. Ertaklarning paydo bo'lishi uzoq o'tmishga, sinfsiz jamiyatga borib taqaladi. Ertaklarda xalqning tilak va orzulari aks etadi.

Uzoq proletar yozuvchisi A.M.Gor'kiy o'zining «Ming bir kecha»ga yozgan so'zbohisida ertak janri va uning g'oyaviy-badiiy ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlar bildirgan edi.

«Ming bir kecha» xalq og'zaki ijodining eng yaxshi va monumental namunasidir. Bu ertaklar mehnatkash xalqning «shirin xayollari zavqiga», erkin o'yinidan eavqlanishiga ifoda qiladi, sharq xalqlari fantaziyasining jo'sh urgan kuchini ifoda qiladi. Bu suxandonshunoslik juda qadim zamonlarda vujudga kelgan, uning rang-barang ipaklari butun er yuziga yoyilib, uni hayron qolarlik darajada go'zal so'z san'ati bilan qoplagan...»¹.

A.M.Gor'kiyning «Ming bir kecha» ertaklariga bergan bahosi o'zbek xalq rtaklariga ham taalluqlidir. Chunki ertak janriga xos xususiyat barcha xalqlar ertaklari uchun mushtarakdir. Bu narsani ertaklarning syujeti, kompozitsiyasi, g'oyaviy mazmunida ko'rish mumkin.

Ertaklar insonning o'zini o'rab olgan muhitdan, tabiiy hodisalar ta'sirlanishi natijasida yuzaga keladi. Rus sovet ertakchisi P.P.Bajev «Ertaklar orqali hayotni ko'rasan» deganida, qozoq sovet yozuvchisi Muxtor Avezov «Ertaklarda u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlari o'zining badiiy ifodasini topgan»,- deb yozganida ertak fantaziyasining zaminida real haqiqat yotishini nazarda tutgan edilar.

Ertaklarning etnografiya uchun ham muhim rol' o'ynashini prof.M.K.Azadovskiy alohida qayd etib quyidagilarni yozgan edi: «Etnografiyani o'rganishda ertaklar katta va muhim rol' o'ynaydi, shu bilan birga badiiy yodgorliklarni aytuvchilar hisoblanadilar»²

Ertak janrining asosiy xususiyatlaridan biri uning xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan juda yaqin bog'langanligi va insonlarga axloqiy hamda ma'naviy tarbiya berilishidir. Ertaklarda inson o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi doim g'olib chiqadi.

Ertaklar tuzilishiga ko'ra sodda va anglashilishi oson bo'lgani uchun kitobxonning barcha tabaqasiga tez etib boradi.

Bir qancha ertaklar bir xalqdan ikkinchi xalqqa o'tadi va keng tarqaladi. A.M.Gor'kiy bu haqda quyidagilarni yozgan edi: «Qadimgi ertaklarning bir xalqdan boshqa xalqqa o'tib tobora har bir irk, har bir millat va har bir sinfning xususiyatlari bilan to'ldirilib borishi protsessi fikr yuritish, madaniyat va xalq ijrochiligining rivojlanishida juda katta rol' o'ynaganligi hech shubhasiz bo'lsa kerak»³. Haqiqatan ham har bir xalqdagi o'sha xalqning hayoti, urf-odatlar, dunyoqarashi, orzu-umidlari, tarixi, psixologiyasi ifodalanadi.

Ertak termini xalq orasida uzoq asrlardan beri yashab keladi. Ertak termining ma'nosi turlicha. Ertak qadimgi avvalgi ma'nolarini ifodalaydi.

¹ «Ming bir kecha», 1-том, Тошкент, 1959 йил, 4-бет.

² М.К.Азадовский. Статьи о литературе и фольклоре. М.,Л., 1960.

³ А.М.Горький. Эртаклар ма'ида. «Ўзбек фольклоридан» уз материаллари». Тошкент, 1950 йил, 5-бет.

Samarqand, Surxandaryo oblastlarining ayrim rayoni va qishloqlarida «ertak» o'rniga «matal» so'zi qo'llanadi. «Matal» terminini Farg'ona shevalarining ayrimlarida ham uchratish mumkin. Buxoroning ba'zi rayonlarida «ushuk» termini qo'llanilsa, Toshkentda «cho'pchak» ishlatiladi.

Ertak termini qozoqlarda «ertak», «tolg'on», «utruk», qirg'izlar «jojomoq», turkmanlarda «erteki», «hekoya», «buderek gurun», «yalan», qoraqalpoqlarda «ertak», «jolg'on», «qalpeki», «o'ylab shig'oltilg'on» deb ataladi.

Taniqli fol'klorshunos olim M.I.Afzalov xalq ertaklarini shartli ravishda ikki qismga ajratadi.

1. Fantastik ertaklar. Bunday ertaklarda fantastik moment kuchli bo'lib, ularga hayvonlar haqidagi va sehrli-fantastik ertaklar kiradi.

2. Realistik ertaklar. Bunday ertaklarda fantastik momentlar kuchsiz bo'lib, ularga hayotiy va satirik ertaklar kiradi.

A. Hayvonlar haqidagi ertaklar. Bunday ertaklar eng qadimgi zamonlarida paydo bo'lgan, ibtidoiy odamning tabiat voqea-hodisalariga totemistik va animistik qarashlari bilan izohlanadi. Ibtidoiy odamlar hayvonlar ham odamlar kabi gapiradilar, fikrlaydilar deb tushunganlar. Insonning jonli tabiatga bolalarcha sodda munosabati uning hayvonlar haqidagi ertaklardga ifodalangan.

Bu haqda E.Teylor o'zining «Ibtidoiy madaniyat» asarida ko'plab misollar keltiradi. Uning fikricha, ibtidoiy odam o'z atrofidagi hayvon va qushlarni o'zlariga o'xshatadi, ya'ni ular odam kabi so'zlashadi, fikrlaydi, urishadi, do'stlashadi, bir-birini sevadi, psixologik kechinmalarni kechiradi. Mana shu yillar bilan qadimgi inson tushunchasida turli hayvonlar, qushlar haqida miflar, ertaklar, masallar yuzaga kelgan⁴.

Ota-bobolarimiz hayvonlarning ba'zi birlarini ilohiylashtirganlar. Bunday totemistik qarash o'zbeklar orasida ham mavjud bo'lgan. Masalan, o'zbeklarning orasida bo'ri bo'lgan totem mavjud. Chunki o'zbeklarning bir qancha qabilalari o'zlari bo'ridan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Bu haqda professor H.T.Zarifov shunday yozadi: «O'zbek urug'larining bir qanchasida bo'ri obrazi ijobiy, hatto muqaddas sanalganki, bu tushncha ularning bir zamonlar bo'riga e'tiqod qilganliklari, uni totem sifatida muqaddas tutganliklari bilan bog'liqdir»⁵.

Inson hayvonlarning o'ziga foyda keltirganlarini ijobiy, zarar keltirganlarini salbiy obrazlarga ajratadi. Shuning natijasi bo'lsa kerak, o'zbek xalq ertaklarida it, ot, mushuk, sichqon, qo'y – echki, kiyik, ijobiy obrazlar bo'lib tulki, bo'ri, sher, yo'lbars, ilon, eshak va boshqalar salbiy obrazlarni tashkil etadi.

Umuman, dunyo xalqlari adabiyotida hayvonlar, qushlar, narsa-predmetlar to'g'risida juda ko'p ertaklar vujudga kelgan. Bularda u yoki bu xalqning o'sha hayvonga bo'lgan munosabati, milliy koloriti o'z ifodasini topgandir. Chunki har

⁴ Э.Тейлор. «Ибтидоий маданият». Москва, 1939, 285-бет.

⁵ Фаранг: «Ўзбек тили ва адабиёти масалалари», 1958 йил, № 1, 29-30-бетлар.

bir xalq tabiatida hayvon va jonivorlarga, narsa-predmetlarga o'zicha munosabatda bo'ladi. Chunonchi, olg'irlik kabi xislatlarni ko'rib keladi.

Masalan, «Bo'ri bilan tulki» ertakini olib ko'raylik. Bu ertakda Bo'ring ham, Tulking ham salbiy xususiyatlari ochiladi.

Bo'ri Tulkiga: - Qornim och. Qornimni to'yg'azib, bir xursand qil, jon Tulki,-debdi. Ikkinchi kuni Bo'ri Tulkiga: - Zap ish qildigda. Tulki,-debdi bUri, - juda xursand bo'ldim. Endi bir xafa qilchi, qandoq bo'larkan! Tulki uzumzor bog'dan ikki dona uzumni burnuga siqib, bo'riga ko'z-ko'z qiladi:

-Bo'ri, Bo'ri! Men to'ydim. To'yanimdan uzum burnimdan chiqib ketayapti,-debdi. Go'l, ahmoq Bo'ri Tulkingin so'ziga ishonib, to'yib uzum eyodi, bog'bon kelib qolgach, qochib ketolmay, kaltakka duchor bo'ladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar boshqa turdagi ertaklarga qaraganda kompozitsiya jihatidan oddiy, ular ko'pincha qisqa va ma'lum bir didaktik xulosani ko'zda tutadi.

B. Sehrli fantastik ertaklar. Bunday ertaklarda ham o'tmishda yashagan insonning hayoti, tabiatga bo'lgan munosabati, dunyoqarashi ifodalangan.

Sehrli fantastik ertaklarda syujeti ham, obrazlar ham aql bovar qilmaydigan darajada aks ettiriladi. Sehrli fantastik ertaklarning asosiy qahramoni inson bo'lib, narsa-predmetlar, hayvon va qushlar insonning sehrli yordamchilari bo'lib gavdalanadi.

Masalan, «Semurg'» ertagida o'zining fantastik imkoniyati bilan insonga yordam beradi. Insonni turli odatlardan qutqaradi. Olis masofalarni bosib o'tishda, ko'p sonli yovuz kuchlarni engishda unga yordam beradi.

«Uchar gilam» ertagida gilam – transport vositasi. «Ur to'qmoq» ertagida to'qmoq kuch, qurol, «Ochil dasturxon»da dasturxon noz-ne'matlarning makoni sifatida tasvirlanadi.

Sehrli-fantastik ertaklar nihoyatda ajoyib, qiziqarli bo'lib, syujeti birmuncha murakkabdir. Sehrli-fantastik ertaklarda ham totemizm qoldiqlari ko'zga tashlandi.

Masalan, bunday ertaklarda insonning hayvonga aylanib qolishi yoki yana asliga qaytishi kabi motivlar totemistik tushunchalarning ta'siridir. Sehrli – fantastik ertaklarda qahramonning hayvonlar bilan munosabatda bo'lishi ijobiy natijalarga olib keladi.

«Kenja botir» ertagida hikoya qilinishicha, podshoning bog'idagi oltin qanotli uchar ot kelib, eb ketar ekan. Bu uchar otini faqat podshoning kichik o'g'li-Kenja botir ushlab oladi va shu ot bilan do'stlashib, qiyinchiliklarni engadi. Kenja qanotli otini o'limdan saqlab qolgani uchun o'z ustiga mindirgani holda osmonda uchib, ko'p qiyin, mashaqqat shartlarni bajaradi, insonlarni suvsizlik, ochlikdan qutqaradi. Uchar otning yordamida Kenja quyoshga uchib borib, undan ko'p sirlarni bilib qaytadi. Insonlarga ko'maklashadi.

Sehrli-fantastik ertaklarning qahramonlari fantastik, mubolag'ali tarzda tasvirlanadi. Bu qahramonlar sehrli kuch va mo'jizalarga ega, yakka holda dushmanning har qanday kuchini engaladi. Ular kun, saoti sayin o'sadi, uzoq vaqt uxlamay yuradi. Agar bir uyquga ketsa, qirq kecha-kunduz uxlaydi, ko'z ochib yumguncha uzoq masofani bosadi, zo'r ijtimoiy va ma'naviy kuchga ega bo'ladi, aql bovar qilmaydigan yumushlarni bajaradi.

V. Hayotiy-satrik ertaklar. Bunday ertaklarda sehrli-fantastik voqealar o'rini ko'proq real voqealar egallaydi, hayotiy-maishiy ertaklarning tematikasi xilma-xil bo'lib, ularga sotsial motivlar yorqin va o'tkir ifodalanadi. Hayotiy-maishiy ertaklarda inson huquqlari, tenglik, adolat ochiq himoya qilinadi. Oddiy mehnatkash xalqqa zulm qilgan, uning baxtsizligiga sababchi bo'lgan boylar, podsholar, ruhoniylar hayotiy shaxslar, ekspluatatorlar obrazida beriladi.

Hayotiy-maishiy ertaklarning asosiy qahramonlari kishilarning e'tiborini o'ziga tortmaydigan devona, kal yoki oddiy odam sifatida tasvirlanadi. Biroq voqealar davomida ana shu e'tiborga arzimaydigan obraz tadbirkor, ziyrak, hamma ishing uddasidan chiqadigan kishi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek xalq ertaklari ichida mehnatkash ommaning vakili sifatida ishtirok etgan kal obrazi ayniqsa qiziqarlidir. «Kal botir», «Kal bilan boy» «Kal bilan podsho» kabi o'nlab ertaklar bunga misol bo'ladi.

Hayotiy-maishiy ertaklardagi ijobiy obrazlar mehnatkash ommaning butun ijobiy fazilat va xislatlarini ifodalab, dushmanlarni, to'siqlarni, turli qiyinchiliklarni engib mehnatkash xalqqa yordam beradi. Ular podsho, xon, boy, ruhoniylar va savdogarlar bilan yuzma-yuz to'qnashadi, bu to'qnashuvda ular jismoniy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham g'olib chiqadi.

Masalan, «Uch og'ayni botirlar» ertagini olib ko'raylik. Bu ertakda xalqning yozuvchilarga qarshi g'azab bilan va nafrati aks ettirilgan. Uch aka-uka obrazi misolida xalq o'zining orzu-istaklarini, adolatparvarlik, gumanizm g'oyalarini ifodalagan. Shuning uchun uch aka-uka har qanday sharoitda ham o'zlarining uddaburonligi, ishbilarmonligi, aql-zakovati bilan g'olib chiqadi.

Uch og'ayni saroyga kelgach, podsho sir olish uchun ularning oldilariga dasturxon soldiradi. Ular o'zaro suhbatlashadilar. Suhbat paytida to'ng'ich botir:

- Shu go'sht qo'zining go'shti ekan, biroq shu qo'zi it emib katta bo'lgan ekan,-deydi.

O'rtanchi botir aytadi: - To'g'ri aytasiz, podsho degan it go'shtidan ham qaytmaydi. Men ham shu narsaga hayron bo'lib turibman, mana shu shinnidan odam isi keladi.

Kenja botir aytadi: - To'g'ridir, poshsholik qonxo'rlik demakdir. Qon qo'shilgan bo'lsa ehtimoldan uzoq emas. Lekin yomonning qoni bo'lsa-ku mayli, begunohning qoni qo'shilgan bo'lmasin.

Ko'rinib turibdiki, uch og'aynilar o'z dalillari bilan podsholikni, podsho zulmini fosh qilmoqda.

Hayotiy-maishiy ertaklar asosida hayotiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar yotadi.

Chunonchi, «Hunarli yigit» ertagida bir yigit o'z hunari, bilimi bilan quduq ostida dev qo'lidan qutilib qoladi, shaxmat o'ynab, podshoning qizini yutadi, o'ziga xotin qilib oladi.

Demak, bu ertakda inson hayoti uchun hunar, ilm kerak degan xulosa kelib chiqadi.

Hayotiy-maishiy ertaklarda to'g'rilik, o'g'rilik ustidan g'olib chiqadi, do'stlik ulug'lanadi, yaxshilik, saxiylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xislatlari tarannum qilinadi.

Satirik ertaklarda jamiyatning illatlari, hukmron sinf va ularning zolimliklari ustidan achchiq zaharxanda kulgi beriladi.

Satirik ertaklarning tematikasi podsho va xonlarning zolimligini, ahmoqligini, adolatsizligini, boylarning xasisligini va mehnat ahliga qarama-qarshi bo'lgan tekinxo'r o'g'rilarni, ko'knorilarni, folbinlarni, ahmoq mullalarni, ruhoniylarni va shularga o'xshash elementlarni fosh qilishdan iboratdir.

«Xasis boy bilan Abdurahmon o'g'ri» ertagini olib ko'rish mumkin. Bir xasis boyning ming tillasi bo'ladi. Boy bu tillalarni bir bo'z xaltasiga solib, og'zini mahkam tugib, hech kimga ishonmay, bo'yniga osib yuradi. Boyning Matmusa ismli xizmatkori bo'ladi. Boy unga ko'p azob beradi. Abdurahmon o'g'ri Matmusaning qo'lida ustalik bilan ro'molini olib, boyning uyiga borib tillani olib qo'yadi. Keyinchalik o'g'ri boyga tillalarni qaytaradi. Biroq bir tillasi qoladi. Butun janjal mana shu tilla ustida boradi. Tillani olish uchun boy o'g'rining uyiga borib etib oladi. O'g'ri «o'ladi». Boy qo'madi. O'g'ri tiriladi. Xullas, boy o'g'ridan bir tangasini undiradiyu tinchiydi.

Ko'rinadiki, xususiy boyluk to'plash uchun intilgan ekspluatat sinf vakillari kuchli satira, yumor orqali fosh etiladi.

Satirik ertaklarning asosiy xususiyatlaridan biri ularda sotsial tengsizlikka qarshi kurashning hajviy ifodalanishidir. Bunday ertaklarda ezuvchilar qattiq hajv ostiga olinadi. Shuning uchun ham satirik ertaklarni xalq hayotiga yaqin hisoblaydilar Chunki, satirik ertaklarga sotsial konfliktlar, sinfiy ziddiyatlar asos qilib olinadi. Bu xususiyatni «Mamatkal», «boy bilan Novcha», «Zolim podsho», «O'g'ri podsho», «Axmoq podsho», «Qozi», «Ikki mulla» kabi ertaklarda yaqqol ko'rish mumkin.

«Zolim podsho» ertagida mehnatkash xalq podshoning johilligidan kuladi. «Mamatkal» ertagida eshon qo'lida uzoq yillar xizmat qilib, haqini ololmagan Mamatkal bir duo o'qib, Eshonni eshikka yopishtiradi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og`zaki ijodida ertak janri alohida o`rin tutadi. U o`zining g`oyaviy-badiiy mazmuni, o`tkir badiiy tili, badiiy estetik qimmatini bilan xalqning sevimli, ommaviy janri bo`lib kelmoqda⁶

TEKSHIRISH SAVOLLARI

1. Ertak janri dunyo xalqlarining boy va ommaviy janri deganda nimani tushunasiz?
2. Ertak janrini o`rganishga bag`ishlangan tadqiqotlar, olimlar, ularning asarlari haqida ma`lumot bering.
3. Ertaklar tematik jihatdan qanday turlarga bo`linadi?
4. Hayotiy ertaklarga misollar keltiring.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. «Ertaklar orqali hayotni ko`rsan» (P.P.Bakiv) tushunchasini izohlang.
2. Ertaklarning g`oyaviy-tematik jihatdan tasnifi, boyligi.

Ertak- xalq og'zaki ijodidagi badiiy proza namunasidir. To'g'ri, ayrim ertaklar matnida kichik-kichik lirik she'rlar uchraydi. Ammo bunday ertak namunalari juda kam bo'lib ertakchilik xaqida alohida tasir ko'rsatmaydi.

Janr atamasi M.Qoshg'ariyning "Devoniy lug'atit turk" asarida "Etuk" tarzida qo'llangan. Xalqimiz orasida hozirgi paytda xam cho'pchak, utuk, matal, varsaq kabi so'zlar ertak manosi anglatadi. Ertaklari xalqning ijodkor vakillari tomonidan hayotiy, mayishi, sarguzasht ba'zan satsial vaqealarni to'qib qiziqarli tarzda bayon etilishi natijasida vujudga kelgan. Ularda xalqning tarixi, duneqarashi, intilishi, ozodlik uchun kurashi, falsafasi aks etadi. Qadimgi zamonlardan og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan ertaklar zamonining o'zgarishshii natijasida ro'y bergan yangiliklarni xam o'ziga singdirib boradi. Xalq og'zaki ijodining

⁶ M.I.Afzalov. «O'zbek xalq ertaklari haqida» nomli monoqrafiyasida ertak janri xususiyatlari, motivlari, obrazlar sistemasi, badiiy va stilistik tomonlari, ertakning boshqa janrlar bilan aloqasi haqida atroflicha fikr yuritgan. Shu sababli biz bunda yuqoridagi kitobni maxsus adabiyot sifatida tavsiya etamiz.

o'rganuvchi olimlarning takidlashlaricha, dunedagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bir-biriga yaqin turgan janr ertakdir. Sehrli ertaklarning yaratilish asoslarida o'xshashlik yana ham kuchliroq seziladi. Ertaklarning bu xususiyati ham ularning juda qadimdan yaratilganidan, turli xalqlar maishiy hayetida o'xshashliklarning ko'pligidan darak beradi. Ammo bu degan so'z ertaklarda milliylik aks etmaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Chunki ertaklar matnidagi qahramonlar ismlarida, muammalarida maishiy masalarning ifodasida, tabiyat tasvirida, vaqealar bayenida hunarlarda milliy til, milliy ruh alohida aks etadi. Xalq ertaklarning ommaviyligi va yashovchiligini ham ularning shu xususiyatlari bilan izohlash mumkin. O'zbek xalq ertaklari B.Karimov, F.Abullayev, M.Afzalov, K.Imomov, X.Egamov, kabi olimlar tamonidan o'rganilgan ular Xamrobibi Umarali qizi, Xasan Xudoyberdi o'g'li, Xusanboy Rasul o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, kabi o'nlab ertakchilardan, ertak yezib olganlar, tahlil qilganlar. Xalq ertaklarining tasnifini quydagicha amalga oshirish mumkin:

1. Xayvonlar haqidagi ertaklar.
2. Sehrli ertaklar.
3. Xayetiy-maishiy ertaklar

Aslini olganda sehr va mo'jiza umuman ertak janrining mahiyatini belgilovchi omil xisoblanadi. Ertakning boshlanish qismidagi "Bir bor ekan, bir yo'q ekan" so'zlardan iborat boshlanma ""Zachin") dayeq xikoya qilinadigan voqeaga ishonish yeki ishonmaslik tinglovcho' ixtiyerida ekani anglatiladi. Ammo ertakning keyingi bayeni inson ruhiyati bilan shu qadar uyg'un amalga oshiriladiki, tinglovchi yer ostidagi shaharlarga, kiyikning tuyeg'idan sachrayetgan olmoslarga mutlaq ishongan holda o'z munosabatini bildiradi. Binobarin, sehr va xayeliy mushohada yuritish umuman ertak janrining yaratilishida yetakchi o'rin egallaydi, asosimiz bor. Tabiy, savol tug'iladi uholda, ertaklarning tasnifi qanday nazariy asosga binoan amalga oshiriladi? Bu savolga quydagicha javob berish mumkin ertaklarning tasnifini amalga oshirishda ularning mazmuni bosh mezon hisoblanadi. Ertak mazmunidagi tasnifda qayd etilgan qaysi masala yuzasidan hikoya qilingan voqealar olib tashlanganda ertak mazmuniga ortiqcha zarar yetsa, ertak tasnifi shu mavzu bilan belgilanadi. Masalan, "Mohistara" ertagida sehrli voqealar bilan bir qatorda maishiy masalalar, ishq-muhabbat, uylanish muammolari ham ifodasini topgan. Ammo bu ertakda sehr ta'siri alohida o'rin egallagan. Agar undan sehrli voqealar olib tashlansa, ertak o'z mohiyatini mutlaq yo'qotadi. Shuning uchun bu ertak tasnifi jihatdan sehrli ertaklar qatoridan o'rin oladi. Xalq ertaklari bir ko'rinishdagi xalqning ovunchog'i, hordiq chiqarish vositalaridan biri sifatida ko'zga tashlansa ham ularning falsafiy asoslarini, ijtimoiy muhitining badiiy in'ikosi sifatidagi ahamiyatini e'tibordan soqit qilish mumkin emas. Folklorshunoslikka shunday ertaklar ham ma'lumki,

ularida maishiy hayet masalarigina emas, balki muhitning ijtimoiy muammolari o'z ifodasini topadi. Biz bu o'rinda "Kambag'al qiz", "Uch yelg'onda, qirq yelg'on" kabi asarlarni nazarda tutamiz. Xalq o'zi yashayotgan ijtimoiy hayet sharoitidan qadim o'tmishda rozi emasligini aynan mana shu ertaklar vositasida bildirgan. Xususan, inson hayetining o'tkinchi ekanligi, dunening bevafo ekanligi, charxpalakning teskari aylanishi maqollarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ertaklar ham bundan istisno emas. "Uch yelg'onda qirq yelg'on" ertagidagi bir bolaning o'lib-o'lib, uchta bo'lgani, baliq suyagining olovdan hil-hil bo'lib badaniga issiq o'tmagani aynan zamonning teskariligiga bildirilgan ishoradir. Qizig'i shundaki, ertakdagi voqealar tinglovchida kulgi uyg'otish maqsadidi bayen etilayotgandek tuyuladi. Lekin ertak mazmuniga tajribali inson nuqtai nazaridan munosabatda bo'linsa, mazkur asarning falsafiy asosida juda muhim mulohaza yetgani ma'lum bo'ladi. Ertak yaratilishidan ijodkor nazarida tutgan bosh maqsad ham ana shu mulohaza bilan bog'liqdir. Jahon xalqlari og'zaki ijodida umuman, o'zbek xalq og'zaki ijodida, xususan, ertaklarning syujet va kompozitsiyasida an'anaviy morfologik holatning mavjudligi followshunos olimlar tomonidan isbotlangan. Ularning fikricha, tom ma'noda ertak janriga mansub bo'lgan har bir asosan uch tarkibiy qismdan iboratdir.

1. Ertakning initsial qismi, ya'ni boshlanmasi. Folklorshunoslikda bu qism ko'pincha zachin nomi bilan yuritildi.

2. Medial qism. Bu qismda ertakda hikoya qilinayotgan voqea to'liq bayeniga ega bo'ladi va ertakning qaysi tasnif turkumiga mansub ekanligini dalillaydi.

3. Final qism. Bu qismda ertakning o'z ifodasini topadi.

Ertakning initsial qismi odatda zamon, vaqt, makon va asar qahramoni haqidagi dastlabki ma'lumotlarni berishga bag'ishlanadi. Medialda esa yetishmovchilik, safar, vazifa, raqib ta'qib, ta'qib, kurash kabi omillar an'anaviy unsurlar sifatida ishtirok etadi. Final, ya'ni ertakning tugallanma qismi asosan murod-maqsadiga yetishi vazifasidan iborat bo'ladi. Ammo bu voqeaning o'zini shartli ravishda safardan qaytish, to'y, raqibini jazolash, murod-maqsadga yetish kabi tarkibiy qismlaridan iborat ekanligini ko'rsatish zarur. Yuqorida qayd qilinganimizdek, o'zbek xalq ertaklari tasnifiga ko'ra sehrli, hayetiy-maishiy, hayvonlar haqidagi kabi turlarga bo'linadi. Inson tabiatan o'z oldidagi har qanday muammoni iloji boricha hal etishga moyil bo'ladi. Uzoq va xatarli masofalarni tez fursatda bosib o'tish, ko'rinishni istagan yaqin odamning holidan xabardor bo'lish, to'kin hayot kechirish, xoin odamga jazo berish, tez fursatda katta boylikga ega bo'lish havasi asrlar davomida insonga tinchlik bermagan. Natijada odamlar mana shunday muammolarning yechimini xayel bilan vujudga keltirish mumkin bo'lgan sehrdan, mo'jizadan, jodudan axtarganlar. Bu yechim oxir-pirovardida og'zaki ijodda xumo, ajdar, dev, pari, yalmog'iz, shayton, nahang baliq,

uchar gilam, uchar ot, sirli jom, sirli xum, ur to'qmoq kabi o'nlab obrazlarning paydo bo'lishi uchun zamin bo'lgan. Muhimi shundaki, ertakdagi voqealar shu qadar qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi darajada to'qilganki, tinglovchilar ertakchining hikoyalarini haqiqat sifatida qabul qilganlar, qahramonlar bilan birga safarda bo'lganlar, yezuv raqiblar bilan kurashda bo'lganlar, ertak yakunidagi to'ylarda ishtirok etganlar. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ajdodlarimiz xayelida yaratilgan fantaziyalar asta-sekin real hayetdan o'z tatbig'ini topa boshladi. Shuning uchun juda ko'p davlat arboblari elektr asboblarining, mashina, paravoz, samolet, kosmik kemalar, televizorlarning vujudga kelishini xalq ertaklaridagi sehr elementi bilan bog'laganlar. Shunday qilib, sehrli ertaklarda xalqning orzu-havasi, kelajak hayetga bo'lgan umidi o'z ifodasini topgan, deyish mumkindir. O'zbek ertaklarining salmoqli qismini hayvonlar haqidagi asarlar tashkil etadi. Ammo hayvonlar haqidagi ertaklar asar mazmunida ishtirok etayotgan personajlarning o'rniga ko'ra faqat sof hayvonlar haqidagi ertaklar va odamlar ham ishtirok etadigan ertaklarga bo'linadi. Bu ertaklarning besh mazmuni bevosita hayvonlar bilan bog'liq bo'lgani uchun ular tasnifiga mana shu turga mansub asarlar sifatida qayd etilgan. Mazkur ertaklarda har bir hayvonlarning tabiiy xususiyatini bo'rttirib ko'rsatish yetakchi o'rinda turadi. Bo'ringning vahshiyliги, tulkinging ayerligi, eshakning befahmligi, sherning o'rmon podshosi ekanligi biz nazarda tutgan ertaklar mazmunining asosini tashkil etadi. Bu ertaklarda hayet majoziy ham aks etishi mumkin. Chunki xalq hayvonlar orazini ertakda tasvirlash orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlash maqsadini ham nazarda tutgan. Xayetiy-maishiy ertaklarga tinglovchilarning ehtiyeji alohida sezilarli bo'lgan. Bunday ertaklar o'zbek xonadonlaridagi farzand va ota, farzand va o'gay ona va farzandlarning an'anaviy tarzidagi o'zaro munosabatlarini aks ettirgan. Ertakning har bir tinglovchisi ijro etilayotgan asarlarda o'z o'ayetini izlagan, o'z taqdirini ko'rishga intilgan. Xayetiy ertaklarda hunar o'rganish, ilm olish, odamlarga yaxshilik qilish, yevuz kuchlarda asranish kabi turmush masalalari badiiy in'ikosini topgan. Ko'pincha ertakning yakuni xalqning bironta maqolidan iborat bo'lgan. Jumladan, bunday ertaklar "Xunar, xunardan unar" yeki "Shuning uchun xalqimiz yaxshilik qil, suvga ot, bilsa baliq bilar, bilmasa xoliq " kabi jumlar bilan yakunlanar ekan. Xalq ertaklari nasriy janr turi sifatida o'ziga xos badiiy mahorat sirlarini mujassam etadi. Agar ertaklardagi obrazlar tizimiga murojat qilsak, aksari hollarda boy, shahzoda, podsho kabilarning no'noq, uquvsizligi ko'rsatilsa, kal, nochor kambag'al o'g'ilning ishbilarmonligi, tadbirkorligi ifodlanadi. Asar qahramonlariga bo'lgan bunday munosabat xalq estetik tamoyillari bilan izohlanish mumkin. Chunki hayetda ko'zga yerqin tashlanmaydigan odamning qahramonlik ko'rsatilganiga qadar ko'rimsiz bo'lib, keyin g'alaba qozonishni tinglovchi qiziqarliroq qabul qilgan. Xalq ertaklarida ikkilantirish, uchlantirish kabi badiiy usullar ham mavjuddir. Bunday

usullar, asosan asr qahramonlarining hayetdagi boshqa odamlardan ijobiy tomonga farq qilishini ko'rsatish uchun o'ylab topilgan. Masalan, biron qahramon o'z saffrida uch yo'lga to'g'ri keladi. Birinchisi-borsa kelar, ikkinchisi-borsa xatar va uchunchisi-borsa kelmas, qahramon bu uch yo'ldan eng murakkabini tanlaydi. Aslini olganda, qahramon safar yo'lining o'zi "borsa kelmas"dan iborat bo'lish mumkin. Ammo ertak ijodkori o'z qahramonining oddiy inson emasligini, har qanday murakkab qiyinchiliklarni yengishga uning quvvati yetishini ta'kidlash maqsadida biz nazarda tutgan uchlantirish qo'llagan. E'tibor beraylik, "Uch og'a-ini botirlar" ertagida uch aka-uka, uch kun uch tun, har bir tunning uch qismi, uch opa-singil, uch jumboq kabi vaziyatlarning takrorlanishi bejiz emas. Demak, xalq ertaklaridagi uchliklaridagi uchliklarning har biri maxsus estetik yuklamani bajarishi bilan e'tiborga loyiq. So'z san'atining boshqa turlarida bo'lgani kabi xalq ertaklarida ham badiiy asarlarda uchraydigan o'xshatish, sifatlash mubolag'a, istiora kabi san'atlar uchraydi. Mazkur tasvir vositalari xalq ertaklarining badiiy qimmatini belgilashda muqim omil hisoblanadi.

A D A B I Y E T L A R

- 1.M.Afzalov. O'zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent 1964.
- 2.G'.Jalolov.O'zbek xalq ertaklari poetikasi. Toshkent 1976.
- e.K.Imomov. O'zbek xalq prozasi. Tashkent .
- 4.V.Ya.Propp. Morfologiya skazki. Moskva "Nauka" 1969.
- 5.K.Imomov va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent "O'qituvchi" 1990

L A T I F A L A R

Latifalar xalq og'zaki ijodining hajman kichik, narsada yaratiladigan ommaviy janri hisoblanadi. Latifa atamasi arabcha "lutf" so'zidan olingan bo'lib, muloyimlik, yaxshi muommala, yaxshilik qilmoq, marhamat etmoq, sharaflamoq ma'nosini anglatadi. Ammo latifa janrining mohiyatida o'rta tashlangan ma'nosi kuchliroqdir. Latifalar asosan kichik maishiy mavzularga bag'ishlangan bo'ladi. Ular ko'pincha maishiy hayetdagi kamchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Ularda nutqning dialog ko'rinishi yetakchilik qiladi. Sharq xalqlari og'zaki ijodidagi latifalarning o'z qarhramonlari mavjuddir. O'zbeklarda Nasriddin afandi yeki Xo'ja Nasriddin, qozoqlarda Aldarko'sa, tojiklarda Jo'xi, turkmanlarda Mirali, hindlarda Birbol ismlari, mashhur. Ammo sharq xalqlarida yaratilgan latifalar mohiyat jihatidan bir-biriga o'xshaydi. Bir latifaning o'zi o'zbekda Nasriddin, hindda Birbol, qozoqda Aldarko'sa nomi bilan yuritiladi. Bunday vaziyatni vujudga kelishini sharq xalqlarining tarixan bir-biriga yaqin yashaganliklari izohlaydi.O'zbek xalq og'zaki ijodida Nasriddin obrazining vujudga kelishi asosan XIX asrning ikkinchi yarimida matbaaning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Xalq kitoblarini nashr etish

ommaviy tus olganda "Nasriddin afandi latifalari" alohida chop etildi. Shundan so'ng bu ism qadimiy latifalardagi qahramonlarning nomini siqib chiqargan. O'zbek "Nasriddin afandi latifalari"da Nasriddin obrazini ikki tomonlama talqin qilish mumkin birinchidan, Nasriddin afandi har qanday og'ir hayetiy vaziyatlardan aqli, tadbirkorligi, tez natijasida yechim topa oladigan dono faylasufdir. U shoh saroyidagi kamchiliklarni tanqid qila oladi, boylarni, amaldorlarni, yemon xulqli odamlarni keskin kulgi ostiga oladi, o'zining haq ekanligini isbotlaydi. Ikkinchidan, Nasriddin afandi-o'ta sodda, hayet tajribasiga ega bo'lmagan, landavur inson. Bu Nasiriddin o'zining go'lligi bilan tinglovchilarni lol qoldiradi. Yechimini topish talab qilingan vaziyatlarda eng noo'rin xarakat qiladi, o'zining mazkur harakatini beo'xshov mulohazalar bilan asoslaydi. Agar talabchan podsho oldida mantiqiy fikr yuritish bilan uni mot qilgan Afandi birinchi talqinga mos kelsa, ko'cha bolalarini aldab, ularning ketidan o'zining gapiga o'zi aldanadigan Afandi ikkinchi talqini esga soladi. Xalq latifalari o'zbeklarning o'ta kulgiga moyil el ekanini, bu xalqning tabiatida go'zal milliy kulgi mavjudligini dalillovchi janr namunalari hisoblangan.

A D A B I Ye T L A R

1. F.Yo'ldoshev. "O'zbek materiallarida Nasriddin afandi obrazi". Toshkent, 1969.

2.K.Imomov va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent "O'qituvchi", 1990

XALQ DOSTONLARI

Dostonlar xalq og'zaki badiiy ijodining eng yirik janrlaridan biridir. Doston qahramonlarning o'zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlovchi, ishqiy yoki fantastik mazmunga ega bo'lgan yirik hajmdagi she'riy asardir. Unda o'rni-o'rnida (asar ichida) nasriy parchalar ham berilgan. Dostonlar halqning o'zi tomonidan aytilgan xalq tarixidir. Dostonlar har bir tarixiy davrning, sotsial tuzumning, xalq psixologiyasining xususiyatlarini badiiy formada aks ettiradi. Dostonlar xalq orasida yaratilgani uchun ijodkor xalq dostonlar orqali o'z orzu intilishlarini, his-tuyg'ularini ifodalaydi. Dostonlar hajm jihatdan ham voqelikni aks ettirish obrazlar sistemasining keng va atroflicha talqin etilishi jihatidan xam fol'klorning boshqa janrlariga nisbatan salmoqli. Shuning uchun ham dostonlarni ba'zan xalq romanlari deb yuritadilar. Dostonlarni odatida alohida avtorlar yaratadilar. Biroq asrlar davomida og'izdan og'izga o'tishi natijasida ularning birinchi ijrochisi unutilib, umumxalq ijodiga aylanib qoladi. Xalq dostonlarining turli tsikllari, varinat va versiyalari paydo bo'ladi. Ma'lumki fol'klordagi dostonchilikning asosiy xususiyati ijodiy protsessning kollektiv xrakteriga ega bo'lishidir.

Masalan, hikoya qilishlaricha Ernazar Baxshi Buxoro Amiri Nasrullo huzurida «Alpomish» dostonidan olti kuy kuylagan emish. Bunda u qalmoqlar qo'lida

tutqunda yotgan qahramonning Boychibor tulpori yordamida qutqarilishini yangidan-yangi to'sqinliklar qo'shib, cho'za bergan emish. Oxiri sabr-toqati qolmagan Nasrullo o'zining janga minadigan otini egarlatib, shoir ro'parasiga bog'lagan emish. Buni faxmlagan xushyor shoir shu epizodni dostonga kiritib, go'yo amirning oti Alpomishni qutqarishga jo'nagan va uni shu ot qutqargan qilib ko'rsatgan, shu bilan birga dostonning keyingi epizodlarini siqib, asarni tez tugatgan emish.

Ma'lumki, xalq dostonlari qabilachilik tuzumining emirilishi bilan yakka shaxs o'zining urug' va qabilalariga, jamoalariga qarshi kuch boshlagan davrlarda paydo bo'la boshladi. Ijtimoiy taraqqiyot davri, voqea-hodisalarning mavjud ertak, hikoyat, lirik she'r kabi janrlarga sig'may qolishi va voqealikni murakkab epik planda tasvirlashga bo'lgan talabning kuchayishi natijasida doston janri paydo bo'la boshladi.

Shuningdek, o'tmishda tarixiy shaxslar faoliyati, xalq marosim qo'shiqlari, xalq ertaklari, xalqning hayot usuli va urf-odatlarini, turli xarakterdagi manbalar doston janrining shakllanishiga turki bo'lgan deyish mumkin. Xalq og'zaki ijodidagi doston janri o'zining spetsifik xususiyatlari bilan yozma adabiyotdagi dostonlardan farq qiladi. Bu farq doston tematikasiga ham g'oyaviy, mazmunga ham, syujeti va kompozitsion qurilishda ham, obrazlar sistemasi va uslubida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu farqlar asosan quyidagilar. Dostonlar qahramonlari dahshatli dushmanlari-devlar, yalmog'izlar, ajdaholar ustidan yakka kurashda g'olib chiqadi. Ana shu xususiyat xalq dostonlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Doston qahramonlari alp (solishtiring Alp Tegin, Alp Arslon, Alp Basmi, Alpomish) pahlavon, polvon qiyofasida tasvirlanadi. Dostonlarda qahramonlar arslon, sher, yo'lbars, qoplonga o'xshatiladi. Dostonlarda qahramonlarning tashqi qiyofasi jismoniy jihatdan ham, ideallashtiriladi. Bu narsa doston qahramonlarining dushmanlar bilan kurashida yaqqol seziladi. Jumladan, «Malika ayyor» dostonida Avaz baxmaybat kelbatli, har panjasi 3,6,9, botmon keladigan Makotilni qumursqaga qiyos qiladi va engadi.

Ko'pchilik dostonlarda qahramonlarning jasorati yoshlik paytlarida namoyon bo'ladi. Alpomish 14 yoshida qalmoqlar yurtiga Barchin uchun boradi. Go'rog'li 6 yoshida Badgirni o'ldiradi, 9 yoshli Nurali bilan otasi Avazni qutqarishga yo'lga chiqadi. Xalq dostonlarig xos bo'lgan yana bir xususiyat otanonaning uzoq safar oldidan o'z farzandiga nasihatidir. Chunonchi, «Ravshan» dostonida Hasan Ravshanni qahramonlikka, jasoratga, adolatli va insonparvar bo'lishga undaydi. Dostonlarda sevgi va muhabbat, ma'shuqalarining qahramonligi, kanizaklar ham alohida romantik ruh bilan tasvirlangan. Doston syujetida qahramonlar minadigan ot asosiy o'rinni tutadi. Bedov, Tulpor, G'iro't, G'irko'k nomlari bilan beriladigan otlar doston bosh qahramonlarining sarguzashtlarida yaqin yordamchi sifatida ifodalanadi. Ot yordamida uzoq masofalarni qisqa muddatda bosib o'tadi, katta-katta ishlarni bajaradi. Dostonlarda qahramonlarning devlarga qarshi kurashi va ularni o'z izmiga solib olishlari ham tasvirlangan. Bunday obrazlar «Malikayi ayyor», «Yunus pari»,

«Balogardon» kabi dostonlarda uchraydi. Umuman fol'klordagi doston janrining yozma adabiyotdagi dostonlardan farqlovchi shunga o'xshash juda ko'p xususiyatlari mavjudki, ular tematik jihatdan ham g'oyaviy badiiy jihatdan ham g'oyaviy badiiy jihatdan ham bir-birini takrorlamaydi. Doston janrini tematik va g'oyaviy mazmunga qarab quyidagi xillarga ajratish mumkin:

1. Qahramonlik dostonlari («Alpomish»)
2. Ishqiy romantik dostonlar («Ravshan» va Go'ro'g'li tsiklidagi dostonlar).
3. Tarixiy dostonlar. («Shayboniyxon», «To'lg'onoy» kabi)
4. Kitobiy dostonlar, «Bahrom va Gulandom», «Oshiq G'arib va Shoxsanam» va boshqalar

«ALPOMISH» DOSTONI

«Alpomish» dostoni mashhur xalq qahramonlik eposidir. «Alpomish» qahramonlik, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, birodarlik, chin sevgi va sadoqatni kuylovchi dostonidir. Bu doston qadim zamonlarda vujudga kelib, asrlar davomida xalq baxshilari, shoirlar tomonidan kuylanib, takomillashib bordi. Bu doston xalq baxshilarining sevib kuylaydigan asardir. Birorta o'zbek baxshisi yo'qki, «Alpomish» dostonini zavq-shavq bilan kuylamagan bo'lsin. Shuning uchun «Alpomish» dostoning o'zbek shoir va baxshilari tomonidan kuylanib kelgan va fol'klorshunoslikka yozib olingan 30 dan ortiq varinatlari bor.

Ana shu varintlari orasida eng mukammali va badiiy jihatdan pishiq ishlangani Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variantdir. Bu variant 1939 yilda Hamid Olimjon so'zboshisi bilan chiqdi. «Alpomish» dostoni turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarda ham «Alpomish» dostoning turli variantlari bordir. «Alpomish» dostonining kurtaklari, patriarxal qabilalar hayotiga borib taqaladi. Dostonda ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi, sinfiy ziddiyatlarning chuqurlashuvi, qabila kambag'allarining qul qilinishi hamda feodal munosabatlarning shakllanishi tasvirlangan. Ilmiy adabiyotlarda «Alpomish» dostoni XVI asrda to'la shakllangan deb ko'rsatiladi.²

Ammo, Alpomish qaysi davrda yaratilgan bo'lmasin, unda xalq tarixi va kurashi, ozodlik uchun intilishi, xalq urf-odatlari o'zining yorqin badiiy ifodasini topgan.

«Alpomish» dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li og'zidan yozib olingan varianti eng mukammali, o'zbek va boshqa halqlari kitoblari orasida mashhuri hisoblanadi. Shuning uchun biz quyida ana shu Fozil shoir variantining qisqacha syujetini keltirish va shu xaqda fikr yuritishni lozim ko'rdik.

¹ Таниqli фольклоршунос олим Т.ра Мирзаев «Алпомиш» дostonининг 'zbek вариантлари («Фан» нашриёти, Т., 1968 йил) номли монографиясида «Алпомиш» дostonининг вариантлари т'расида атрофлича фикр юритган.

² Эранг: В.М.Жирмунский, Х.Т.Зарифов. «Узбекский народный героический эпос», М., 1947

Qadim zamonlarda o'n olti urug` Qo`ng`irot elida Dobonbiy degan o`tg`an ekan. Dobonbiydan Olpinbiy ismli farzand tug`ilibdi. Olpinbiydan esa ikki o`g`il paydo bo`libdi. U kattasiga Boybo`ri, kichigiga Boysari deb ism qo`yibdi. Dobonbiy o`z mamlakatining boyligini ikkiga bo`lib, uni Qo`ng`irot va Boysun deb ataydi. Biriga katta o`gli Boybo`rini, ikkinchisiga kichik o`g`li Boysarini xukmdor etib tayinlabdi. Boybo`ri bilan Boysari farzand ko`rmaydi. Hatto to`yda odamlarning gapini eshitadilar. Ular farzandsizlikdan eziladilar. Nihoyat Boybo`ri bilan Boysarining xotinlari xomilador bo`ladilar. Boybo`ri o`g`il ko`radi ismini Xakimbek qo`yadi. Boysari esa qizlik bo`ladi, ismini Barchin qo`yadi. Aka-ukalar farzandlarimiz voyaga etsa quda bo`lamiz deb ahd qilishadi. Xakimbek yoshligidanoq pahlavon bo`lib o`sadi, atrofdagilar uni pahlavon ya`ni «alp» deb atay boshlaydilar. Barchin ham go`zallikda, aql-idrokida yagona bo`lib o`sadi.

Kunlarning birida Boybo`ri bilan Boysari o`rtasida nizo kelib chiqadi. Buning sababi Boybo`rinning o`z ukasi Boysaridan zakot talab qilishi edi. Akasiga zakot berishni istamagach Boysari o`z urug`i bilan qalmoq eliga panoz izlab ketadi. Yo`lda Boysari chorvasi qalmoqlarning ekin erlarini payhon qiladi. Bundan qattiq g`azablangan Qalmoqshoh Boysariga dushmanlarcha munosabatda bo`ladi. Qalmoqshohning 90 alp yigiti bo`lib, Barchinga oshiq bo`lib qoladilar. Zo`ravonlaracha sovchi yuboradilar. Mana shunday bir paytda Barchin qalmoq xukmdorining zo`ravonligiga qarshi o`zini qutqarish uchun harakat qiladi. Otasining mushkul ahvolda tushib qolganligini ko`rib, o`z talantini ishga soladi. Qalmoqlardan qutilish yo`lini izlaydi. Shu maqsadda 4 shart qo`yadi. Shart bajargan kishiga xotin bo`lishga tayyor ekanligini bildiradi. Shartlarning birinchisi ming qadam joydan tangani urish, ikkinchisi 90 alpni kurashdan engib chiqish, uchinchi kamon otganda yoyi sinmaslik, to`rtinchisi poygada o`zish edi.

Lekin, Barchin Alpomishni sevdi. Shuning uchun u Alpomishga xabar yuboradi. O`zining ahvoli va shartlarini bildiradi. Alpomish xabarni eshitgach, qator sarguzashtlardan so`ng qalmoqlar yurtiga etib keladi, Qorajon bilan do`stlashadi. Alpomish bilan Qorajon bir taraf, alplar bir taraf bo`lib kurash boshlaydilar. Barchin qo`ygan shartlarni bajargach yana bir qancha sarguzashtlardan so`ng o`z yurti Qo`ng`irotga Barchinni olib qaytadi. Murod-maqsadiga etadi.

Biroq shuni alohida ta`kidlash kerakki, «Alpomish» dostoni turli baxshilar tomonidan turlicha kuylangani sababli, uning syujetida turli xarakterdagi o`zgarishlar mavjud. Bir variantga mavjud bo`lgan epizod ikkinchisida tushib qolgan yoki boshqacha planda berilgan. Hatto ma`lum tarixiy sharoitga xos bo`lgan ayrim yangi voqealar kirib qolgan. Ayrim obrazlar bir asarda bir xil talqin qilinsa, ikkinchisida ikkinchi xil beriladi. Jumladan, Barchin shartlari ba`zi variantlariga 2 ta ayrimlarida 3 ta xolos. Dostondagi voqea-hodisalar Boysun va Qo`ng`irotga yuz berganligi aniq aytiladi. Qo`ng`irot qabilasi eng qadimgi qabilalardan bo`lib, u o`zbek, qozoq, qoraqalpoq va turkmanlarning urug`laridandir. Qo`ng`irot qabilasi asosan chorvachilik bilan shug`ullangan ular Amudaryo yoqasi va Boysun ko`li atrofida ko`chmanchilik bilan hayot

kechirishgan. Dostonda tasvirlangan poyga o'tkazilgan joy Boboxon tog'i Termiz yaqinidadir. «Alpomish» dostonning boshqa xalqlarda mavjud bo'lgan variantlarida ham Amudaryo yoqasi, Boysun atrofi qayd etiladi. Bularning barchasi «Alpomish» dostoni Surxandaryo territoriyasida yaratilganligi va boshqa joylarga ham tarqalib shuhrat qozonganini ko'rsatadi.

«Alpomish» dostoni uzoq zamonlardan buyon aytilib kelingani uchun ham unda turli davrlarga xos ijtimoiy sinfiy munosabatlar o'z aksini topgan. Umuman qabilaga, elga samimiy muhabbat, dushmanga g'azab va nafrat, mardlik va fidokorlik, oila baxti, samimiy sevgi, do'stlik va sadoqat, inson va adolat, oyoishtalik va farovonlik uchun kurash dostonining etakchi g'oyaviy leytmotivini tashkil qiladi. Bu g'oyaviy motivlar dostonning bosh qahramonlari Alpomish va Barchin sevgisi sarguzashtlari fonida tashkil etiladi. Dostonda, shuningdek, Qaldirg'och, Qorajon, Toychaxon, Surxayil kampir, Ultontoz va Ko'kaldosh obrazlari yaratilganki, ularning har biri asar syujeti va kompozitsiyasida muayyan estetik maqsadni ochishdan katta o'rin tutadi. Bu obrazlar voqealarning rivojlanishi bilan birga o'sib, taraqqiy etib boradi, har bir obraz o'ziga xos xususiyatni gavdalantiradi.

«Alpomish» dostoni ko'p asrlar davomida baxshilar tomonidan kuylanib xalqni mardlik, qaxramonlik, insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynab kelmoqda. «Alpomish» dostonidan ilmiy jihatdan o'rganish asosan Ulug' Oktyabr' sotsialistik revolyutsiyasidan keyin boshlandi. Bu sohada G'ozim Olim Yunusov, X.T.Zarifov, M.Zarifov, M.Afzalov va boshqalarning xizmati kattadir. «Alpomish» dostonini ilmiy asosda nashr etish va o'rganish 30-yillarning oxirida boshlandi. Bu sohada ayniqsa X.Olimjon va X.T.Zarifovlar tashabbus ko'rsatdilar. Ammo 50-yillarning boshlarida ayrim adabiyotshunoslar xalqimiz asrlar davomida qadrlangan, sevgan asarlariga, jumladan, «Alpomish» dostoniga shubha bilan qaray boshladilar. «Alpomish» dostoniga nigilistlaricha munosabatda bo'lib, uning xalq asari ekanligini inkor eta boshladilar. Jumladan, A.Abdunabiev va A.Stepanovlar «Alpomish» dostoni xaqida yozgan maqolalarida¹ vul'gar sotsiologizm zaminiida turib, eposning motivlari yaratilgan davrdan uzib olinib talqin qildilar va xalqqa qarshi, reaksion deb e'lon qildilar.

Ammo ilmiy jamoatchilik dostonga nisbatan bo'lgan bunday qarashlarni qattiq qoraladi. Ayniqsa, 1954 yil iyul' oyida Moskvada SSSR xalqlari eposini o'rganish masalalariga bag'ishlanib o'tkazilgan kengash katta ahamiyatga ega bo'lgan. Kengashda A.K.Borovkov, X.T.Zarifov, O.Valitova va boshqalar «Alpomish» dostonlarining xususiyatlarin ob'ektiv, ilmiy jihatdan to'g'ri talqin

¹ Eran: A.A.abdunabiev A.Stepanov «Об эпосе Алпамыш», газ. «Правда востока» 1952 год, 29 января, и «Под флагом народности» журн. «Звезда Востока» 1952г., №2 ва бosh'alар

qilib berdilar, dostonga nigilistlarcha munosabatni qattiq tanqid qildilar. Respublika matbuotida ham «Alpomish» dostoni to`g`risida munozara va mulohazalar chiqa boshladi. Ana shu munozarani 1956 yilda adabiyotshunoslar N.Shukurov, S.Mirzaev va X.Doniyorov boshlab berdilar. «Sharq yulduzi» jurnalining 1956 yilning 2-sonida ularning «Alpomish» dostoni xaqida» nomli katta maqolasi chiqdi. Avtorlar o`z maqolasida A.Abdunabiev va A.Stepanovlar «Alpomish» dostoning g`oyaviy mazmuni buzib talqin qilinganliklarini konkret faktlar bilan asoslab berdilar. Dostonning g`oyaviy asosini qahramonlik, insonparvarlik, vanparvarlik, vafodorlik, samimiy do`stlik kabi olijanob ideyalar tashkil qiladi deb to`g`ri baho berdilar.

1956 sentyabrda Toshkentga fanlar akademiyasining A.M. Gor`kiy nomidagi jahon adabiyoti instituti va O`zbekiston SSR fanlar akademiyasining A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti tomondina «Alpomish» eposi muhokamasiga bag`ishlab o`tkazilgan regional kengashda dostonning g`oyaviy mazmuni, uning badiiy, xalqchil xususiyatlari haqida qimmatli fikrlar aytadi. Bu kengashda 20 ta doklad tinglandi. Kengash faqat «Alpomish» dostonini o`rganish uchun emas, balki umuman sovet fol`kloristikasini o`rganish va tadqiq qilishda muhim rol o`ynaydi.

TEKSHIRISH SAVOLLARI.

1. Fol'klor asrlarining tur va janrlar rang-barangiligi qaysi ehtiyoj sabablarga asosan tug'iladi?
2. Fol'klor asarlari janrlariga ta'rif bering?
3. Xalq dostonlari deganda nimani tushunasiz.
4. Dostonlarda turkumlik ta'rifini bayon eting.
5. «Alpomish» dostonining versiya va variantlari.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. Tur va janrlar rang-barangiligi og'zaki ijodning inson hayotini tarixiy taraqqiyoti va boyligini ifodlovchi omillar sifatida.
2. Xalq dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. «Alpomish» dostoning variantlari va versiyalari haqida ma'lumot.

DOSTON

So'lim oqshom. Quyesh ufqqa yenboshlagan bo'lsa ham, atrofdagi tog'larning osmonga bo'y cho'zgan cho'qqilari ustidagi oppoq qorlar, uzoq-yaqindagi sada daraxtlar, atrof bo'ylab ekilgan makka-jo'xori poyalari aniq ko'rinib turibdi. Ariq bo'yida o'tirgan doston shinavandalarining xayelini jildirib oqayetgan suv uzoq-uzoqlarga allalab olib ketayetganday. Ular bugungi kunda ko'pchilik yurtdoshlariga tansiq bo'lib qolgan doston tinglamoqdalar. Qorniga tol daraxtidan yassi qopqoq qoqilgan va butun ko'rinishi bittagina dastadan iborat do'mbiradan taralayetgan sadolar butun olamni sirli ohanglar dunesiga g'arq qiladi. Shunday damlarda inson o'ylari chegara bilmaydi. Baxshining ko'rinishidagina nozik tuyulgan sadobaxsh barmoqlari pardasiz dasta bo'ylab suzar ekan do'mbirani asrlar bo'yi avloddan-avlodga meros bo'lib kelayetgan kuyni eslashga majbur etmoqda. Ehe... Bu kuylarni kimlar tinglamagan deysiz .. Kuni bo'yi ona elat deb jonini qil ustida garovga qo'ygan xosil yig'ib o'rim-o'rim, bug'doyni g'amlagan dehqon ham, hayetidan mamnun qariya ham, oilasining ertangi kuni mushkul bo'lib turgan yiliqichi ham shu kuyning gadosi. Chunki bu kuy hammaga taskin beradi. O'tmish ajdodlarini eslatadi. Kunglida o'zi aniq ajrata olmaydigan tuyg'ular hosil qiladi. Baxshi esa do'mbirani chertaveradi. Uning o'z xayellari, rejaları bor. Uning ham oilasida tashvishlar, quvonchlar junbushga keladi. Muammolarining yechimini dumbiradan taralayetgan sadolardan izlaydi. Barmoqlari ba'zan ongli boshqariladi. Ba'zan bu barmoqlar o'z ixtiyerlari bilan dasta bo'ylab sayr qiladilar. Aslini olganda ularni boshqarishga ehtiyej yo'q. Go'daklikdan dastalarda katta bo'lgan bu barmoqlar eng suyuqli mashqulotlari bilan bandirlar. Kimdir ich-ichidan xo'rsinib kuyadi, kimdir boshini tebratib kuyga mast bo'ladi. Baxshi do'mbira kuyini shihoyasiga yetkazib doston ijrosini boshlaydi. Bu paytda uning o'ng qo'li do'mbiraning qorni uzra zarb berib torlarni chertib turadi. "Burungi o'tgan

zamonda, o'n olti Qo'ng'irotda elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'in ikki o'g'il paydo bo'ldi kattakonining otini Boybo'ri qo'ydi, ikkinasining otini Boysari qo'ydi",-deb boshladi baxshi o'zining hikoyasini. Tinglovchilar shu zahoti bugundan eshitadigan dostonlari "Alpomish" ekanini bildilar. Bu dostonni ko'pchilik necha martalab eshitgan bo'lsa-da, hamma dildan bir qoniqish, mamuriyat o'tkazdi. Sababi "Alpomish" hech kimning me'dasiga tegmagan doston edi. Qolaversa, biron marta uni to'kis bir xil ijro etgan baxshining o'zi yo'q. Albatta,qaysidir voqeani o'zgartirib, qishloqdagi yangiliklardan qo'shib, kimnidir tanqid qilib, kimnidir Xakimbekdek vallamatlikda maqtab aytishadi bu dostonni. "Baxshi soz chertganda sozandadir". She'riy parchalarni qo'shiq qilganda xonandadir. Kezi kelsa shoir bo'lib she'rlar to'qiydi. Budiiy so'z ustasi bo'lib hikoya o'qiydi. Ijld kelib qolsa yangi dostonni ham aytib ketaveradi. Tinglovchilarni lol qoldirib ovozinini to'lqinlantiraveradi. Alpomish gapirganda Alpomishning mardligini, barchin so'zlaganda Barchinning nozini ko'z oldimizda gavdalandiradi. Xamma san'at turlari jam bo'lganda doston vujudga keladi. Aytmoqchi, doston haqida to'kis tasassur hosil qilmoqchi bo'lsak, baxshining tinglovchilar o'rtasida o'tovda yeki tabiat qo'ynida doston ijro etishiga guvoh bo'lmo'g'imiz lozim, U tinglovchilar ham dotonning farqiga borishlari, yaxshi va o'rta miyena baxshini ajrata olishlari kerak. Shunda dostonda aytilgan lavhalarga munosabatlar bildiriladi. Alpomish kurashda g'olib kelsa, qiyiriqlar bo'ladi. Zindonda yetganida ubilan birga azob chekiladi. Xullas, kitob o'qish, radio tinglash, teledideniyadan ijroni tomosha qilish bilan doston haqida aniq tasavvur ololmaymiz. Ammo, "hech" dan ko'ra "hesh" deganlaridek, imkonniyat yo'q bo'lsa, kitobni o'qish, radioni tinglash, televizordan ko'rsatuvni ko'rish ham "hesh"ga o'tadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi minglab yillar davomida misqolma-misqol yig'ilib vujudga kelgan madaniy va ma'naviy xazinamizdir. Bundan mig yil oldin Mahmud Qoshg'ariy xalq qo'shiqlari, rivoyatlari, maqollarini to'plab "Devonu lug'atit turk" kitobiga kiritgan. O'sha asarlarning ayrimlarihanuzgacha xalq orasida og'zaki tarzda yashab kelmoqda. Undan keyin yuzlab ertaklar, qo'shiqlar, latifalar, topishmoqlar yaratildi.Ularning har biri o'ziga xos hajmga, shaklga ijro usuliga ega bo'lib alohida-alohida jenr hisoblanadi. Dostonlar ham ana shunday jarnlardan biridir. So'z, musiqa, qo'shiq, ashula, badiiy o'qish artistlik san'atlari birlashgan xolda namoyen bo'lgani uchun xalq dostonni og'zaki ijodining murakkab janr deb atashadi.Doston ilmiy adabiyetlarda sinkretik janr deb ham yuritiladi. O'zbekistonda xalq dostonlari Samarqand, Qashqadary, Surxondare, Buxoro, xorazm, namangan viloyatlarida va Qoraqalpog'iston muxtor respublikasida ijro etiladi. Ijrochilar do'mbira, qo'biz tor, dutor chertib doston aytadilar. Ijro usuliga ko'ra o'zbeklarda Samarqand, Xorazm, Farg'ona (Namangan) dostonchilik an'analari mavjud bo'lib, Samarqandda ichki bo'g'uz ovozda, Xorazmda ochiq qo'shiq aytish yo'libilan, Namanganda ochiq, ammo qo'bizda aytishga moslagan holda kuylanadi. Samarqand dostonchiligida hajm jihatidan katta dostonlar nasrdan va epik she'lardan iborat bo'ladi. Xorazm dostonchiligida dostonlar nasriy parchalar va lirik she'riy parchalardan iborat bo'ladi. Bu dostonlarning hajmi katta bo'lmaydi. Namanganda ham dostonlarning hajmi katta bo'lmaydi, ammo ularning matnlari ham samarqand dostonchiligi kabi

nasrdan va epik she'riy parchalardan tashkil etadi. Samarqand dostonchiligi an'anasiga manub "Alpomish" dostonidan bir parcha keltiraylik "Samarqandning minoriday zingkiyib, buti selanglab, otning ostiga aymashib, o'n uch mahramni birga olib, Qorajonning kallika jo'nab barayetgan yeri Qorajon bek yo'lga kirdi. Mahramlarin birga oldi, Chilbir cho'lga yo'l yurdi. Bilgan enasin so'zini, Qo'rmoqchi sarvinozni, Olmoqchi biyning qizini Yo Bu parchada "Samarqandning minoriday.. " deb boshlanadigan qism nasriy hisoblanadi." deb boshlanadigan qism nasriy hisoblanadi." Qorajan bek yo'lga kirdi" esa epik she'rdir. Epik she'rda qahramonning h9arakati nasriy parchadagidek bayen etilaveradi. Endi Xorazm dostonlari hisoblangan "Oshiq Garib va Shohsanam " dostonidan bir parcha olamiz "Shohsanam "aribni birdan ko'radiyu, yana ko'zdan yo'qotib, qayerga ketganini bilmay qoladi Uchirdim shunqor qushimni Xech bir yerda qarori yo'q. Va hasrato, mahvoshimning To yetgunga qaror yo'q. Bu parcha "Shohsanam "aribni.." so'zlari bilan boshlanuvchi matn nasrdan iborat. "Uchirdim shunqor qushimni" misrasi bilan boshlanadigan she'r esa Samarqand dostonchiligi an'anasiga talluqli "Alpomish"dan olingan she'riy parchadan farq qiladi. Agar "Alpomish"dan olingan she'riy parchada qahramonning harakati haqida ma'lusot berilsa "Qorajonning Barchin oldiga ketish)," Oshiq "arib va Shohsanam" dostonidagi she'riy parchada Shohsanamning faqat ichki kechirmalari bayen etiladi. Shuning uchun Samarqand dostonchiligidagi she'riy parchalarni epik she'r, Xorazm dotonchiligidagi she'riy parchalarni lirik she'r nomi bilan aytmiz. Namangan dotonlari an'anasiga oid "Zamonbek" dostonidan ham bir parcha keltiraylik Go'ro'g'li yigitlarining g'ayrati kelib, o'tday tutashib, Shodmon polov degan yigit Mamaniyez ishini, Uni-buni deganiga qo'lymadi. Bora qolib to'rvayidan ushlaydi, Taqimini bir ko'tarib tashlaydi". Bu parchaning shakl va mazmunidan ma'lum bo'ladiki, narsada ham she'r "nazm)da ham qahramonlar harkaating bayen o'z ifodasini topgan. Bu jihatdan Farg'ona dostonchiligi Samarqand dostonchiligi an'anasiga o'xshashdir. Xalq dostonlari yurtimizning turli hududlarida turlicha ijro etilishi, ijro yo'lga ko'ra hatto bir viloyatning o'ziga ayrim-ayrim maktablarga ega bo'lishidan tashqari mazmuniga ko'ra ham bir necha turlarga bo'linadi. Taniqli olimlardan V.M.Jirmunskiy, X.T.Zarifov, M.Saidov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqovlarning kuzatishlariga ko'ra xalq dostonlarini turlarga bo'lishda ko'proq ularda ifodalangan voqealarning mazmuni, qahramonlarning fe'l-atvoriga e'tibor qilish ma'qul. Ammo nomlari tilga olingan olimlarning har biri amalga oshirgan tasnif ko'rinishi bir-biridan qaysidir tomonlari bilan farq qiladi. Shunga qaramay dostonlarimiz asosan qahramonlik ishqiy, jangnoma, tarixiy kabi turlariga bo'linishini qayd etish mumkin. Ulardan qahramonlik va ishqiy mavzudagilar ko'proq tilga olinadi. Xususan, "Ravshan", "Oshiq "arib va Shohsanam" kabi asarlar ishqiy, "Alpomish"ga o'xshaganlari qahramonlik dostonlari hisoblanadi. Xalq dostonlarining ijrosida tinglovchilarni xam chiqarish mumkin emas. Baxshi o'z tinglovchilarining ijro etilayotgan dostonidagi voqealarga befarq emasligini sezsa, tinglovchilar ruhan dostonidagi voqealarni his etib eshitayotganini bilsa uning xayelida yangi-yangi lavhalar keladi, ilhomni jo'sh uradi va doston badiiy jihatdan mukamallashib boraveradi. 10u0 yilning qishida Urganch shahridagi bir voqeani eslayman Urganch shahrida Qodir Sozchini to'yg'a

taklif qilishdi. Mehmon sifatida men ham shu to'ya bordim. Baxshi "Oshiq "arib va Shohsanam" dostonini boshladi. Ammo to'y qatnashchilari u kuylayotgan dostonga qiziqish bilan qaramadilar. Yig'ilganlar ko'proq ichkilish ichish, bir-birlari bilan o'zaro suhbatda bo'lishni afzal ko'rdilar. Natijada Qodir sozchi ba'an saotlab aytiladigan "Oshiq "arib va Shohsanam" dostonini qirq daqiqada tugatishga ulgurdi. Ikkinchibir voqeani eslayman. 1002 yilda professor M.Saidov bilan hamkorlikda Qashqadare viloyatining Dehqonobod tumaniga ekspeditsiyaga bordik. Bizga filologiya fanlari nomzodi, Marhum Abdumomin Qahhorov hamkorlik qildi. Mashhur Qodir Baxshining to'ng'ich o'g'li Qahhor baxshi "Mallasavdagor" dostonida parcha ijro etdi. Doston tinglayotgan hamqishloqlarining qiziqishidan ta'sirlangan baxshi poygaga tayerlanish lavhasini ikki soatdan oshiq vaqt mobaynida kuyladi. Poyga ishtirokchilarining tashqi qiyefalari, otlarning zoti, ta'rifi, shu qadar mukammal tasvirlandiki, tinglovchilarda hech qanday savol alomati qolmadi. Ammo ayni paytda doston eshituvchilarda zerikish holati ham ro'y bermadi. Shuning uchun ham baxshi doston juda ehtiros bilan o'z bilganlarini yedga olgan holda zavq bilan ijro etdi. Natijada tinglovchilar bu ijrodan katta estetik ozuqa oldilar. Ma'lum bo'ladiki, doston ijrosi juda nozik bo'lib baxshi o'ziga alohida e'tiborni talab qilarkan. Qadim paytlarda xalq baxshilari maxsus doston kechalarini uyushtirganlar. Bu kechalarda ustoz baxshilar, o'rta avlod baxshilari va shogird baxshilar ishtirok etganlar. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom Shoir Nazar o'g'li, Po'ltan shoir, Bola baxshi ("Qurbonnazar Abdullayev) kabi ustoz baxshilar sharoit taqozasi bilan Samarqand, Xorazm, Turkmaniston va boshqa viloyatlardan qishloqlardan ana shunday yig'inlarda qatnashganlar. Ular bir-birlarining ismlarini o'ta hurmat bilan tilga olganlar. Doston aytishdagi o'zlarining ustunliklarini emas, balki boshqa baxshilarning afzal tomonlarini ko'proq esga olganlar. Masalan, Fozil Yo'ldosh o'g'li Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Muhabbat", dostonlarini, xususan, "Ravshan"ni yaxshi ay tishlarini tan olgan bo'lsa, ergash Jumanbulbul o'g'li Fozil Yo'ldosh "Alpomish" dostonini aytishlariga qoyil qolganini ta'kidlagan. Bunday yig'inlarni xech ikkilanmay xalq dostonchilarining "Mahorat maktabi", deb atash mumkin, Chunki ularda har bir baxshi o'zining mahoratini alohida namoyen qiladigan doston parchalaridan namunalar kuylagan. Ustoz baxshilar shogirdlariga o'z ustozlari haqida hikoyalar so'zlab berishgan. Qaychi dostonni qayerda aytish, qanday aytish yuzasidan maslahatlar berishgan. Zarur o'rinlarda esa namuna sifatida dostonidan ijro ham ko'rsatilgan. Shu o'rinda yana bir qiziq voqeani eslashga to'g'ri keladi. 10yi yilda men Toshkent davlat universitetida endigiga xalq og'zaki ijodi fanidan dars bera boshlagan edim. Talabalarga o'zbek so'z san'ati xazinasining boyligini ahtiros bilan tushuntirib, halq dostonlari haqida ham gapirib berdim. Ammo u paytlarda xalq dostonlari bugungidek radioda, televideniya baxshilar ijrosida eshiritilmasdi. Xalq baxshilarining ko'riklari hozirgidek uyushtirilmas edi. Shuning uchun studentlar dostonni baxshi ijrosida ekanliklarini bildirishdi. Men bu istakni prof. M.Murodovga aytganimda, Qashqadaredan kelib qolgan Chori baxshi Xo'jamberdiyevning Toshkent viloyatidagi Bo'ka tuman Xamza kolxozida paxta brigadiri bo'lib ishlayotganini aytdilar va xohlagan kuni borib kelishimiz

mumkinligini ta'kidladilar. Erta bahor payti 10-12 talaba bilan baxshinikiga mehmonga bordik. Bir piyela choydan so'ng doston ijrosi boshlandi. Baxshi juda kuchga to'lib turli dostonlardan parchalar aytdilarki, kech kira boshlaganini payqamadik. Men doston ijrochisi paytida Malik Murodovga kech kira boshlaganini, Toshkentga qaytish qiyinlashishini ko'zim bilan imo qilib ko'rsatdim. Malik aka dostonidan e'tiborini olmay bir daqiqa soatlariga qarab qo'ydilar. Ammo shu harakatning o'zi ham baxshi e'tiboridan chetda qolmaydi. Dostonda Go'ro'g'li Yunus paryidan "Sandan xushro'y pari, mendan baquvvat erkak bu duneda bo'lganmiO"-deb so'rab turgan edi. Shu zahoti baxshi "Go'ro'g'li Yunus paidan so'rab turibdi, bilmadim na uchun Malikjon soatlariga qarab turibdi"-deb davrvdagi hodisani dostonning mazmuniga singdirib yubordi. Bunday hodisalar bir doston ijrosida ko'plab uchraydi. Baxshi tinglovchilarni yaxshi bilgani, nommanom tanigani uchun dostonni ijro etish davomida qishloq, mahalla hayetiga oid hodisalarni eslab dostonga kiritib ketaveradi. Bu usul tinglovchilarning ijroga bo'lgan qiziqishini orttirib yuboradi. Bunday yig'inlarni hech ikkilanmay xalq dostonlarining "Mahorat maktabi", deb atash mumkin. Chunki ularda har bir baxshi o'zining mahoratini alohida namoyen qiladigan doston parchalardan namunalar kuylagan. Ustoz baxshilar shogirdlarga o'z ustozlari haqqida hikoyalar so'zlab berishgan. Qaysi dostonni qayerda aytish, qanday aytish yuzasidan maslahatlar berishgan. Zarur o'rinlarda esa namuna sifatida dostonidan ijro ham ko'rsatilgan. Shunday qilib o'zbek xalq og'zaki ijodidagi dostonlar matn va ijro nuqtai nazaridan alohida qimmatga ega janr hisoblanadi. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan "Alpomish" dostoni esa o'zbek dostonlarining shoh asaridir. Xalq baxshilari baxshini "Alpomish" dostonini ijro etishga qarab baholanganlar. "Alpomish" dostoni xalq baxshilari uchun mahorat mezoni hisoblanadi. Shu o'rinda "baxshi" so'ziga izoh berish ma'qul bo'ladi. O'zbek tilining izoo'li lug'atida "baxshi" so'zining uch ma'nosi ko'rsatib o'tilgan 1. Xalq dostonlarini kuylovchi shoir, oqin.. 2. Duolar o'qib, dam solib, irim-sirimlar qilib davolovchi tabib..e. Buxoro xonligida qurilish uchun belgilangan mablag'larning hisob kitobini yurituvchi lavozimli kishi" 1. O'zbek xalq og'zaki ijodini o'rgangan taniqli olimlar V. M.Jirmunskiy va X.T.Zarifov "O'zbek xalq qahramonlik eposi" kitoblarida "Lug'at" dagi fikrni qayd etganlar. Ammo shu bilan birga 1o2i-e0-yillarda O'zbekistonning Qashqadare, Surxondare, Xorazm, Toshkent viloyatlaridagi xalq udumlarini o'rgangan. L.Potanov "Baxsh" so'zi ustoz murabbiy ma'nosida kelishini ham eslatib o'tadi. Xar holda "baxsh" so'zi o'zbek tilida uzoq qadimdan ma'lum bo'lib ko'p e'tiborli, ayniqsa, so'z sehdidan unumli foydalana oladigan odamlarga nisbatan qo'llangan. Doston ijro etuvchi san'atkorlarga nisbatan jirov, shoir kabi so'zlar ham qo'llangan. Ularni xalqimiz e'zozlagan, xurmatini bajo keltirgan.

"ALPOMISH" DOSTONI

"Alpomish" dostoni o'zbek xalq eposining eng murakkab va badiiy jihatdan eng mukammal namunasidir. Xalq baxshilari bu dostonni kuylashga mahorat maktabini egallaganlaridan so'nggina kirishadilar. Shuning uchun "Alpomish" dostoni haqida biron ilmiy fikr bildirish folklorshunos olimlarining

orzu mezonlarini anglatsa, "Alpomish" dostonini kuylash doston ijrochisining baxsh sifatida shakllanish darajasini belgilaydi. "Alpomish" dostonida o'zbek xalqining xalq sifatida shakllanish tarixi o'z aksini topgan. Olimlarning ta'kidlashlaricha, mazkur asarda ibtidoiy jamoa tuzumida markazlashgan davlatning shakllanish jarayeni aks etgan. Biz avvalgi ma'ruzalarda miflar haqida fikr yuritgandik. "Alpomish" dostonida Markaziy Osiyeda yashagan xalqlarning mifologik duneqarashi ildizlari namoyen bo'ladi. Dostondagi tuya, ot, g'oz, yey, o'q tush kabi detallar fikrimizning dalilidir. Asar qahramonlarining nomlanishida ham mifik duneqarash belgilari ko'zga tashlanadi. Xususan Boybo'ri-katta bo'ri "oq bo'ri) Boy-sari- katta tepa "oq tepa) Alpomish- ulkan bahodir Qaldirg'och- Oллоh va inson o'rtasidagi vositachi qush Barchin-evvoyi o'rdak Kuntug'mish-kun farzandi kabi ma'nolarni anglatadi. Xatto Kushash-Qalmoq yurtining shohi Toychixon ismining tarixini taniqli olim V.M.Jirmunskiy mo'g'ul tilidagi "shahzod" ma'nosini anglatgan so'zdan olinganini ta'kidlaydi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning looi yil 1e yanvar kuni "Alpomish" dostonining ming yilagini nishonlash haqida Farmonga imzo chekkanini to'liq ravishda tasdiqlash lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, "Alpomish" dostonning paydo bo'lishi va shakllanishi ming yildan ham uzoqroq tarixini o'z ichiga oladi. Bu fikrni bildirishda biz quyidagi asoslarni nazarda tutamiz

1.Dostonda Alpomishning xususiyatlari sifatida "Avesto" dagi Mitranning qilich kesmas, o'q o'tmas, o'tda yenmas fazilatlarini mujassamlashgan.

2. Qalmoq elining alplari o'z yurtlariga taqdir taqozosi bilan ko'chib kelgan Barchinoyga sovchi bo'lar ekanlar "E birimizga teg, ye barimizga teg"degan taklifni aytadilar. Bir ayelning bir necha erkak bilan bitta oilada yashash tartibi Markaziy Osiyeda eradan avvalga V-I V asrlar bilan belgilanadi.

3. "Alpomish" dostonining turkiy xalqlar orasida to'rtta versiyasi mavjudligi aniqlangan bo'lib, ular Oltoy, Qipchoq O'g'uz, Qo'ng'iro't iboratdir. Oltoy versiyasidagi asar ertak sifatida asrimizning e0-yillarida yezib olingan. Unda bevosita ibtidoiy jamoa davridagi hayet o'z ifodasini topgan. Agri paytda, Urol tog'ining janubi, boshqird, tatar, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq kabi xalqlar og'zaki ijodida bir syujetning bir necha versiya va variantlarda ham mazkur asarning yaratilish davri o'tmish zamonlarga borib taqalishini izoo'laydi.

4."Alpomish" dostonida yuqorida qayd etganimizdek mifik xarakterdagi totem va fetishlarning o'rin olishini asarning tarixiy ildizlaridan namuna sifatida baholash mumkin.

5. Jahon adabiyeti tarixida asar bosh qahramonlarining katta safarga o'tlanishi, u safardalik paytida davlatni boshqarish boshqa-noloyiq shaxsga o'tishi, asar qahramonining xotini to'yi kuni yuritga qaytishi Yunon "Odissey" asarini eslatadi. Bu asar yaratilishi esa eradan avvalgi asrlar bilan o'lchanadi.

6. Xalq og'zaki ijodidagi qadimgi asarlarda jismoniy musobaqalar hamisha yetakchi o'rinni egallagan. "Alpomish" dostoni ham bundan mustasno emas. Bu ham dostonning qadimiyligidan darak beradi.

7. Qadimgi epos namunalarida turmushga chiqayetgan qiz ko'pincha

orzu mezonlarini anglatasa, "Alpomish" dostonini kuylash doston ijrochisining baxsh sifatida shakllanish darajasini belgilaydi. "Alpomish" dostonida o'zbek xalqining xalq sifatida shakllanish tarixi o'z aksini topgan. Olimlarning ta'kidlashlaricha, mazkur asarda ibtidoiy jamoa tuzumida markazlashgan davlatning shakllanish jarayeni aks etgan. Biz avvalgi ma'ruzalarda miflar haqida fikr yuritgandik. "Alpomish" dostonida Markaziy Osiyeda yashagan xalqlarning mifologik duneqarashi ildizlari namoyen bo'ladi. Dostondagi tuya, ot, g'oz, yey, o'q tush kabi detallar fikriimizning dalilidir. Asar qahramonlarining nomlanishida ham mifik duneqarash belgilari ko'zga tashlanadi. Xususan Boybo'ri-katta bo'ri "oq bo'ri) Boy-sari- katta tepa "oq tepa) Alpomish- ulkan bahodir Qaldirg'och- Olloh va inson o'rtasidagi vositachi qush Barchin- evvoyi o'rdak Kuntug'mish-kun farzandi kabi ma'nolarni anglatadi. Xatto Kushash-Qalmoq yurtining shohi Toychixon ismining tarixini taniqli olim V.M.Jirmunskiy mo'g'ul tilidagi "shahzod" ma'nosini anglatgan so'zdan olinganini ta'kidlaydi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning 1001 yil 1c yanvar kuni "Alpomish" dostonining ming yilini nishonlash haqida Farmonga imzo chekkanini to'liq ravishda tasdiqlash lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, "Alpomish" dostonning paydo bo'lishi va shakllanishi ming yildan ham uzoqroq tarixini o'z ichiga oladi. Bu fikrni bildirishda biz quyidagi asoslarni nazarda tutamiz

1. Dostonda Alpomishning xususiyatlari sifatida "Avesto" dagi Mitraning qilich kesmas, o'q o'tmas, o'tda yenmas fazilatlarini mujassamlashgan.

2. Qalmoq elining aplari o'z yurtlariga taqdir taqozosi bilan ko'chib kelgan Barchinoyga sovchi bo'lar ekanlar "E birimizga teg, ye barimizga teg" degan taklifni aytadilar. Bir ayelning bir necha erkak bilan bitta oilada yashash tartibi Markaziy Osiyeda eradan avvalga V-IV asrlar bilan belgilanadi.

3. "Alpomish" dostonining turkiy xalqlar orasida to'rtta versiyasi mavjudligi aniqlangan bo'lib, ular Oltoy, Qipchoq O'g'uz, Qo'ng'iro't iboratdir. Oltoy versiyasidagi asar erak sifatida asrimizning eO-yillarida yezib olingan. Unda bevosita ibtidoiy jamoa davridagi hayet o'z ifodasini topgan. Ayni paytda, Urol tog'ining janubi, boshqird, tatar, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq kabi xalqlar og'zaki ijodida bir syujetning bir necha versiya va variantlarda ham mazkur asarning yaratilish davri o'tmish zamonlarga borib taqalishini izo'laydi.

4. "Alpomish" dostonida yuqorida qayd etganimizdek mifik xarakterdagi totem va fetishlarning o'rin olishini asarning tarixiy ildizlaridan namuna sifatida baholash mumkin.

5. Jahon adabiyeti tarixida asar bosh qahramonlarining katta safarga o'tlanishi, u safardalik paytida davlatni boshqarish boshqa-noloyiq shaxsga o'tishi, asar qahramonining xotini to'yi kuni yuritga qaytishi Yunon "Odissey" asarini eslatadi. Bu asar yaratilishi esa eradan avvalgi asrlar bilan o'lchanadi.

6. Xalq og'zaki ijodidagi qadimgi asarlarda jismoniy musobaqalar hamisha yetakchi o'rinni egallagan. "Alpomish" dostoni ham bundan mustasno emas. Bu ham dostonning qadimiyligidan darak beradi.

7. Qadimgi epos namunalarida turmushga chiqayetgan qiz ko'pincha

